

D. XOLMIRZAYEV

YILQICHILIK DARSLIK



Samarqand - 2021

Uzbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi
Samarqand veterinariya meditsinasi instituti

D.XOLMIRZAYEV

YILQICHILIK DARSLIK

Uzbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
540600 - Zootexniya (Yilqichilik va to'yachilik) yo'nalishining
talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

SAMARQAND – 2021

636.1
X-72

ISBN 978-9943-7383-1-7

UDK 636.1(075.8) X 72

D.Xolmirzayev

Yilqichilik. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.

T. 2021. 415 bet.

Davlat ta'lim standarti talablari asosida tuzilgan, namunaviy o'quv reja va fan dasturi mazmuni asosida tayyorlangan.

Darslikda yilqichilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va rivojlanishi, O'zbekistonda yilqichilikning tarixi va qilingan ilmiy ishlar, otlarning kelib chiqishi va ularni xonakilashtirish, otlarning eksteryeri, interyeri va konstitutsiyasi, yilqichilikda takror ishlab chiqarish, otlarni oziqlantirish, asrash va parvarish qilish, otlarning ish qobiliyati va ish kuchidan qishloq xo'jaligida hamda transport sifatida samarali foydalanish, ot zotlari, go'sht mahsuldorligi, biyalarning sut mahsuldorligi, yaylov yilqichiligi, yilqichilikda naslchilik ishlari, otlarni mashq qildirish va sinash, yilqichilikda davlat tadbirlari, ot sporti, otlarni taqulash va uning etologiyasi batafsil yoritilgan.

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan qo'yiladigan talablarga mos ravishda bajarilgan. Muallif ilmiy ishlari natijalari va yangiliklar bilan boyitgan.

Mazkur darslikda dunyo miqyosida yilqichilikka taaluqli ma'lumotlar keltirilgan. Undan zootexniya va veterinariya mutaxassisliklari bo'yicha talabalar, magistrlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, shu sohaga oid bo'lgan naslchilik xo'jaliklari, korxonalari, ot sporti bilan shug'ullanadigan mutaxassislar foydalanishlari mumkin. Darslik kitobi o'zining mazmuni, yangiligi va hajmi jihatidan ilmiy-texnik talablarga to'liq javob beradi. Muallif D.Xolmirzayev shu sohaning yetuk mutaxassis olimi.

Mazkur darslik kitobini chop etishga tavsiya etamiz.

Taqrizchilar: Sh.A.Akmalxonov - O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi

R.X.Hayitov – SamVMI pofessori v.f.doktori

W
Samt Axborot-
res markazi
Inv 4K 2178/86.

KIRISH

Yilqichilik chorvachilikning muhim sohasi bo'lib, texnikaning rivojlanishiga qaramasdan hozirgi kunda ham xalq xo'jaligida o'z o'mini yo'qotgan emas. Yilqichilik rivojlangan mamlakatlarda ham ot sportining klassik va milliy o'yinlarida; mudofaa qobiliyatini hamda chegaralarni qo'riqlashda; ot mashinalarida (dam olishda) o'mi muhimdir.

Shuningdek, aholini noyob taomlar: go'sht, sut, qimiz hamda yengil mahsulotni teri, sil kusalliklarni oldini olish uchun qonidan preparatlar va boshqa mahsulot bilan ta'minlaydi. Otda yurish insonga estetik rohat bag'ishlaydi va sog'ligini mustahkamlaydi.

Tarixdan ma'lumki, kishilarning yuksak ma'daniyati va taraqqiyot darajalariga erishishda ot insonga ishonchli yo'ldosh, ko'makdosh bo'lgan. Otlarning og'irini, mushkulini oson qilishda otning alohida o'mi bor. Dunyo yozmida bo'lgan vaqtdan beri necha ming donolarimiz o'tgan bo'lsa, hammasi otga o'z bahosini berib ketganlar.

Umuman o'tmishda har bir xalq otni e'zozlagan, muqaddas bilgan.

Umar Huyyom «Navro'znoma» asarida shunday yozadi: turklar otni qutlug' qadam va baxtliyor etuvchi, forslar «Badjon yeljon», rumiylar «Bodpoyshamol» deb atashgan, hindlar «Tuyati ravan», arablar yerdagi buroq deb ataganlar.

Qadimda turkiylar quyosh gardunini ko'tarib yuruvchi farishta olus nomini ot sarafida deb bilganlar. Hatto dulborjin imlosida qadimgi turkiy bitik toshlarida, arablar uchun shahzoda Kultegin bitik toshida ham ot haqida ma'lumotlar uchraydi.

Urushlarda necha asrlarki ot eng muhim yaroq hisoblanib kelingan. Kinolar yaratilgan, kitoblar yozilgan. Shu boisdan otlarni mehnatsevarligi, insonga qadrdorligi va hamdardligi haqida turli xil maqol va matallar to'qilgan, ta'lim-tarbiya ishlari olib borilgan. Shunday qilib, dunyo xalqlari ijodi otlar haqida ko'pincha yozilgan qoya toshlardan boshlanadi. Nihoyat, adabiyotda, hamma yerda otlarning o'mi bor.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 15-iyundagi PQ - 3057 sonli Qarori muhim ahamiyatga egadir. Bu qarorda Respublikamizda yilqichilik va ot sportini rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi avlod chavondezlarini tayyorlash va tarbiyalash, milliy ot sportining xalqaro darajasiga oshirish, aholining keng qatlamli, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ot sportini faol targ'ibot qilish va ommalashtirishga qaratilgan. Shuningdek, yilqichilik va ot sportini rivojlantirish yoshlarni sport bilan shug'ullanishiga ko'proq jalb etish jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ot sporti ko'pchilik milliy va xalqaro musobaqalarda yuqori sport natijalariga erishishni ta'minlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasida yilqichilik va ot sportini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019-yil 18-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori;

L.N.Tolstoyning «Xolstomer», «Izumrud», I.A.Ko'prinning «Mallalar», «Tutqalar», «Ko'klar», «Qoralar» ocherki, L.V.Brandning «Braslet-2»,

P.Sheryayevning «Vnuk tal'oni» (Tal'on nabirasi), V.Brovikning «Petushok» (Xo'rozcha) kabi badiiy asarlarda ot haqida so'z yuritiladi.

Umuman, ot to'g'risida ko'p kitoblar yozilgan. A.Ertelyaning «Gardeneni», D.Golsuarsi «U nego bila loshad», F.Allgri «Prizovaya loshad», E.Seton-Tompsonning «Mustang-inoxodets», I.S.Turgenevning «Qonch» (Chertofoxonova), F.Djamsonning «KREK i Damki», Ch.Aytmatovning «Proshay Gulsari», D.Oldridjaning «Udivitelniy Mongol» va «Sportivniye predlojeniya» shuningdek, M.Sholoxovning «Tixom done» asarida, D.N.Mamin-Sibiryakning «Nashixane» ocherkida, M.Gorkiyning «Bolalik» asarida otni erkatalar tarbiyalashning xosiyati to'g'risida.

Tog'ay Murodning «Ot kishnagan oqshom», Muhammad Yusufning «O'tulpor» she'ri, Do'stmuhammad Xolmirzayevning «Ot insonning vafodor do'sti» va boshqalar muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda qadimdan va hozir ham o'tshaydolari, bilimdonlari va homiylari bo'lgan. Bobomiz Amir Temur dunyo kechgunda ot bilan nom qozongan. Qadimiy solnomalarda yozilishicha, u kish bolalikda otni juda yaxshi ko'rganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Umumiy o'tmishda har bir xalq otni e'zozlagan, muqaddas bilgan. O'zbekiston Respublikasining hukumati barcha qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining mutaxassislari va rahbarlari e'tiborini yilqichilikni rivojlantirishga qaratib zarurligini uqtirish bilan birga O'zbekistonda yilqichilikni rivojlantirish tadbirlari to'g'risida alohida e'tibor qaratmoqda.

Bu ma'suliyatli vazifa yangidan tashkil topgan ixtisoslashgan yilqichilik xo'jaliklari faoliyatini tubdan yaxshilashni taqozo etadi. Shu paytga qadar qishloq xo'jalik Oliy o'quv yurtlari uchun yilqichilikdan o'zbek tilida ma'ruza bo'yicha darslik yo'q edi. Mana shularni e'tiborga olib, muallif o'zining yilqichilik sohasidagi bilim va tajribalar asosida mazkur o'quv darsligining bakalavr va magistrlar uchun yozgan. Yilqichilik kursini o'rganishdan maqsad soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashdir. Chunki, bo'lajak mutaxassislar nazariy jihatdan hozirgi zamon talablariga to'la javob bera oladigan bilimga ega bo'lishlar zarur.

I BOB. 1.0. YILQICHILIKNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI VA RIVOJLANISHI

Otlar xalq xo'jaligida turli maqsadlarda, xususan, ishchi va transport sifatida, sport-klassik va milliy o'yinlarda, ot sayohatlarida, mahsulot olish, shuningdek chet mamlakatlarga eksport qilish uchun yetishtirib beriladi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotiga nazar tashlasak, otlning odamlarga ko'rsatgan xizmati beqiyos ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Asrlar davomida ot insonning sadoqatli yordamchisi bo'lgan. Ot bilan yer haydashgan, don ekib yig'ib olishgan, cho'ponlar qo'y boqishda, savdogarlar o'z mol-mulkini tashishda, afshalar el-elutlarga xushxabar yetkazishda, xullas, uzundan-uzoq yo'llarni ham otda bosib o'tgan.

Fuqarolar urushi va Ulug' vatan urushi davridagi frontda, mamlakat ichkarisida otlar kishilarning sadoqatli yordamchisi bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushida 262 otlq askarlar qahramon bo'lgan, yuz ming kishi orden va medallar bilan taqdirlangan. Ilmiy texnik taraqqiyotining hozirgi davrida ham ot o'zining ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ot bilan bajarilgan ishlar hisobiga yoqilg'i va boshqa energiya vositalari iqtisod qilinishi bilan birga ot go'rali va sut mahsulotlari qo'shimcha manba bo'lishi hisobiga oziq-ovqat rejasini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ot minglab yillar davomida hamisha inson madudkori bo'lib keldi, mehnatda va jangovor jasoratlarda ko'makdosh, sport bellashuvlarida fidokorona xizmat qildi, xalq baxshilariga ilhom baxsh etdi.

Shunsi qimmatliki, otlar iqtisodiy jihatdan boshqa transport vositalari, jumladan, avtomashina va traktorlarga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Bu afzalliklar quyidagilardan iborat:

1. Otlar ko'payish imkoniyatiga ega bo'lganligi sababli xo'jaliklarga qo'shimcha daromad berishi mumkin.

2. Otlar tabiiy ozuqa manbalari yaylovlardan keng foydalanish tufayli, ekologiy qimmatroq bo'lgan yoqilg'i moylash vositalari bilan harakatlanuvchi transport vositalaridan muhim afzalliklarga ega.

3. Otlardan foydalanilganda xo'jaliklarga qimmat ehtiyoj qismlar sotib olish sarajatharidan qutiladi.

4. Otlar yilning barcha fasllarida, har qanday relyefli sharoitlarda, qaysiki traktor va avtomashinalar ishlashi juda qiyin bo'lgan joylarda ham bemaol ishlaydilar.

5. Bu'zi otlarni go'shtga topshirish hisobidan oziq-ovqat rejasini bajarishga salmoqli ulush qo'shish mumkin.

6. Otlar kichik yer maydonlari, tomoqalarda ishlov berishda juda qulaydir.

7. Otlarni jahon bozorida sotish, xo'jalik uchungina emas, mamlakat uchun ham valyuta darajasida jamg'arish imkonini beradi.

Mexanizatsiya rivojlangan bo'lishiga qaramay, xo'jalik ishlarida, fermer xo'jaliklarida otlning o'rnini kattadir. Ozuqalarni yig'ishda, fermalarda ozuqalarni tayyorlashda transport sifatida foydalanish katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik xo'jaliklarga yaqin masofalarga yuk tashish, kichik-kichik uchastkalarga yer

haydash, shaxsiy tomorqalarga ishlov berish, yaylovlarda mol boqish, tog'liklarda, botqoqliklarda, dalachilik brigadalari va o'rmon xo'jaliklaridagi ishlarni ot kuchi bilan bajarish mashina bilan bajarishga qaraganda iqtisodiy jihatdan ancha arzonaga tushadi.

Xalq xo'jalik talablariga muvofiq sohani quyidagi asosiy yo'nalishlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

1. Hozirgi davr ishlab chiqarish sharoitlarida xo'jalik doirasida yuk tashishda ulov sifatida, chorvachilik fermalarida xizmat ko'rsatishda, tomorqaga ishlov berishda;

2. Mahsulot olishda: ot go'shti va qimiz yetishtirish. Ot go'shtidan noyob taomlar (qazi, qazi suyakli, qarta) va boshqa taomlar tayyorlanadi. Biya sutidan qimiz tayyorlanadi. Qimiz sil kasalligini davolashda tabiat in'om etgan eng yaxshi dori sifatida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda;

3. Ot sporti MDHda, xalqaro spartakiadalarda olimpiya o'yinlarining eng ommaviy turlaridan biridir. Ot sporti o'z ko'rinishiga ko'ra klassik va milliy ot o'yinlariga bo'linib, kishilarning hordig'ini chiqarishda va salomatligini yaxshilashda eng muhimdir;

4. Biologik va qo'shimcha mahsulotlar sanoat uchun xom-ashyo hozirlashda ayrim tumanlarda mahalliy sanoat korxonalarida ot terisiga ishlov berish, undan mo'yna buyumlar tayyorlash uyushtirilyapti. Biologik rivojlanish munosabati bilan qon zardobi beradigan donor otlarga bir talay preparatlar hozirlanadi. Otlarning qonidan, shuningdek, meditsina ahamiyatiga ega bo'lgan shifobaxsh va kasalliklar (stolbnyak, gangrena, difteriya, botulizm va boshqalar)ning oldini oluvchi preparatlar tayyorlanadi. Veterinariya va meditsina maqsadlari uchun biofabrikalarda maxsus apparatlar yordamida otlardan oshqozon shirasi olinadi;

5. Mavjud ot zotlarini takomillashtirish va yangi zotlarni yaratish jami davlat va boshqa xo'jaliklarga, shuningdek eksport qilish uchun yuqori klassli otlar yetishtirishdir. Xulosa qilib aytganda, otning xizmati beqiyosdir.

Shuningdek, 1992-yil 7-yanvar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni yaylov chorvachiligi (qorako'Ichilik, qo'ychilik, uyur yilqichiligi va tuyachiligi) xodimlarini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning qo'shimcha tadbirlari to'g'risida farmoni; O'zbekiston Respublikasining 1995-yil naslchilik to'g'risidagi qonuni; shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil chiqargan qarori muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida 2008-yil 21-apreldagi 842-Qarori shu sohani rivojlantirishga qaratilgan.

Ayniqsa, keyingi yillarda yilqichiikka bo'lgan etibor keskin kamayganligi qorabayir ot zotining naslini yaxshilashga etibor qaratilmaganligi bu zotning genafondi yo'qolish arafasida ekanligini yurtboshimiz tezda aniglab, shu sohani

yoqatish maqsadida ko'p joylarga tashrif buyurib, yilqichilikni har tomonlama rivojlantirish to'g'risida maslahatlar berdi va qarorlar qabul qildi.

Dunyo miqyosida, shuningdek, MDHda keyingi yillarda otlarning umumiy bosh soni ham o'zgardi. Chunonchi ular Yevropa mamlakatlari, Osiyo, Fransiya va Yaponiyada kamaygan bo'lsa, Afg'oniston, Birma va Indoneziyada ko'paydi. Shuningdek Afrika mamlakatlarida ham ko'paygan.

Dunyo bo'yicha FAO ro'yxatli ma'lumotiga qaraganda otlarning bosh soni 60 mln ga yaqin. Ayniqsa, Xitoy mamlakatida 8,9 mln., Braziliya mamlakatida 5,9 mln, MDHda 5,9 mln.dir. AQSh mamlakatida keskin kamaygan 10.7 mln boshdan 4.4 mln boshga tushgan.

Dunyo bo'yicha eng ko'p mamlakatlarda otlarning bosh soni 1 jadvalda ko'rsatilgan. O'zbekistondagi yillar bo'yicha ot soni 1914 yildan to 2021 yilgacha ko'rsatgan holda 2-jadvalda keltirilgan.

1917-yilga qadar Rossiya otlarining soni jihatdan dunyoda birinchi o'rinda bo'lib, ularning soni 38,2 mln ga yetgan edi. Ammo birinchi va ikkinchi jahon urushlarida MDXda otlarning bosh soni keskin kamaygan. Bu otlarning asosiy qismi kichik jinsali va vazni jihatdan ancha yengil bo'lgan. Ularning kichik va otlarning sifatli bo'lishiga sabab mayda dehqon xo'jaliklarida naslchilik olibastirish yoxali yo'lga quyilmaganligi va oziqlantirish darajasining pastligida edi.

1930-yildan keyin zotli otlar sonini oshirish bilan bir qatorda ularning sonini yoqatish, naslchilik ishlarni tubdan o'zgartirishga alohida e'tibor berildi.

1929-yilda MDHda yilqichilik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil topgan. Bu institut yilqichilikning hamma sohalarini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shib baktirgan. Barcha zotli otlar davlat naslchilik otxonalariga va davlat ot zavodlariga baktirgan. Salt miniluvchi, yo'rtoqi va og'ir yuk tortuvchi zotlarni mashq qildirish borada amash yuxshi yo'lga qo'yildi. O'n beshta ot zoti yaratildi:

1. Vladimir og'ir yuk tortuvchisi – 1946-yil.
2. Dadyonniy salt minilib, yengil yuk tortuvchisi- 1948-yil.
3. To'raq salt miniluvchisi - 1948-yil.
4. Kostanay salt minilib, yengil yuk tortuvchisi – 1948-yil.
5. Rus yo'rtoqisi – 1949-yil.
6. Torly salt miniluvchisi – 1950-yil.
7. Sovet og'ir yuk tortuvchisi – 1952-yil.
8. Rus og'ir yuk tortuvchisi – 1952-yil.
9. Litov og'ir yuk tortuvchisi – 1952-yil.
10. Latviya yengil yuk tortuvchisi – 1952-yil.
11. Yangi qirg'iz salt minilib, yengil yuk tortuvchisi–1954-yil.
12. Kostum salt minilib, yengil yuk tortuvchisi – 1976-yil.
13. Ukraina salt miniluvchisi – 1990-yil.
14. Yangi oltay zoti – 2000-yil.
15. Yangi tojik zoti – 2002-yil.

1- jadval

Dunyo bo'yicha otlarning bosh soni va ishlab chiqarilgan ot go'shti

Mamlakatlar	Otlarning bosh soni		Ot go'shti ishlab chiqarish	
	Mln bosh hisobida	Dunyo bo'yicha bosh soni (% hisobida)	Ming tonna (so'yim vazni)	Dunyo bo'yicha ot go'shti ishlab chiqarish (% hisobida)
Xitoy	8,9	14,5	71	12,4
Braziliya	5,9	10,4	14	2,5
Meksika	6,4	10,3	79	13,8
AQSh	10,7	9,8	25	4,4
Argentina	3,3	5,4	50	8,7
Mongoliya	2,9	4,8	28	4,9
Kolumbiya	2,5	4,1	12	2,1
Qozog'iston	4,2	1,8	63	11,0
Rossiya	1,1	3,6	50	8,7
Dunyo bo'yicha	61,0	100	57,1	100

2- jadval

O'zbekistonda yillar bo'yicha otlarning bosh soni

Yillar	Ming bosh hisobida	1914 yilga nisbatan % da
1914	597,5	100,0
1935	444,7	74,42
1938	384,5	64,35
1941	468,3	78,38
1954	488,0	85,02
1964	157,0	26,29
1974	109,5	15,32
1975	108,0	18,07
1980	80,6	13,49
1981	82,2	13,75
1985	89,2	14,93
1990	97,4	16,30
1991	105,2	17,61
1995	112,5	18,83
2000	146,0	24,4
2005	150,0	25,1
2008	149,0	29,1
2012	195,0	32,6
2021	242,0	42,5

Keyingi yillarda tashvishlanarli holga tushib qolganligi ayon bo'ladi. Respublikamiz xududida 1914-yilda 597,5 ming bosh ot bo'lgan bo'lsa, 1980-yillarda otlarni eng kam soni qayd qilinadi. Ya'ni 80,6 ming bosh. 1985-yili 89,2 ming, 1995 yili 150 ming bosh, 2000-yilga kelib 146,6 ming bosh, 2006-yilda 149 ming boshni tashkil etgan. 2008-yilda 149,0 ming boshni, 2012-yilga kelib 195 ming boshni 2021-yilga kelib 242 ming boshni tashkil etgan. Oxirgi yillarda otlar bosh soni ko'payib bormoqda.

Albatta, hozirgi xalq xo'jaligini iqtisodiy qayta qurish davrida xo'jalik ishlab chiqarish sharoitida o'z-o'zidan ma'lumki, yuqoridan ko'rsatma asosida tashkil etish foyda keltirishi gumon. Xo'jalikni oqilona boshqarish fermer va oila pudratini keng jori etadi, shubhasiz, odamlarni iqtisodiy fikrlashga, shu jumladan yilqichilikni tarmoqiy ettirishga ham boshqacha munosabatda bo'lishga undamoqda.

Xo'jalikning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish maqsadida yilqichilikni har taraflama rivojlantirish, bu sohada iqtisodiy samara berish yo'llarini aniqlash muhimdir. Xo'jalikni aniq sharoitdan kelib chiqqan holda ayrim hollarda mashina-traktor parklari dehqonchilik ishlari o'rniga yilqichilikdan to'g'ri foydalanish, yuqilg'i va materiallarni iqtisod qilish imkonini yaratadi.

Albatta, xo'jalikda har bir otdan qulun olish, go'sht berish yoki qimiz ishlab chiqarish hisobiga ma'lum daromad keltirish lozim. Ayrim hollarda bu tarmoqni to'g'ri tashkil etmaslik iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lishi mumkin. Bu esa qayta ishlab chiqarish sharoitida umumiy manfaatga mos kelmaydi.

Har bir xo'jalikda yilqichilik iqtisodiy jihatdan foydali bo'lib, xo'jalik umumiy daromadiga hissa qo'shishi lozim. Bu faqat otlarning sonigagina bog'liq bo'lmay, ularning yoshi, jinsi, biologik xususiyatlariga va zotlariga bog'liq. Hozirki, xo'jalikda otlardan samarali foydalanish otlar ish bajaradigan aravalar, chumalar, taqalar har xil egar jabduq vositalarining bo'lishligini ham talab qiladi. Bu borada hali bir qator bartaraf etish zarur bo'lgan kamchiliklar ham mavjud. Bu muammolarni markazlashgan holda hal qilish kerak. Bu masalalarni hal qilishda xo'jaliklar imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Keyingi vaqtlarda ot sporti, ot sayohati yilqichilikni rivojlantirishda boshqacha munosabatda bo'lishni taqozo etmoqda.

Huning uchun xodimlar tayyorlash ishini yaxshilash, malakali mutaxassismlarni shu sohaga jalb etish yaxshi natija beradi.

Hatto rivojlangan mamlakatlarda, masalan Amerika qo'shma shtatlari va boshqa chet ellarda yilqichilikni rivojlantirishga shu sohada ishlovchi mutaxassislar tayyorlashga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Yilqichilikni rivojlantirishda eng qiyin va hozircha hal qilinmagan masalalardan biri bu ozuqa bazasini vujudga keltirishdir. Ishning muvaffaqiyati yuqoridagining holatiga va ishini tashkil qilishga bog'liqdir.

Yilqichilikning samaradorligini oshirishning katta imkoniyatlaridan biri – bu fan va ilg'or tajriba yutuqlarini hisobga olgan holda naslchilik ishini to'g'ri tashkil qilish. Respublikada seleksiyani qimmatli genetik fondi bo'lgan Qorabayir otining asosiy sifatlaridan foydalanish asosida oqilona ish olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jaliklarni tegishli aravalar va egar jabduqlar bilan otlarni zarur jihozlar

bilan ta'minlash zarur.

Bu haqda har bir viloyat rahbarlari va mutaxassislari o'ylashi kerak. Yangicha sharoitda yilqichilikni barqaror rivojlantirishga qodir bo'lgan fidoiy malakali kadrlar tayyorlash zarur.

1.1. O'zbekistonda yilqichilikning tarixi va qilingan ilmiy ishlari

Yilqichilik – chorvachilikning muhim sohasi bo'lib, o'zbek xalqining tarixi bilan chambarchas bog'langan. O'zbek diyorida ot bir necha ming yillar davomida dehqonchilik, chorvachilik sohaslarini va xalq xo'jaligini rivojlantirishda va harbiy yurishlarda va tinch mehnatda insonning asosiy tayanchi bo'lib kelgan. Ot bilan yer haydalgan, don ekib xirmon yanchilgan va yuk tashishda, qo'y va podalarini boqishda, savdogarlar karvonlarda, elchilar xush xabarlarini yetkazishda otdan foydalanishgan.

Xalqimiz qadimdan yilqichilik bilan shug'ullanib keladi. Ippologiyaning ko'rsatishicha, Markaziy Osiyo va unga qo'shni Xuroson otlarning eng yaxshi sharq zotlari paydo bo'lgan zamin hisoblanadi. Sotsial iqtisodiy va siyosiy sabablar tufayli o'zbek xalqiga yuqori sifatli salt minilib, yengil yuk tortuvchi ot zoti kerak bo'lgan va xalq seleksiyasi yo'li bilan shu sifatlarni o'zida mujassamlagan «Qorabayir» ot zoti yaratilgan. Bu zot hamma sohalarda keng foydalanib kelinmoqda. Yaqingacha u asosiy ishchi va transport vositasi hisoblanardi. Dunyoni zabt etgan sarkardalarning hammasi yetuk chavandoz, zabardast bo'lishgan. Buyuk bobokalonlarimiz Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur Mirzo erishgan barcha g'alabalarda otlar katta rol o'ynagan tarixdan ma'lum.

1939-yilda O'zbekiston chorvachilik ilmiy-tadqiqot institutining tashkil etilishi chorvachilik fanida, ayniqsa, yilqichilikda burilish yasadi. Chorvachilikning ilmiy va amaliy asoslari, jumladan yilqichilik sohasini o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Shu davrda otni ishchi sifatida xizmati beqiyos edi. Chorvachilikning barcha sohalari bo'yicha bo'limlar va laboratoriyalar tashkil etilib, har bir sohaning muammolari bo'yicha ilmiy ishlar olib borildi.

Respublikamizda o'z ishiga sidqidildan qaraydigan talantli yilqishunos mutaxassislar, jumladan A.Z.Shkurgin, S.Ye.Daniyelov, N.T.Gorshkov, Ya.V.Arifeyev, A.N.Yegorov, G.A.Martinenko, M.I.Soldatkin, V.S.Vixrev, E.S.Mechinskaya, I.Ya.Zakke, P.A.Pyanovskiy, S.R.Ilyayev, P.P.Yesyutin, V.A.Shekin, A.Ismoilovlar yetishib chiqdi. Ular tomonidan Respublikamizdagi barcha otlarning soni va zot tarkibi hisobga olindi, nasldor otlar Davlat naslchilik kitobining dastlabki tomlari tuzilib chiqildi, asosan, asl «Qorabayir» zotining nasl – nasabi aniqlandi. Ot zavodlari, davlat zavod otxonalari, nasldor otlarni yetishtiruvchi davlat xo'jaliklari, shirkat xo'jaliklarini kichik fermalari, otchoparlar barpo etildi, nasldor otlarni zootexniya talab darajasida muntazam sinash ishlari tashkil etildi, nasldor otlar yetishtirish muayyan maqsadga qaratilgan holda olib borildi, yilqichilikdagi naslchilik ishlarning yagona rejasi tuzib chiqildi.

O'zbekistonning zamonaviy yilqichilik xo'jaligi ot zavodlari, shirkat xo'jaligining yilqichilik fermalaridir. Bunda davlat ot zavodlari yetakchi rol o'ynaydi. Ularning vazifasi – ot zotlarini urchitib ko'paytirish va takomillashtirishdan, shirkat xo'jaliklarining naslchilik hamda tovarbop fermalari

ishon yuqori klassli, naslli ayg'irlar, sport maktablari va klublar uchun nasldor otlar o'zlashtirishdan iborat.

Maktabiy Osiyo hududi yilqichilik tayanch stansiyasi hamda Toshkent yilqichilik va inyachilik tajriba stansiyasining olimlari O'zbekiston yilqichiligi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonning ot zotlarini takomillashtirish hamda shahdchilik ishlari bilan shug'ullandilar.

O'ra Osiyo otlarining davlat naslchilik kitoblari nashr etila boshlandi. V.A.Bekin, K.I.Gorelov, Ye.M.Yershova, M.I.Belonogov, V.M.Papova, D.N.Krasov, K.Lixov og'ir yuk tortuvchi zotlarni moslashtirish va ulardan foydalanish ushbu kitoblarni o'rgandilar.

Qorabayir zot otlarni mukammallashtirish, yangi zot guruhlari, zavod otlari yaratish «Qorabayir» zot nasldor otlar Davlat kitobini nashr etish, otlarning genetik mahsuldorligini oshirish tadbirlari bilan hozirgi vaqtda Samarqand Universiteti veterinariya tibbiyotining instituti, chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot instituti shug'ulla'moqda.

U bosh qonim ko'paytirish, turli xil ishlarda ulardan foydalanish, go'sht va sut yilqichiligini yanada rivojlantirish, naslchilik ishlarini yaxshilash, ot sporti va bolalar keng rivojlantirish kabi ishlarni amalga oshirish ayni vaqtda respublika yilqichilik mutaxassisatari oldida turibdi.

Yilqichilik fanining bilmagan elementlari mavjud. Ular mahsuldorligini oshirishda, sport sohasida, seleksion – genetik, biotexnologik, bioinjenerlik, ot mahsulini yaratish, oziq-ovqat moddalaridan yanada samarali foydalanishdagi biologik va tibbiyotda tutgan o'ri va boshqa nazariy yechimlaridir.

Yilqichilik fanini rivojlantirishda juda katta hissa qo'shgan rus olimlarining ulushini alohida ta'kidlash zarur. Shunday olimlar qatoriga professorlar P.N.Kuleshov (1854-1936), N.A.Yurasov (1881-1936), V.O.Vitt (1883-1964), Yu.N.Barminev (1915-2005) va boshqalarni aytishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qishloq xo'jaligi vazirlari kumiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqida "Yana bir mahum, ammo keyingi yillarda e'tiborimizdan chetda qolib ketgan masala haqida alohida ta'kidlab o'timoqchiman. Hozirgi kunda mamlakatimizda yilqichilik bo'yicha bo'yicha 15 ta nasl xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 3 ming 150 ta nasl zotdor ot boqilmoqda. Zotdor qorabayir otlarini ko'paytirish va ot sportini rivojlantirish maqsadida Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanida yangi yilqichilik kompleksi tashkil etildi. Toshkent viloyatida va yurtimizning boshqa hududlarida ham bunday majmualar barpo etilmoqda. Umuman olganda, o'zbekistonda biz ardoqlab, parvarishlab kelgan, yaxshi va yomon kunlarida do'st tutgan qorabayir otlarini millatimizning g'ururi, desak arziydi. Farzandlarimiz uchun ularni, jasurlik, o'z yurtga sadoqat fazilatlarini shakllantirishda undan ko'proq foydalanib, o'zlaymanki, nur ustiga nur bo'ladi". U kishining chiqargan so'zlarini muhim ahamiyatga egadir.

Respublikamizda yilqichilik va ot sportini rivojlantirish, uning moddiy bazasini mustahkamlash, yangi avlod chavondozlarini tayyorlash va ularni milliy ot sportining xalqaro dovrug'ini oshirish, aholining keng

qatlamlari, ayniqsa yoshlar o'rtasida ot sportini faol targ'ibot qilish va ommalashtirish maqsadida Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi "Qorabayir o'tchilik majmuasi" unitar korxonasi; Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumanidagi "Qorabayir" MChJ; Farg'ona viloyati Quvasoy shahridagi "Kvars" AJning Qorabayir zotli otlarni ko'paytirishga ixtisoslashtirilgan naslchilik majmuasi tashkil etildi.

Mutaxassislar tayyorlashda darslik va o'quv qo'llanmalar muhim ahamiyatga ega. Qurolsiz ish qilib bo'lmaydi degandek yilqichilik sohasini bilish uchun fanni bilish muhimdir. Muallif marhum professor Z.T.To'raqulov, dotsent A.Z.Muxtorovlar bilan hamkorlikda Qishloq xo'jalik institut va texnikumlar talabalari uchun o'quv qo'llanma 1985-yilda yozilib nashr qilingan. 1988-yilgacha qadar yilqichilikdan o'zbek tilida amaliy mashg'ulotlar qo'llanmasi yo'q edi. Muallif D.Xolmirzayev tomonidan MDH Davlat Agro Sanoat komitetining Oliy va o'rta maxsus ta'lim bosh boshqarmasi qishloq xo'jalik institutlarining zooinjeneriya fakulteti talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan va nashrdan chiqarilgan.

Birinchi bo'lib, O'zbekiston Respublikasida ilmiy asosda amaliy uslublar qo'llab yilqichilik mahsulotlarini ko'paytirish mavzusida qishloq xo'jalik fanlar doktrinalik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Ilmiy tadqiqotlarda yilqichilikning rivojlanish holati, uning mahsuldorligini oshirishning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan, otlarning pushtdorlik xususiyatlarini yaxshilash, yosh otlarni maqsadga muvofiq o'stirish, otlarning go'sht mahsuldorligini oshirish yo'llari, ularni go'shtga topshirishning maqbul muddatlari, ot go'shtidan noyob taomlar tayyorlash texnologiyasi, biyalarning mahsuldorligi, qimiz ishlab chiqarish jarayoni, birinchi marta otlarni mahalliy ozuqa-karrak pichanining va yantoq granulasining hazm bo'lish jarayoni, ozuqa birligi, to'yimliligi 1 kg ozuqaga hazmlanadigan oqsil o'rganilgan va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Otlarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Otlarning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati degandachi?
3. Yilqichilikni rivojlantirish to'g'risida Respublikamiz Prezidentining qanaqa farmon va qarorini bilasiz?
4. Qachon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yaylak chorvachiligi (qorako'lchilik, qo'ychilik va uyur yilqichiligi va tuyachilik) xodimlarini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning qo'shimcha tadbirlari to'g'risi"dagi farmoni e'lon qilindi?
5. Dunyo bo'yicha MDH davlatlarida mln hisobida va Respublikamiz otlarning bosh soni ming bosh hisobida qancha?
6. Yilqichilikning asosiy sohasi
7. Fermer xo'jaliklarida otning tutgan o'rmi?
8. Yilqichilikni rivojlantirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?

II BOB. OTLARNING KELIB CHIQISHI VA ULARNI XONAKILASHTIRISH

2.0. Otsimonlar oilasining evolyutsiyasi

Zoologik klassifikatsiya bo'yicha otlar, eshaklar, qulunlar, onagra va shabalar sut emizuvchilar sinfiga, toq tuyoqlilar turkumiga, otsimonlar oilasiga, otlar guruhiga va haqiqiy otlar turiga kiradi.

Hozirgi otlar va ularga qarindosh bo'lgan toq tuyoqlilar mayda hayvonlarning evolyutsiyasi natijasida bundan 50 mln. yil muqaddam kelib chiqqan.

Quyri eosen davridan boshlab toq tuyoqli hayvonlarning rivojlanish tarixini evolyutsion paleontologiya fani o'rgangan. Otsimonlar oilasini o'rganishda birinchi ota paleontologlari V.O.Kovalevskiy va V.G.Gromovalarning tekshirishlari katta rol o'ynagan.

V.O.Kovalevskiy o'z asarlarida tuyoqli hayvonlar avlodlarining evolyutsion yo'nallishi (bosqich)larini ko'rsatib beradi. Ularning evolyutsiyasi tabiiy sharoiti bilan bog'liq holda o'zgarib bordi, ya'ni o'rmon sharoitida hayot kechirishdan ota-saltnat ochiq maydonlarda hayot kechirishga o'tdi.

Ko'p yillik ilmiy tekshirishlarning ko'rsatishicha, hozirgi zamon otlari kelib chiqish tarixi bo'yicha o'n ikkiga yaqin davrni bosib o'tgan. Juda qadimgi otlarning bosqich qilingan avlodlari hozirgi davr otlarga o'xshamagan. Shunday avlodlarning biriga *Fenakodus* kiradi. (1- rasm). *Fenakodus* o'zining tuzilishi jihatidan ko'proq it va tulkiga o'xshaydi. Uning umurtqalardan iborat uzun dumi, bosh barmoqli kalli bo'lgan. Tishlariga qarab uni o't yeydigan yirtqich hayvonlar guruhiga kiritilgan. U yugurganda yerga faqat uch barmog'igina tekkan. Quyri eosen davrida *Fenakodus*dan Shimoliy Amerika *Eogippusi* kelib chiqqanligi taxmin qilinadi. *Eogippus Fenakodusga* qaraganda kattaroq bo'lib, ko'p jihatlaridan otga o'xshagan. Tashqirining uzunligi 25–56 sm oralig'ida bo'lib, oldingi oyoqlarida to'rta va orqa oyoqlarida uchta yaxshi rivojlangan barmoqlari bo'lgan. Ularning tishlari balandroq joylashib, yumshoq o'tlarni maydalashga moslashgan.




1- rasm *Fenakodus*

*Eogippus*dan keyingi evolyutsiya bosqichida *Protrogippus* paydo bo'lgan. U *Eogippus*dan kattaroq bo'lib, oldingi oyoqlarida to'rta barmog'i bo'lgan. Quyri *meosen* davriga kelib, *mezogippus* degan hayvon vujudga kelgan. U tashqirining uzunligi bilan *Eogippus*dan farq qilgan, lekin oldingi va orqa oyoqlarida uchta barmoqlari bo'lgan. Shuningdek ularning tishlari balandroq bo'lib, asal qumini hosil bo'la boshlagan, tashqi tuzilishi ko'proq qo'yga o'xshagan.

Otlarning evolyutsiyasida hal qiluvchi bosqich meosen davri

hisoblanadi. Bu davrda otlarning kattaroq avlodi *mezogippus* vujudga kelgan. Ularning tana uzunligi 90-120 sm ni tashkil qilib, yemi uchta barmog'ining faqat o'rtasidagi barmog'i bilan bosib o'tirgan, qolgan ikki barmog'i yerga tegmagan. Tishi ancha uzun bo'lib, emal qismi yaxshi rivojlangan va sement qatlamlari hosil bo'la boshlagan. Ular tishlari yordamida ancha qattiq va quruq oзуqlarni maydalay olgan.



2- rasm. *Mezogippus*

Shuni ham aytish kerakki, evolyutsiya protsessida ko'pgina otsimon turlar (tiplar), masalan, miosen davrida angiterium va boshqalar sharoitga moslasha olmaslik oqibatida o'lib ketgan.

*Mezogippus*dan keyingi evolyutsiya davrida *Gipparion* paydo bo'lgan. *Gipparion* jussasi jihatidan kichikroq otni eslatgan. Oyoqlaridagi o'rta barmog'i yaxshi taraqqiy etgan, ikki yonbosh barmog'i kam rivojlangan, yerga tegmagan.

Plioson davrida dastlabki bir barmoqli tur – *Pliogippus* paydo bo'ladi. Uning avlodi yer yuziga keng tarqalgan, uch barmoqli hamma turlarni shu jumladan, *Gipparionni* ham siqib chiqaradi. *Pliogippus* va uning yaqin avlodi *Plezigippus* hozirgi davrdagi toqtuyoqliklarning urug' boshi deb tanilgan. Tishining kattaligi va ustki qirralarining emal qatlami bilan qoplanganligi ularning xarakterli belgisidir.



3- rasm. *Gipparion*

2.1. Otlarning yovvoyi urug'doshlari

Otlarning yumshoq oзуqalar iste'mol qilishdan asta-sekin dashtda yashashga qattiq, quruq oзуqalarni iste'mol qilishga o'tishi ularni tish sistemasida o'zgarishlarga olib kelgan. Masalan, yirtqich tishlar kichraygan, oziq tishlar kattalashgan, ustki qirralari qalinlashgan va tuzilishi murakkablashgan, natijada hazm apparati yaxshi rivojlangan. Tashqi muhit sharoitining o'zgarib turishi tashqi muhitga moslashishiga, ularni ta'qib qilayotgan yirtqichlardan saqlanishga olib kelgan. Huning natijasida otlarning oyoq tuzilishlarida qator o'zgarishlar bo'lgan: oyoqlari uzaygan, mustahkamlangan, tez harakat qilishga moslashgan. Oyoq bo'g'imlari chuqurlashib, mustahkamlangan va joyidan chiqib ketgan.

Otlarning tez harakat qilishi va qattiq yerlarda yurishi ularni tuyoqni hosil qilishga olib kelgan. Tuyoq avval orqa oyoqlarda, so'ngra oldingi oyoqlarda hosil bo'lgan. Chunki asosiy harakat va tayanch dastlab orqa oyoqlarga tushgan. Tuyoqning hosil bo'lishi otlarning baland bo'lishiga, bo'yin qismining uzayishiga olib kelgan. Huning natijasida gavdasi va boshi yerdan ancha ko'tarilgan, uzoq va tez harakat qilish va sharoitni baholash xususiyatiga ega bo'lgan.

Bu o'zgarishlarning hammasi organizmda chuqur fiziologik o'zgarishlarning hosil bo'lishiga olib kelgan. Masalan, bosh miyaning tuzilishi murakkablashgan va vazni oshgan. Bularning hammasi hayvon organizmida yashash jamiyoning murakkablashganidan dalolat beradi.

Tarqalgan otlarning yovvoyi avlodlari birinchi marta Shimoliy Amerikada paydo bo'lgan. Lekin tosh asrida yashagan odamlar bu otlarni ovlab olib yulib yuborganlar. Trik qolganlari esa, Shimoliy Amerika bilan Osiyoni bog'laydigan to'quruqlik orqali Osiyoga qochib o'tgan, so'ngra u yerdan Yevropa va Afrika qit'alariga tarqalgan. Bu qit'alar sharoitida ularning yangi turlari hosil bo'lgan. Bulardan keyinchalik hozirgi yovvoyi otlar, eshaklar, qulunlar, qulunlar va asbalar kelib chiqqan. Eshaklar Afrikada, qulunlar, onagralar va asbalar Osiyoning sharro va dashtlarida, hozirgi otlarning haqiqiy turlari esa, hozirgi markaziy va Janubiy Osiyoda paydo bo'lgan.

Hozirgi davrda urchitilayotgan ot zotlarining xilma-xilligi ularning yovvoyi avlodlarning ko'pligidan emas, balki tabiiy sharoitni o'zgartiruvchi kishilar tomonidan yaratilgan natijadidir. Hozirgi vaqtda yovvoyi holda faqat Prjevalskiy oti qolgan.

Prjevalskiy oti – bu yovvoyi otni 1879-yilda birinchi marta ulug' rus ekspeditsiyasi Prjevalskiy Mug'uliston cho'llarida ushlagan. Shuning uchun bu otlar yovvoyi otlar uning nomi bilan ataladi.

Prjevalskiy otlari unchalik katta emas, balandligi 124-135 sm atrofida, bosh qismini quloqlari katta, pastki jag' qismida uzun junlari bo'ladi. Ko'kragi va bosh qismini keng, bo'yini katta, y o'g'on, qarchig'ayi past, oyoqlari ingichka, bosh qismini keng, to'rtala oyoq'ida kashtanlari bor. Tusi asosan qorayol saman, orqa qismini qora tusdagi bo'yoqlari bo'lgan. Oyoqlari targ'il. Tana tuzilishi pishiq, konstitutsiyasi mustahkam, roll qora va tikka bo'lib turadi, kokili bo'lmaydi, dumi qora, kalta bo'lib tana qoplangan. Bu otlar juda xushyor, to'da-t o'da bo'lib yurishadi, t

o'dasini ayg'ir boshqaradi. Ular, asosan, tunda o'tlab, tunda suv ichadi, leshaklar kabi suvdan kechib o'tishga qo'rqadi. Xonaki otlar singari kishni pishqiradi. Bu otlarning bo'g'ozlik davri 340 – 350 kun davom etadi, bolala mavsumiy, aprel va may oylariga to'g'ri keladi, xonaki otlar bilan chatishtirilgan naslli avlod beradi. 1899 yildan beri Ukrainadagi Askaniya – Novaya qo'riqxonasida urchitilmoqda.



4- rasm.
Prjevalskiy oti

Tarpanlar –

yovvoyi ot turlariga kiradi. Tarpanlar o'rta bo'lak, boshi katta va keng, yuzi kalta, do'ng pesha bo'yni qisqa va yo'g'iz yoli kalta va tik, kokili tanasi keng, sag'risi to'g'iz oyoqlari pishiq-tuyoq

baland, oldingi oyoqlarida kashtanlari bo'lib, tusi, asosan, kul rang, orqa bo'ylab o'tgan qora tasmasi bor.

XIX asming 70 – yillaridagi tarpanlar Rossiyaning janubiy dashtlar yovvoyi holda uchragan, keyinchalik xonaki otlar bilan chatishib, yovvoyilik tipiga yo'qotgan. Shuning uchun ba'zi olimlar bu otlarni yarim yovvoyilashgan otlar tipiga kiritadilar. Tarpanlar o'tgan asrdayoq yo'q bo'lib ketgan.



5-rasm. Tarpan.

Zebralar – bular otsimonlar oilasiga kiruvchi hayvonlardan biri hisoblanadi. Zebralar yovvoyi holda Afrikada tarqalgan bo‘lib, hozirda ularning bir nechta turlari mavjud. Zebralar tusiga, og‘irligiga va biologik xususiyatlariga qarab 3 turga bo‘linadi: 1) tog‘ zebrasi, 2) grevi yoki samoliya zebrasi, 3) kvaggi yoki kamofliktiv zebrasi. Ularning tusi targ‘il, yo‘l – yo‘l qora tasmalari bor.

Zebralar otlar bilan chatishtirilganda naslsiz avlod beradi, ular zebraidlar deyiladi. Zebralar xonakilashtirilmagan. Ayrim havaskorlar qo‘lga o‘rgatib, mavzuga qo‘shib ishlatadilar, salt minishda foydalanadilar.

MDHda zebralar Askaniya – Nova duragaylash institutida urchitiladi. Ular o‘rtacha 3 yoshda voyuga yetadi, bo‘g‘ozlik davri 360 – 375 kun, 20 yil yashaydi.



6 – rasm Zebralar.

Qulonlar, onagralar va kianlar. Bular toqtuyoqlilar bo‘lib, dasht hayvoni hisoblanadi. Ulardan onagralar qadimgi Sharqda qisman qo‘lga o‘rgatilib, yengil ishlarida ishlatilgan. Hozir Eron, Suriya va Shimoliy Arabistonda faqat yovvoyi holda uchraydi. Ularning go‘shiti juda yuqori baholanadi.

Qulon (jigatoy)lar onagrarga nisbatan kattaroq bo‘lib, dasht hayvoni hisoblanadi. Qo‘lga o‘rgatilmagan, 1940 yil Toshkentda №68 – ot zavodida qulonlar otlar bilan chatishtirildi. Bundan maqsad eshak va otlarni qulondan qochirish yo‘li bilan ularning ishchanligini oshirish va nasl beradigan xachirlar olish edi. Duragay qulonlar faqat yovvoyi holda Turkmaniston, Qozog‘iston cho‘llarida, Xitoy dashtlarida uchraydi.

Kiangalar qulonlardan katta bo‘lib, Xitoyning janubiy – g‘arbida Tibet tog‘larida uchraydi, qo‘lga o‘rgatilmagan, faqat yovvoyi holda yashaydi.

Eshaklar. Otlarga yaqin qarindosh hayvonlardan biri, xonakilashtirilgan. Yovvoyi holda Afrikada uchraydi, ularning ikkita somaliya, abissin – nubiy turi mavjud. MDHda eshaklarni mariy, buxor zotlari urchitiladi. Eshaklar o‘tloqli dasht yaylovlarda va suv kam bo‘lgan joylarda ham hayot kechira oladi. Eshaklar ish hayvoni sifatida ishlatiladi va biya bilan chatishtirib xachir olishda foydalaniladi.

Xachirlar – biya bilan eshakni chatishtirishdan olingan duragay. Eshaklarga nisbatan yirik bo‘lib, ikki baravar kuchli, ikki baravar ko‘p yashaydi (50 yil). Ular ozuqaga talabchan emas, sharoitga yaxshi moslashadi.

Dunyoda 15 mlnga yaqin xachir bor. Xachir otdan baquvvat, issiqqa chidamli tog‘larda foydalanish uchun qo‘l keladi. Garchi xachirlar naslsiz bo‘lsa-da, erkaklari jinsiy jihatdan tez yetiladi, shu sababli ikki yoshga yetmasdan bichish (axtalash) kerak, aks holda ularni ishlatish juda qiyin bo‘ladi.

Xachirlarning bo‘g‘ozlik davri 340 kun davom etadi, urg‘ochi xachirlar erkaklaridan yirikroq bo‘lib tug‘iladi, ularga nisbatan tez o‘sadi va tez yetiladi.

Ot – xachir. Ayg‘ir bilan urg‘ochi eshakni chatishtirishdan olingan duragay. Kattaligi jihatidan xachirlarga tenglashsada, ularga nisbatan kuchsiz bo‘ladi va sharoitga yaxshi moslasha olmaydi.

Ot – xachirlarda geterozis hodisasi yuz bermaydi. Xalq xo‘jaligida ularning ahamiyati yo‘q.

Ot – xachirga qaraganda kam uchraydi, chunki urg‘ochi eshak ayg‘irdan kamdan – kam bo‘g‘oz bo‘ladi (5-10%).

Ot – xachirlarda eshakning belgilariga nisbatan otlarning belgilari ko‘proq uchraydi. Ular yuvosh, tez yuradigan bo‘ladi.

Xachirlar va ot – xachirlar olish uchun sun‘iy urug‘lantirish usulidan keng foydalanish kerak, chunki urg‘ochi eshakni ayg‘ir bilan, biyani erkak eshak bilan tabiiy qochirish ancha qiyin va hamma vaqt ham muvafaqqiyatli bo‘lavermaydi.

2.1. Otlarni xonakilashtirish va uning tarixiy bosqichlari

Otlarni qo‘lga o‘rgatish va xonakilashtirishdan oldin birinchi marta qachon, qayerda va qanday otlar xonakilashtirilganligini bilish ahamiyatlidir. Tosh asrida Yevropa va Osiyo dashtlarida yovvoyi otlar juda ko‘p tarqalgan. Bu davrda odamlar otlarni qo‘lga o‘rgatishga urinmaganlar, faqat ularni o‘z ehtiyojlari uchun ovlaganlar xolos.

Otlar it, qo‘y va echkidan so‘ng xonakilashtirila boshlangan. Ilmiy tekshirishlar yovvoyi otlar bir joyda emas, balki Yevropa va Osiyoning bir necha joylarida xonakilashtirila boshlaganligini ko‘rsatdi. Dastlab otlar eng ko‘p qo‘lga o‘rgatilgan joylar Markaziy Osiyoning Amudaryo va Sirdaryo vodiylari hisoblanadi. Bu vodiylarda ingichka oyoqli, gavdasi kelishgan yovvoyi otlar xonakilashtirilgan. Buni Ashxobod shahri atrofida topilgan qazilma suyak qoldiqlari tasdiqlaydi. Shu xonakilashtirilgan otlardan keyinchalik Markaziy Osiyo va Kichik Osiyoda urchitiladigan Axaltaka, Arab, Yovmud, Varvara va boshqa ot zotlari kelib chiqqan. Shuningdek, bu yerda xonakilashtirilgan yovvoyi otlar - kichik Mo‘g‘ul otlari vujudga kelgan deb faraz qilinadi. Yovvoyi otlar qo‘lga o‘rgatilgan va xonakilashtirilgan joylardan ikkinchisi janubiy-sharqiy Yevropa va Osiyo dashtlari hisoblanadi. Bu yerda yovvoyi otlarning dasht tiplari, masalan, tarpanlar xonakilashtirilgan.

Arxeologik qazilma natijalari Markaziy Osiyoni mo‘g‘ullar bosib olgunga qadar bo‘lgan davrda janubiy-sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda xonakilashtirilgan otlar o‘zining sifat belgilari bilan mo‘g‘ul otidan ustun turishini ko‘rsatdi.

Yovvoyi otlar xonakilashtirilgan joylardan yana biri Rossiyaning janubiy dasht hisoblanadi. Bu yerda otlarni xonakilashtirish eramizdan uch ming yil ilgari boshlangan. Shu davrda Shimoliy Osiyo va Yevropaning o'rmonli sharoitiga moslashgan turlari rivojlanadi. Ular suyaklarining yaxshi rivojlanganligi, yoshlarining cho'ziqligi va yuz qismining uzunligi bilan farq qilar edilar. Shu otlarni ko'pchilik qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish natijasida Yevropa o'rmon otlari shakllandi. O'rmon otlarining boshqa bir guruhini dasht otlaridan kelib chiqqan deb faraz qilamiz, chunki ularning bir qismi yovvoyi holda yashab o'rmon zonasiga o'tish ehtimoli bo'lgan.

Ko'pchilik odamlar bilan birgalikda dashtdan o'rmon zonasiga otlar ham ko'chib o'tgan va o'rmon sharoitiga moslashgan: suyaklari yiriklashgan, tuyuqlari qisqaroq shakliga kelgan, junlari o'sgan. Lekin ularda dasht otlarining keng yoshlilik, qisqa yuzlilik, tish emalining kam burishganlik va boshqa xususiyatlari saqlangan.

O'rmon otlarining ba'zi bir xususiyatlari tanlash va juftlash, yaxshi mahallatirish va parvarishlash natijasida hozirgi Yevropa va Osiyodagi og'ir yuk ko'tiruvchi odamlar va universal otlarda yaxshiroq rivojlangan.

Skandinaviya, Boshqirdiston dasht otlarining shakllanishiga esa ko'proq shimoliy o'rmon otlari ta'sir ko'rsatgan.

Uzoqiyat otlarni xonakilashtirgandan so'ng, o'zining yashash joyi, sharoiti, xo'jalik yuritishiga qarab ulardan turlicha foydalanishgan. Shu davrdayoq xonakilashtirilgan otlarning yashash sharoitlari turlicha bo'lib, ular shu sharoit ta'sirida turlicha shakllana boshladi. Ko'chmanchi xalq otlarining yashash sharoiti yovvoyi otlar sharoitiga yaqinroq edi, shuning uchun bu otlar kam o'zgardi. Harbiy Yevropa va o'rmon zonalarida urchitilgan otlarning sharoiti keskin o'zgaradiganligi tufayli ular maydalashdi.

Yevropaning o'troq aholisi otlarni yaxshi sharoitga o'rgatish va xo'jalik sharoitiga ega bo'lgan xususiyatlarni rivojlantirishga ko'p vaqt sarf bo'ldi. Shundan e'tiboran odamlar har xil sharoitda otlarni boqish va parvarishlash, geografik joylashish masalalarini o'rgana boshladi.

Otlarni harbiy ishlar uchun qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lum bo'lib, ular shu maqsadda ko'paytirila boshlangan. Otlarni harbiy baharlar keng ishlatilishi, ularni yaxshi boqish va asrash, tanlash yilqichilikda mahalliy ishlarining boshlanishiga olib kelgan.

Xalqning salt-miniluvchi otlar yaratish borasidagi ko'p asrlik mehnati, mahalliy iqlim va ozuqa sharoitining ta'siri eramizga qadar bir necha ming yillarda ko'pgina Osiyo davlatlarida (Xorazm, Parfiya va boshqalar) yengil, tez yuguruvchi ot zotlarini kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Eramizdan avvalgi 500-yillarda yilqichilikda naslchilik ishlarining rivojlanishi natijasida mashhur salt-miniluvchi ot zotlari kelib chiqdi. O'rta Osiyoda, Gretsiyada, Rimda va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bunday naslchilik ishlari mahalliy otlarning shakllanishiga, yangi, turli maqsadlarda ishlatilishi zotlarining kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Otlar XI-XII asrlardan e'tiboran Fransiya, Niderlandiya va Angliyada qisqaroq xo'jalik sohasida, XV asrdan esa Rossiyaning shimoli-g'arbida

yer haydash, aravaga qo'shish kabi ishlarda ishlatila boshlandi.

Yevropa mamlakatlarining rivojlanishi bilan qishloq xo'jaligida arava qo'shib ishlatiladigan kuchli otlar yaratish zarurati tug'ildi. Bu hol keyinchik G'arbiy Yevropada og'ir yuk tortuvchi odimlab yuruvchi ot zotlarini yaratilishiga sabab bo'ldi.

XIX asr boshlariga kelib, hozirgi zamon tez yuradigan, yurtoq va yem foytunga qo'shiladigan ot zotlari vujudga keldi. Bu ot zotlarining yaratilishi M. G'arbiy Yevropa mamlakatlari va Amerikada ot sportining rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Hozirgi vaqtda ot zotlarining juda ko'p turi va xillari mavjud. Bular tanlab juflash, to'g'ri oziqlantirish, yosh otlarni maqsadga muvofiq o'stirish va zotlarini chatishtirish, ya'ni insonning bevosita mehnati natijasida yangi zotlar, jumladan, pakana ot zotlari bunyod bo'lmoqda yoki vujudga kelmoqda.

2.2. Otlarning biologik xususiyatlari

Yilqichilikni har tomonlama rivojlantirish ularning xo'jalik va biologik xususiyatlarini chuqur o'rganishga asoslanadi. Otlar quyidagi asosiy biologik xususiyatlarga ega. Otlarning suyaklari juda mustahkam tuzilgan, tayanch harakatlanish funksiyalarini bajaradi. Ayniqsa, ularning naysimon suyak uzunligiga yaxshi rivojlangan bo'lib, keng odimlashga imkon beradi. Umumiy pog'onasi juda mustahkam, o'z vaznining yarmiga teng keladigan yukni bemalol ko'tarib yura oladi, paylari ham mustahkam, cho'ziluvchan.

Boshqa qishloq xo'jalik hayvonlariga nisbatan otlarning muskullari yaxshi rivojlangan. Tez yuguruvchan otlarning muskullari uzun va zich tolalardan tuzilgan bo'lib, tez qisqaruvchanlik xususiyatiga ega. Odimlab yuradigan otlarning muskullari kalta va yo'g'on tolalardan tuzilgan, bu katta tortishish kuchi taqdim qiladigan ishlarni bemalol bajarish imkonini beradi.

Otlarda markaziy nerv sistemasi boshqa hayvonlarnikiga nisbatan yaxshi rivojlangan. Ularda shartli refleks odamlardagiga nisbatan tez tug'iladi, uzoq vaqt o'tlagan joyi, yurgan yo'li va burilishlarni eslab qoladi, xavf-xatarli ishlarni, qimirlashni, tog'da yurganda, ob-havo noqulay bo'lishini oldindan sezadi. Ular yaxshi qaragan shaxslarga tez o'rganadi, qo'pol muomalada bo'lgan shaxslar bilan juda qo'rqadi.

Otlarda eshitish, ko'rish, hid va ta'm bilish nervlari yaxshi rivojlangan. Uzoqdan kelgan tovush va harakatini sezadi, ko'p tovushlar ichidan o'z egasini tovushini ajratadi, ma'nosiga tushunadi. Shuningdek, u bir necha yuz metr yovvoyi hayvonning hidini sezadi, o'zining yotadigan joyini, o'z egasini hid bilan topa oladi, 500 metrgacha masofadagi narsalarni bemalol ko'ra oladi. Kechasi ham yaxshi ko'ra oladi.

Yuragi va o'pkasi yaxshi rivojlangan. Faqat buni orqali nafas olish. O'pkasining hajmi 40 – 45 l keladi, tinch turganda 1 minutda 8 – 16 marta nafas oladi, ishlash davrida o'pkasining hajmi 2 – 3, nafas olish tezligi 4- 7, o'pka ventilyatsiyasi 9 – 12 marta oshadi. Bu ularning ish qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Yuragining o'rtacha og'irligi 3,5 – 4,5 kg, o'rtacha hajmi 4 – 5 litr, teng, tinch turganda minutiga 36 – 44, og'ir ishlarni bajarishda 110 – 140 ml

qotib qoladi. Tinch turganda, bir minutiga yuragi orqali 15-20 l ishlaganda esa 150 l qon o'tadi, qonida ishqor va gemoglobin moddasi ko'p.

Otlar tez harakat qilib ishlash sharoitiga moslashgan, uning uchun ozuqa hazm qilish organlari boshqa qishloq xo'jalik hayvonlarinikiga qaraganda hajm jihatidan kichik, lekin jag'lari, tishlari, chaynash muskullari va so'lak bezlari juda rivojlangan. Agar ichish uchun suv yetarli bo'lsa, faqat quruq xashak bilan ozuqlanib yuraverishi mumkin. Ular kavshovchi hayvonlarga nisbatan ozuqani yaxshi hazm qila olmaydi, lekin harakat qilish uchun energiyani tejab sarflaydi.

Otlar ko'p ishlar bajarishga moslashgan. Ularning ish bajarish qobiliyati qiziq bezligi va pishiqligiga qarab belgilanadi. Yurish tezligi bo'yicha hamma qishloq xo'jalik hayvonlaridan ustun turadi, sekundiga to'rt oyoqlab (galop) yugurib 17 m, odinlab 1,4 m yuradi.

Otlar boshqa qishloq xo'jalik hayvonlariga nisbatan uzoq yashaydi va ko'p ishlaydi, yaxshi ozuqlanish sharoitida 25-30 yoshgacha ish qobiliyatini yo'qotmaydi.

Otlarning iqlimga moslashish (akklimitizatsiya) qobiliyati yuqori, shuning uchun otlar butun yer shariga keng tarqalgan. Ular tanlash va juftlash natijasida tez o'zgaradi, bu otlarning yangi zotlarini yaratish imkonini beradi.

Otlar dam olib turgandan so'ng kerishadi, 1-2 minut chuqur nafas oladi, bostani tashlayotgan bo'lsa uyg'otadi va uni ham o'zi qilayotgan mashqni bajarishga undaydi. Ag'aminganda qon aylanish sistemasi me'yorlashadi. Otlar bog'lanmay ushlaganda u bo'lmuni ozoda tutib, bir chekkaga borib tezaklaydi. Pashshalardan soqilash uchun suvga tushib qornini bostirib turadi, qulunlarini pashsha kam bo'lgan salqin yerlarga olib ketadi. Otlar tuman, shudring tushgan paytlarda yashovda o'tlamaydi, chunki bunday vaqtda ularda hid sezish xususiyati yo'qoladi. Agar tanasining biror yeri jarohatlangan yoki yaralangan bo'lsa, lablari bilan o'sha yerni massaj qilib tuzatishga harakat qiladi.

Otlar odamlarga nisbatan yer qimirlashini, sel kelishini 2-3 soat oldin sezishi, suvga cho'llarda suvga olib boradigan eng qisqa yo'lni topa oladi, suvning atrofidan ketmaydi, yirtqich hayvonlardan qo'rqmaydi.

Boshqa qishloq xo'jalik hayvonlariga nisbatan otlarning ter bezlari ko'p bo'lib, cho'qqanda va ishlaganda butun tanasi bo'ylab tirlaydi. Bu organizmdan ozuqacha ishqlik ajralishini ta'minlaydi.

Otlar sil kasali bilan kasallanmaydi. Chunki ularning qonida immun tanachalari juda ko'p bo'ladi. Shuning uchun otlarning qonidan qimmatli biologik preparatlar tayyorlanadi.

Otlarning yuqorida keltirilgan xo'jalik va biologik xususiyatlarini yaxshi o'rganish ulardan har-xil maqsadlarda foydalanish imkonini beradi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Otlarning oilasining evolyutsiyasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Otlarning yovvoyi urug'doshlarini aytib bering?
3. Otlarni xonakilashtirish va uning tarixiy bosqichlarini aytib bering.
4. Otlarning biologik xususiyatlari aytib bering?

III BOB. OTLARNING EKSTERYERI, INTERYERI VA KONSTITUTSIYASI 3.0. Otlarning eksteryeri

Eksteryer – bu organizmning tashqi tuzilishi bo‘lib, u hayvonning mahsuldorligi, ish qobiliyati hamda nasldorlik qimmatini xarakterlaydi. Otlarda eksteryer umumiy tana tuzilishi va ish qobiliyati, skelet va muskullarining tuzilishiga bog‘liq. Naslli otlarni baholashda tana qismlarining nomlanishini, o‘lchamlarini bilmasdan bonitirovka qilib bo‘lmaydi. Juda qadimdan kishilar otlarning tashqi tuzilishiga qarab, uning ma‘lum ko‘rsatkichlarini hisobga olib borgan. Shuning uchun ham otlarning eksteryeriga alohida e‘tibor berib kelinadi. Agar qadimgi grek va rim avtorlarini hisobga olmaganimizda XIV asrning boshlarida arab vetvrachi Abu – Bakrning va XI-XVI asrlardagi rassomlardan Leon Batits, Paolo Lama, Leonardo doVinchilar birinchi bo‘lib otlarning tana o‘lchamlari, tana tuzilishining bir-biriga mutanosibligi to‘g‘risida qiziqqandir. Otlarning eksteryeri to‘g‘risidagi birinchi kitob 1717-yili Grigoriy Fedorovich Dolgorukov tomonidan yozilgan. Fransuz olimi Klou Burjel 1774-yili eksteryer to‘g‘risida kitob yozadi. Rossiyada birinchi darslikni eksteryer to‘g‘risida 1832-yili V.I.Vsevolodov tomonidan yozilgan. 1926-yili professor N.N.Kuleshov «Vibor loshadey, skota i oves po eksteryeru» degan kitobni yozib, qishloq xo‘jalik hayvonlarning ahamiyatini turlicha tushuntirib berdi. Italyan avtori Grisson XVII asrda «Iskusstvo verxovoy yezdi» kitobida otlar eksteryeri va uning chiroyiligi to‘g‘risida yozadi. Eksteryer haqidagi to‘g‘ri tushuncha zootexniya fanining klassiklari P.N.Kuleshov, N.P.Chirvinskiy tomonidan yozilgan, keyinchalik ularning ta‘limotini, M.I.Pridorogin, Ye.A.Bagdanov, M.F.Ivanov va boshqalar davom ettirganlar.

1868-yilda nemis zootexnigi Zettegast barcha qishloq xo‘jalik hayvonlari uchun eksteryerning quyidagi ideal shaklini taklif qiladi. Bunda hayvonlarning gavda uzunligi 3 qismga bo‘linib, birinchi qismga boshidan to ko‘kraginging chetidagi vertikal chiziqqacha, ikkinchi qismga shu vertikal chiziqdan to quymichning oldingi chetidagi vertikal chiziqqa va uchinchi qismga shu vertikal chiziqdan keyingi qism oxirigacha kiradi. Uchinchi qism o‘z navbatida yana 8 tadan teng bo‘lakka, tananing uzunligi esa 24 ta teng bo‘laklarga bo‘linadi. 1/24 uzunlik qismi tananing bo‘linishi masshtabi hisoblanadi. Masalan, otlarni ko‘krak kengligi, chanoq kengligi 8 ta qismga teng bo‘lishi kerak. Shu shaklga mos keluvchi hayvonlarga ideal hisoblangan.

Shuningdek, Vilkens va Roloflarning «Oltin kesishmalar» nazariyasi ham Zettegast nazariyasiga birmuncha o‘xshashdir. Bu nazariya bo‘yicha hayvon tanasining uzunligi 2,6 ga bo‘linadi va olingan natija kichik kesim «minor» deb ataladi. Umumiy tana uzunligidan «minor» ajratib tashlansa, qolgan qoldiq katta kesim «mayor» deb ataladi. O‘rtasidagi nuqta esa, «oltin kesishma» hisoblanib, otning yuk ko‘tarish markazi shu nuqtada joylashganligini bildiradi. «Minor» ning uzunligi bosh va bo‘yinning uzunligiga teng bo‘lishi kerak. Lekin, shuni aytish kerakki, hayvonlarning eksteryeriga qarab ularning biologik xususiyatlariga aniq baho berishning obyektiv usuli yo‘q desa bo‘ladi. Masalan, otlarning tashqi

tekkishiga qarab ularning kuchlilikini, yurish va chopish tezligini, ish qobiliyatini baholash uchun qiyin. Bu xususiyatlarni aniq bilish uchun ularni maxsus sinab ko'rib yoki xo'jalik ishlarida uzoq vaqt kuzatib yurish kerak. Shuningdek, otlarning eksteryeriga qarab, nasl qoldirish xususiyatiga to'liq baho berish ham mumkin.

Yiqilishlikni o'rganish borasidagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, eksteryerga baho bema'lik yoki baholashda eksteryerni umuman hisobga olmaslik otlarning kamqatnatsiyasining bo'shshib ketishiga, eksteryerida ba'zi xususiyatning hosil bo'lishi va ish qobiliyatining susayib ketishiga olib keladi. Shuning uchun naslchilik va tovar xo'jaliklarida otlar eksteryeriga qarab baholalishi shart. Ularning eksteryerini baholashda oldin inventar nomlari, zoti, tashqi, tana aniqlanadi. Biyalarning eksteryerlarini baholashda esa, bulardan tashqari, qadrdirilgan vaqti va oxirgi qulunlagan vaqti ham aniqlanishi kerak. Shundan so'ng otlar tekis maydongacha olib chiqib, ularning sog'ligiga, xo'jalik ishlari va gavdasining umumiy tuzilishiga, yurish tezligiga, oyoqlarini to'g'ri tashkiliga, nafas olishi va gavdasining tebranishiga alohida e'tibor beriladi, shundan keyin tananing alohida-alohida qismlarini baholashga kirishiladi. Baholash otlarning bosh qismidan boshlanib, oyoqlari bilan yakunlanadi.

Tana qismlarining tuzilishi


Tana - eksteryerning bir bo'lagi bo'lib, maxsus funksiyalar bajaradi. Har bir organ organizmda muayyan joyda turadi va har qaysi sistemaga kiruvchi organlar funksiyasi jihatidan bir - biriga bog'lanib, umumiy bir funksiyani bajaradi. Tana qismlarining atalishini, anatomik tuzilishini yaxshi bilib olgandan keyin tana qismlari o'lchamlarining o'zaro munosabatda bo'lishi, o'ziga xos xususiyatlarini rivojlantirishi, shakl va funksiyasini, shuningdek ularda uchraydigan nuqson va kamchiliklarni har xil zotga mansub bo'lgan otlardan aniqlash mumkin.

Otlarning eksteryeriga qarab baholashning bir necha xil usullari mavjud:

- 1) ko'z bilan baholash;
- 2) ushlab ko'rish;
- 3) o'lchash yo'li bilan undan tashqari;
- 4) tana indokalarini hisoblab chiqarish;
- 5) profil usuli;
- 6) eng yaxshi otlarni rasmga olish yo'llari bilan aniqlanadi.

Otlarni ko'z bilan baholashda tana qismlarining atalishini, anatomik tuzilishini yaxshi bilib olgandan keyin, hayvonning mahsuldorligiga, ish qobiliyatiga baho berish mumkin. Tashqi tuzilishi, qaddi-qomati uch guruhga qarab 10 ta sistemaga asosida olib boriladi. Otlar bir xil yo'nalishda bo'lmaydi, shuning uchun, eng avvalo, qaysi yo'nalishda ekanligini bilmoq eng muhimdir. Ushlab ko'rish bilan hayvonning oriq-semizligini, zot xususiyatlarini yaxshi baholanganligini, shuningdek, ularda uchraydigan nuqson va kamchiliklarni bilish mumkin. Hayvonlarning eksteryerini ko'z bilan chamalab baholashda aniq ko'rsatkichlarga ega bo'lish qiyin. Binobarin, hayvon tana qismlari o'lchov yo'li bilan tana qismlari o'lchamlarining o'zaro mutanosiblikda bo'lishi, o'ziga xos

xususiyatlarni rivojlantirishi, shakl funksiyasi, shuningdek, ularda uchraydigan nuqson va kamchiliklarni aniqlash mumkin. Otlarning katta-kichikligi, kuchli va yulqinlik, yuk ko'tarish va tortish qobiliyati indeks ko'rsatkichlariga asosan aniqlanadi. Tanasi bir o'lchovi ikkinchi o'lchovga anatomik bog'lanishining bir-biriga nisbatan hisobidagi ifodalanishi indeks deyiladi.



7-rasm. Otlarning tana tuzilish qismlari

1-quloqlari, 2- bosh suyagining tepa qismi, 3-ko'z usti chuqurchasi, 4-ko'z peshanasi, 6-ko'z osti qismi, 7-chakkasi va chaynash muskullari, 8-pastki jag'ining burchaklari (ganashi), 9-bet yuz qismi, 10-pastki lab , 11-burun orqasi, 12- burun teshigi, 13-yuqorigi lab, 14-ensa qismi, 15-qo'l oldi bez qismi, 16-tomoq osti, 17-bo'yin va yol qismi, 18-bo'yin yonboshi, 19- bo'yin tarnovi, 20- qarchig'ayi, 21-orqasi, 22- beli, 23- sag'ir o'tirgich do'ngligi, 25-ko'kragi, 26-yelka qiruvchi do'ngligi, 27-ko'krak va ko'krak osti tushi, 29-yelka, 30-bilak, 31-tirsak, 32-bilako'zug bo'g'imi, 33-kafti, 34-baqay bo'g'imi, 35-baqay, 36-milki, 37-tuyoq, 38-qovurg'alari, 39-och biqin, 40-soxta qovurg'alari, 41-chetki jinsiy organ, 43-moyak xaltasi, 44-soni, 45-tizza, 46-boldir, 47-axilla payi, 48-tovon, 49-och bo'g'imi, 50-kashtanlari, 51-keyingi kaft, 52-keyingi baqay bo'g'imi, 53-keyingi baxir bo'g'imi, 54-milki, 55-tuyoq.

Otlarning jun qoplami. Jun, teri mahsuli bo'lib, hayvon tanasining yuzasida joylashgan. Olingan ma'lumotlar bo'yicha 1 sm³ teri yuzasida o'rtaicha 700 ta jun tolalari joylashgan. Jun va qilning uzunligi hayvonning yashash sharoitiga bog'liq. Otlarning dumi bilan yoli bahor va ko'zda almashinib turadi.

Otlarning teri qoplami.

Teri organizmda bir qator funksiyalarni bajaradi. Eng avvalo hayvon ot – terining beshqaridan qoplab olgan bo‘lib, organizmni tashqi muhitning turli taʼsiridan himoya qiladi. Turli omillar taʼsirida terining asab tuzilmalari qo‘zg‘alish holatiga kiradi.

O‘z qo‘zg‘alish impulslari markazga intiluvchi nervlar orqali bosh miyaga borib, bir qillab paydo bo‘ladi. Terida harakat, sezgi, bosim, og‘riq reseptorlari bor. Ular terining epidermis qavatida joylashgan.

Bug‘lantirish teridan mikroorganizmlar va kasallikka sabab bo‘ladigan boshqa moddalarni o‘z taʼsirini olmaydi. Teri tana haroratining asosiy boshqaruvchilaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga teri ajraluvchi organ sifatida muhim rol o‘ynaydi. Organizmda hosil bo‘ladigan chiqindi moddalarining (karbon kislotasi, suv bug‘lantirish qoplami teri orqali chiqadi.

Teri qon tomirlari bilan yaxshi ta‘minlangan. Shuning uchun organizmning qon tomirlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Organizmdagi qonning 10%i terida joylashgan bo‘ladi.

Teri organizmda muhim sezgi organi bo‘lib, organizmda modda almashuvurida qatnashadi. Umuman teri zich va elastik bo‘ladi. Terining qalinligi taʼsir etadigan yashil ot zotiga, yoshiga, ozuqlanishiga, parvarish qilinishiga va mahalliy holatiga bog‘liq.

Teri yuzalgan otlarning terisi yupqa, og‘ir yuk tortuvchi otlarniki esa qalinroqdir. Ular qancha chuqqon bo‘lsa, terisi shuncha yupqa bo‘ladi. Ot zotlari hisobida eng yupqa teri Axaltuka va Sof qonli Angliya zoti hisoblanadi. Ot terisi qonning o‘z taʼsirini nisbatan yupqa, qo‘ynikidan qalinroq. Boshqa qishloq ot zotlari hayvonlariga nisbatan ter bezlari soni ko‘p bo‘lib, o‘zida esa ko‘proq suvni saqlaydi teri orqali bug‘lantirish yo‘li bilan ajraladi.

Otlarda terlash avvalo chovida, bo‘ynida va yonboshida, yelkasi va og‘irida. Hatto bir hayvon tez chopadigan otday butun tana bo‘ylab terlamaydi.

Ter terini solishtirishda og‘irli 1,005-1,021 teng bo‘lgan sekretidir. Ter terining tarkibida osh tuzi bo‘lganligi sababligi u shurtobdir. Uning tarkibida kalsiy, magnez, natriy, sulfat, xloridlar mavjud. Terining organik moddalari tarkibiga glikogen, alyuk, alyuk kislotasi, kreatinin, ammiak, uchuvchi yog‘ kislotalari kiradi.

Otlarning teri suyuqligi qizg‘ish sariq rangli, tarkibida ko‘p albumin, globulin va alyuk bo‘ladi. Ter yog‘i sekresiyasi – odatda yog‘ bezlari junning yonida bo‘lib, otlarning yo‘llari jun saltachularida ochiladi. Yog‘ bezlarning devori ko‘p qavatli bo‘lib, uning devori epitelii o‘sgan sari hujayralar bez yo‘liga yaqinlashib, terga o‘z taʼsirini va o‘z taʼsirini tashqariga teri yog‘i sifatida chiqariladi. Ajralgan teri teri avval suyuq bo‘lib, keyin kuyuklashadi. Bu yog‘ to‘yinmagan glesirin va terining yog‘ kislotalari bilan hosil qilgan murakkab efilardan tashkil topgan. Ter yog‘i ter suyuqligidagi kislotalar taʼsirida parchalanadi. Natijada o‘ziga o‘z taʼsirini, uchuvchi yog‘ kislotalari hosil bo‘ladi.

Otlarning muskullari


Otlarning harakatlanishi, tana qismlarining bir-biriga nisbatan joyini o'zgartirishi, ichki organlarning ishi, nafas olish qismlari, qon aylanish, ozuqa hazm qilish, ajratish jarayonlari, muskullarning turli guruhlari faoliyati natijasida sodir bo'ladi.

Yuqori tabaqali hayvonlarda uch turdagi muskullar farq qilinadi: 1) ko'ndalang targ'il skelet muskullari (ixtiyoriy); 2) ko'ndalang targ'il yurak muskullari (ixtiyorsiz yoki g'ayri-ixtiyoriy); 3-ichki organlar, tomirlar va terining silliq muskullari (g'ayri-ixtiyoriy).

Skelet bilan bog'liq bo'lgan muskullar skelet muskullari deb aytiladi.

Skelet muskullar tabiiy sharoitlarda markaziy nerv sistemasidan kechadigan nerv impulslari ta'siri ostida qo'zg'aladi. Og'ir yuk tortuvchi va go'sht yo'nalishidagi otlarning muskullari bo'sh va hajmli muskul tolalari kalta bo'lishi, salt miniluvchi otlarga nisbatan kam qisqaruvchanlik xususiyatiga ega. Katta tortish kuchi talab qiladigan ishlarni bemalol bajarish imkonini beradi. Tez yuguruvchi salt miniluvchi otlarning muskullari uzun va zich tolalardan tuzilgan bo'lib, tez qisqaruvchanlik xususiyatiga ega. Muskullar ko'targan yukning ularning kattalanish kattaligiga ko'paytnasi muskul ishi deb hisoblanadi.

Skelet muskullariga yuk asta – sekin oshirib borilganida bitta tasirotning o'zida muskulning kaltalanishi oldiniga ortib boradi, keyin esa kamayib qoladi. Har bir muskul o'rtacha yuk ko'targanida katta ish bajaradi. Bu o'rtacha yuklar qonuni deb ataladi.



8 - rasm. Otni yuza muskullari


1. Trapetsiyasimon muskul
2. Ko'krak – bosh yelkabosh muskul
3. O'q oldi muskul

4. Yelkining uchboshli muskuli
5. Yelka muskul
6. Pusti o'tishimon muskul
7. Yozuvchi bilak muskuli
8. Bilakni yozuvchi muskul
9. Barmoqlarni yozuvchi go'shtli muskul egiluvchan
10. Barmoqlarni yozuvchi yon muskul
11. Bag'ri muskullari
12. Boshli chakkli boshli muskullari
13. Yotin pay muskullari
14. Bosh orqasining keng muskullari muskuli
15. Barmoqlarni yozuvchi muskul
16. Barmoqlarni yozuvchi yon muskul
17. Barmoqlarni yozuvchi yon muskul
18. Barmoqlarni yozuvchi yon muskul
19. Barmoqlarni bukuvchi muskul
20. Yelka muskuli
21. Orqayuqirigi o'tishimon muskul
22. Orqin tashqi qiyshiq muskuli
23. Boshsimon muskul

Otlarning skeleti

Uning skeletida (qisqartirib) ayanch vazifasini bajaradi. Suyaklar ustida muskul tashkil topadi (qisqartirib) organlar joylashgan. Uning suyaklari passiv, ayanch va harakat uchun bo'lgan, muvazabat tuzilishga ega otlarning eksteryeriga qarab, ularning o'ziga xos mahabatkorligi, konstitutsiya tipi, suyagining mustahkamligi va o'zining qay darajada rivojlanganligining nasldorlik qiyshiqatini bildiradi. Otlarning skeletini o't texnik ot skeletini va tana qismlari otlarini renge o'tirish uchun kengaytirilgan keltirib fikrlash va bilish zarur.

Boshqa qishloq xo'jalik hayvonlari singari qulun tug'ilganida tana vazni o'zining suyaklari og'ir bo'lib, 23-25 foizni tashkil qiladi. Otlarning o'sish davri 4 yoshgacha davom etadi. Semizlik darajasiga qarab tirik vazni o'zining 1/3 qismini tashkil qiladi. Boshqa qishloq xo'jalik hayvonlariga nisbatan otlarning skeleti qisqartirilgan bo'lishi suyaklar tuzilishining natijasidir. Suyaklarning o'ziga xos mahabatkorligi, birlashtiruvchi to'qimalari yaxshi rivojlanganligi bilan otlarning skeletining muvazabatkorligi yaxshi rivojlangan bo'ladi.



9-rasm Ot skeletining tuzilishi

1-bosh skeleti; 2-pastki jag' suyagi; 3-jag' suyagi; 4-bosh tepa suyagi; 5-bosh peshana suyagi; 6- chakka suyak o'sig'i; 7-yonoq (yuz) qirrasasi; 8-yuqori yonoq suyagi; 9-nerv o'tadigan teshik; 10-10a-jag'lararo suyagi; 11-burun suyagi; 12-yonoq yoshi suyagi; 13-ko'z kosasi; 14-yonoq(yuz) suyagi; 15-jag' tishlar; 16-yuqori tishlar; 17-qirquvchi tishlar; 18-dan 25-gacha 7 ta bo'yin umurtqalari; 25-dan 42-gacha 18 ta orqa umurtqalari; 43-dan 49-gacha 6 ta bel umurtqalari; 49-dan 54-gacha 5 ta dumg'aza suyaklari; 54-dan 74-gacha 20 ta dum umurtqalari; 75-sag'ri do'ngligi (cho'qqisi); 76-yonoq suyagi; 77-o'tirgich suyagi; 78-tebratgich chuqurqasi; 79-son suyakning oldingi tomoni; 81-tizza suyagi; 82-katta boldir suyak; 82-kichik boldir suyak; 83-sakrash bo'g'iining 6 ta suyagi; 83-oshiq suyak; 84-tovon suyak; 85-kubik suyak; 86-katta yasmiqsimon suyak; 87-kichik yasmiqsimon suyak; 88-son suyakning oldingi tomoni; 89-keyingi kaft (Uzangi) va oldingi kaft suyaklari; 90-son suyakning oldingi tomoni; 91-mokisimon suyak; 92-kunjutsimon suyak; 93-baqay suyak; 94-dumaloq suyak; 95-tayoq suyak; 96-kurak suyak; 97-yelka bo'g'ini; 98-yonoq suyagi; 99-tirsak bo'g'imi; 100-bilak suyagi; 100-tirsak suyagi; 101-tirsak bo'g'ini; 102-109-8 ta bilak suyaklar; 102-ilmuqsimon suyak; 103-ko'p burchakli suyak; 104-ponasimon suyak; 105-kubik simon suyak.

Har xil tipdagi ot zotlarining eksteryer tuzilishi bo'yicha farqi

Boshi. Otning boshi katta-kichikligi, suyakdorligi konstitutsiya bo'yicha bog'liq. Boshning tanaga nisbatan me'yor bo'lishi maqsadga muvofiq boshlari tuzilishiga qarab katta, mutanosib kichik bo'ladi. Tez yuradigan va

miniladigan otlarning boshi uncha katta emas, kam go'sht, quruq va harakatchan bo'ladi. Rivojlanishiga qarab yengil, o'rta va qo'pol, peshana va yuz qismlarining o'zaro o'ziga qarab keng peshanali, tor peshanali, bo'rining shakliga qarab to'g'ri, botiq va do'ng burunli bo'lishi mumkin. Arava qo'shiladigan va og'ir yuk tortuvchi yuradigan otlarning boshi to'g'ri shaklli bo'ladi. Sof qonli salt miniluvchi, arab, Ashitaka zotlarda botiq shaklli boshlar ko'proq uchraydi. Do'ng burunli boshli og'ir yuk tortuvchi odimlab yuradigan zotlarga xosdir. Salt miniladigan va yuradigan otlarning boshi keng peshanali, og'ir yuk tortuvchi odimlab yuruvchi ot yuradigan boshi esa tor peshanali bo'ladi. Bosh tuzilishiga qarab ahvoli, mijosi, bosh boshiga baho berish mumkin.

Bo'lak. Ko'zlarining katta-kichikligi hamma zotga mansub otlarda bir xil bo'ladi. Salt miniladigan otlarning ko'zlari nisbatan katta emas, qovoqlari tushgan bo'ladi.

Quloqlari. Salt miniladigan va tez yuradigan otlarning quloqlari og'ir yuk tortuvchi ot zotlariga nisbatan yuqqa, uzun, harakatchan va bir-biriga proporsional bo'ladi.

Burun teshtklari. Tez yuradigan va salt miniladigan ot zotlarining burun teshtklari juda harakatchan, bu esa tog'ay kemirchagining harakatchanligidir. Burun teshtklari katta va toza bo'lishi kerak. Burundan ajratiladigan suyuqlik tiniq va ko'kila bo'lishi kerak.

Pastki jug'ning orqa burchaklari (ganash). Ganashi keng bo'lishi muvofiqdir. Nafas olishda asosiy rol o'ynaydi. Bu esa salt miniluvchi otlarga xosdir. Pastki jug'ning orqa burchaklar orasi 8-9 sm bo'lishi kerak. O'z bo'lishiga ko'ra o'rta tor bo'ladi.

Enasi. Ensa suyasi va bo'yin umurtqasida tamom bo'ladi, ensa keng, uzun bo'ladi. Ensal katta otlar tez yugura olmaydi. Salt miniluvchi otlarining ensasi kichik bo'ladi.

Bo'yin. Yettita bo'yin umurtqasidan tashkil topib, otlarni harakatlanishida muhim rol o'ynaydi. Bo'yinning birinchi umurtqasi - atlant otning boshini harakatlanishi uchun xizmat qiladi. U xalqa shaklida bo'lib, yon tomonlarida qanot shaklida o'simlari bor. 2 - umurtqasi epistروفil o'tishsimon o'simtasi bilan farq qiladi. Bo'yinning yettinchi umurtqasi boshqalaridan farqlanishida, pastligi, orqa tomonida birinchi qovurg'a uchun maydonchasining pastligi bilan farq qiladi. Ot boshini pastga engashtirganda markaziy og'irlik o'rtasiga oyoqqa, ko'targanda esa markaziy og'irlik keyingi oyoqqa, chapga buralganda chap oyoqqa, o'ngga buralganda esa o'ng oyoqqa tushadi. Joylashishiga qarab unan, o'rta, tor bo'yinli, gavgada nisbatan joylashishiga qarab baland va past bo'yinli bo'ladi. Otlarning boshi bo'yniga nisbatan 45° burchak hosil qilib joylashsa, me'yori hisoblanadi, bunday otlar uzoq masofadagi narsalarni ham harakatlanadi, oldingi oyoqlari yengil harakatlanadi va yaxshi yuguradi. Bosh harakatlanishida esa yuk ko'proq orqa oyoqqa tushadi va ancha sustlanadi. Foydalanishida me'yori holatdagi bosh maqsadga muvofiqdir. Chunki otlarning bo'yin boshiga qishloq xo'jalik hayvonlarining bo'yniga nisbatan harakatchan va muvofiqdir. Otlarda otlarning bo'yini to'g'ri, oqqush va kiyik bo'yin nomlari bilan atash. To'g'ri bo'yin sof qonli salt miniluvchi, rus yo'rtoqi otlarda, oqqush bo'yin

Orlov yo'rtiqi otlarda va kiyik bo'yin mahalliy don va qirg'iz otlarda kuzatilgan. Bo'yinlar gavdaga nisbatan joylashishi jihatidan me'yor, baland va past bo'lishi mumkin. Gavdaga nisbatan 45–50° burchak hosil qilib joylashgan bo'yinlar hamma tipdagi otlar uchun ham me'yor hisoblanadi.

Qarchig'ay 2-12 ko'krak umurtqalarining o'simtalari joylashgan qism qarchig'ay balandligi deyiladi. 4 va 5 umurtqa o'simtasidan o'lchanadigan, ular eng baland nuqtasidir. Qarchig'ay joylashishiga qarab baland, o'rta va past uzunligiga qarab uzun, o'rta va qisqa qarchig'ayli bo'ladi.

Orqasi – qarchig'ay bilan bel o'rtasidagi oraliq bo'lib, u 11 – 18 ko'krak umurtqalaridan tashkil topgan. Orqa va bel o'tning oldingi qismi bilan orqa qismini qo'shuvchi ko'prik hisoblanadi. Orqasi uzunligiga qarab uzun, o'rta va qisqa, joylashishiga qarab to'g'ri, do'ng (zambarsimon) va bo'sh bo'ladi.

Orqaning keng bo'lishi maqsadga muvofiqdir. To'g'ri orqa gorizontal joylashgan bo'lib, oyoqlarining harakati kuchini oldingi qismiga yaxshi o'tkazib boradi. Do'ng orqali otlar muskullarining yaxshi rivojlanganligi natijasida paydo bo'ladi. Hamma tipdagi ot zotlari uchun ham kamchilik hisoblanadi. Bunday otlar kam harakat va kam kuchli bo'ladi.

Beli – bel tananing orqa bilan sag'risini qo'shuvchi qism bo'lib xizmat qiladi. 6 ta bel umurtqasidan tashkil topgan. Uzunligiga qarab uzun, o'rta, tor, joylashishiga qarab do'ng, tekis, egilgan bo'ladi. Egilgan, ya'ni botiq bel o'tning jismoniy jihatdan kamchilik hisoblanadi. Sag'ri asosan dumg'aza hamda to's (chanoq) suyaklaridan tashkil topgan. Shakliga qarab uzun, o'rta, qisqa sag'rili, keng o'rta, tor sag'rili, orqadan qaraganda ko'rinishiga ko'ra yumaloq, bo'lingan, chodirsimon sag'rili otlar bo'ladi. Salt miniluvchi va chopqir otlarning sag'risi uzun, yuk tortuvchi otlar o'rtacha, qisqa bo'ladi. Kengligi bo'yicha to'g'ri, zambarsimon, orqadan qaraganda bo'lingan tomsimon bo'ladi.

Dumi – umurtqa pog'onasining keyingi qismi hisoblanib, 20 tagacha umurtqa suyaklaridan tashkil topgan. 3 tasi silindsimon umurtqa yoyi bo'lib, qolganlarida yo'qolib ketadi. U o'tning himoya organi bo'lib xizmat qiladi. Hamma otlarda joylashishi va soni bir xil emas. Og'ir yuk tortuvchi odimlab yuradigan o'rmon otlarida uzun va serqil, janub tipdagi salt miniluvchi otlarda esa, nisbatan kalta bo'ladi.

Ko'krak qafasi – ko'krak umurtqalari, qovurg'alar va tush suyagidan iborat bo'lib, ko'krak qafasini tashkil qiladi. Arabi ot zotlaridan tashqari qolgan ot zotlarida 36 ta qovurg'a va 18 ta ko'krak umurtqasi bo'ladi. Arabi ot zotiga esa 19 ta ko'krak umurtqasi va 38 ta qovurg'asi bo'ladi. Orqa tomonga ya'ni 7–8 qovurg'agacha kattalashib boradi, so'ng kichrayadi. Ko'krak qafasi shakli bo'yicha keng, o'rta, tor, chuqurligi bo'yicha: chuqur, o'rta, chuqur emas.

Ko'krak qafasining hajmi qovurg'alarning uzunligi va qay darajada ekanligiga bog'liq. Yaylovda boqilgan va yoshligidan ko'p dag'al ozuqa iste'mol qilgan tez yetiluvchan otlarning ko'krak qafasi katta, tez yuguruvchan otlarniki chuqur, og'ir va yuk tortuvchi odimlab yuradigan otlarniki esa kengroq bo'ladi.

Qorin – ko'krak qafasining pastki qismidan chanoq suyagining oldingi qismigacha bo'lgan oraliqni tashkil qiladi. Shuni aytish kerakki, toqtuyoqli hayvonlarning qorni boshqa turdagi hayvonlarnikiga nisbatan kam rivojlangan.

Ushbu otlarning qorni ham yaxshi rivojlangan qorinlar qatoriga kiradi. Ushbu otlarning ko'p istemol qilgan ishchi otlarning qorni katta bo'lib uni «tozi qorin», ba'zi otlarning qorni tortilgan bo'lib, u «tozi qorin» deyiladi. Ot qorni tortilishiga qarab katta, o'rtada tortilgan qorinli otlarga bo'linadi.

Ko'krak 1-6 qovurg'alar ustida qiya joylashgan uchburchak shakldagi dumtinkasimon suyakdir. Ko'rinishiga qarab qiya, o'rtada, to'g'ri bo'ladi. Ko'krak uchburchak uzun va qiya joylashsa, qadam shuncha keng bo'ladi. Bunday ko'krak uzun yuqori yuguruvchi va yo'rtoqi otlarga xos bo'lib, og'ir yuk tortuvchini o'rtada yumshigan otlarning kuragi bir oz tikroq joylashgan bo'ladi. Yelka uzun bo'lsa bilak o'rtasida joylashgan, uzunligi xuddi boldir suyagidek yaxshi rivojlangan. Uning permuskul bo'lishi hamma tipdagi otlar uchun ham me'yor bo'lgan hisoblanadi. Salt miniluvchi otlarning yelka suyagi uzun, bilak va kaft uzun bo'lsa nisbatan uzun bo'ladi, ko'rinishiga qarab uzun, o'rtada, kalta yelkali, eniga bo'lgan, o'rtada va tor yelkali otlar bo'ladi.

Bilak - yelka bilan bilakuzuk bo'g'ini o'rtasida joylashgan bilak. Bilakning uzun, permuskul va vertikal bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Uzunligi boldir bo'lgan, uzun bilak yo'rtoqi ot zotlarida uchraydi. Unga nisbatan salt miniluvchi otlarning bilagi qisqaroq. Oldingi bel qismida yozuvchi muskullar, orqa bel qismida bilakuvchi muskullar bo'ladi. Tirsak bilak suyagining o'simtasiidir. Uning uzun yuqori qismi yaxshi rivojlangan, pastki qismi yupqa plastinkasimon. Bilakning bo'lishlig'i birmuncha keng. Oldingi oyoq harakati boshqaruvchi bo'lgan va paylarning asosiy joyi hisoblanadi. Yaxshi tirsak uzun bo'lib, ko'krakka nisbatan orqaga chiqib turadi.

Bilakuzuk bilak bilan va kaft suyaklarining o'rtasida ikki qator yuqori qismida bo'rtta bir xil shaklli, pastki qatorda uchta, ba'zan to'rtta bilak uzuk bo'lgan iborat.

Bilakuzuk oyoqlarning yaxshi yuguruvchanligini ta'minlaydi. Rivojlanishi bo'lganida yaxshi, qolqarqli, yomon rivojlangan bilak uzukli otlar bo'ladi.

Kaft - yuqori qismi bilakuzuk bo'g'inining suyaklari pastki qismida bo'lgan bo'g'inning suyaklari bilan birlashgan. Kaft suyaklari orqali otlarning harakatini muvofiqlashtirishni bilish mumkin. Kaft suyagi uchta (II - III- IV) qismidan iborat. III- kuchli rivojlangan. III- kaft suyagining yuqori qismi bo'lib, ikki yumshigan tepa qismida notekis joy bo'lib, unga bilak suyagining yuqori muskullari birlashgan. Paylari yaxshi rivojlangan bo'lib, yozuvchi va boshqaruvchi bo'lgan bo'ladi. Rivojlanishiga qarab yaxshi, o'rtada, yomon kaftli. Uzunligi bo'lganida esa, o'rtada, kalta kaftli bo'ladi.

Baqay (nahov) - bo'g'im kaft va baqay oralig'ida joylashgan. Baqay bo'lgan bo'g'im «tozi mushqasimon» bo'lib, ot og'irligini va yerdan bo'ladigan ta'simi bo'lgan bo'ladi. U quruq, keng, toza bo'lib, mustahkam paylardan tashkil topgan. Baqay bo'lgan bo'g'im bo'lishi esa ot oyog'ini mustahkam emasligidan dalolat bo'ladi.

Baqay bo'g'im bilan dumaloq suyak oralig'ida joylashgan. Barilov suyagi bo'lgan bo'g'im yerdan bo'ladigan tasirni yumshatishdan iborat. Baqay uzun, quruq, toza, va toza bo'lishi mumkin. Uzun baqay chopqir otlarga, kalta baqay bo'lgan bo'g'im bo'lgan otlarga xos. Baqay tik bo'lgan otlar luqqa holda yuradi.

Tuyoq milki – baqay bilan tuyoq suyagi orasida joylashgan. U oyoqning oxirgi qismi hisoblanib, himoya va tayanch vazifasini bajaradi. Tuzilishiga qarab katta, yassi, tor stakansimon qiyshiq tuyoqlar bo'ladi. Tuyoqlarning ostida strelka joylashgan bo'lib, u tuyoqni kengaytirib va to'satib turishda ammartzizator vazifasini bajaradi. Tuyoqning usti tekis va yaltiroq, oldingi qismi orqa qismiga nisbatan balandroq bo'ladi. Son suyagining boshida oyoq muskul birlashuvchi dumboqlar hamda yaxshi rivojlangan orqa yuza chuqurchasi bo'ladi.

Tizza – tupiksimon suyakdan iborat bo'lib, kopkogi noto'g'ri turtburchak shaklda: son va boldir suyaklarining tutashgan joyida joylashgan. Kopkogining pastida bo'g'in yuzasi bo'lib, son suyagining pastki qismiga joylashgan.

Boldir – nay shaklida, yuqori qismi yo'g'on, past tomoni kengayib ketgan ingichkalashgan bo'ladi. Katta va kichik boldir suyaklaridan iborat otlarda boldir suyagi yaxshi rivojlangan. Tovon va tizza qopqog'ining o'rtasida joylashgan. Boldir qancha uzun bo'lsa, ot shuncha keng qadam tashlaydi va chopqir bo'ladi.

Sakrash bo'g'imi – boldirni tovon bilan tutashtiradi. Tovon, kubiksimon, kichik yassiqsimon, katta yassiqsimon, piramidasimon suyakdan iborat. Ot shu bo'g'im muskullari orqali sakrash va chopish imkoniyatiga ega bo'ladi. U quruq hajmli baquvvat bo'lishi kerak.

Orqa oyoqlari son, tizza, boldir, tovon, sakrash bo'g'imi, keyingi baqay, tuyoq suyaklaridan iborat. Son suyagi uzun nay shaklida bo'lib, yuqori tomonidan tos suyagiga birikadi. Son suyagining pastki uchi katta boldir bilan birlashadi. Son suyagining boshida uyiqlik va muskul birlashuvchi dumboqlar bo'ladi. Yaxshi rivojlangan orqa yuza chuqurchasi bo'ladi.

Tizza son va boldir suyaklarining tutashgan joyida bo'lib, tuyiksimon bo'ladi. Turtburchak shaklida bo'ladi.

Son – asosini son suyagi tashkil qilib, yuqori tomondan tos suyagiga, pastki qismi esa boldir suyagiga birlashadi. Yuqori tomonida suyagini boshlab, son suyagi bilan boldir suyagi o'rtasidagi bo'g'inda yoy shaklidagi tog'ay bo'ladi. Son qancha uzun bo'lsa, qadamini shuncha keng tashlaydi.

Tovon suyaklari – bir qancha mayda va katta suyaklardan iborat. Tovon suyagi uzun bo'lib, uning tanasi hamda muskullari birlashadigan bo'ladi. Tovon do'ngligi bo'ladi. Otlarning tovon suyagi kaltaroq, oshiq suyagining tuzilishiga burtagi yaxshi rivojlangan otlarda bloq taroqlar qiyshiqroq bo'ladi. Tovon suyagining ichki yuzasida paylar birlashish joyi bor. Keyingi kaft suyagi bo'g'imi bilan sakrash bo'g'imi o'rtasida joylashgan bo'lib, oldingi kaft suyagi nisbatan uzun bo'ladi. Baqay va tuyoqlarning tuzilishi xuddi oyoqlarning baqay va tuyoqlarning tuzilishiga o'xshaydi. Skelet organizmda tayanch vazifasini bajaradi.

Taqir teri (kashtan) – terining shoxsimon junsiz joylari bo'lib, oyoqlarda orqa oyoqlarga nisbatan katta bo'ladi. Oldingi oyoqlarda hadda-da yuqoriroqda, orqa oyoqlarda esa sakrash bo'g'imlarining ichki tomonida bo'ladi. Orqa qismi yaqinida bo'ladi.

Oldingi oyoqlarning qo'yilishi

Otlarning yurishi oyoqlarining to'g'ri qo'yilishiga bog'liq. Otlarning tipiga, kengligiga, kengligiga qarab oldingi oyoqlari me'yor, keng va tor qo'yilishi mumkin. Otlning oldingi oyoqlari tekis joyda parallel turgan vaqtda ikki tuyoq o'rtasiga yana bir tuyoq erkin joylashsa, me'yor kenglikda, ikkita tuyoq sig'sa keng, bir tuyoq siqqulik joy bo'lmasa, tor qo'yilgan oyoq deyiladi. Oldingi oyoqlarning to'g'ri qo'yilganligini otlning old tomonidan 5-6 m masofaga qarab ko'riboladi. Oldingi oyoqlar tik, bir-biriga pararell bo'lishi kerak yoki umrovdan ko'tirilgan shovun (to'g'ri ip) tuyoqning uchiga tegishi kerak. Oldingi oyoqlar to'g'ri qo'yilgan, yurganda oyoqlar bir-biriga uriladi va otlning maksimal ish qobiliyati pasayadi. Oldingi oyoqlariga old tomonidan qaralganda quyidagicha tuyoq qo'yilishlarini ko'rish mumkin:

1. **Tikka va to'g'ri qo'yish.** Oyoq bunday qo'yilganda, birining panasida ikkinchi ko'rinmaydi. Bu hamma tipdagi otlar uchun me'yor holat.

2. **Qarin tomonga qiya qo'yish.** Oyog'ini bunday qo'ygan otlar qadamini keng tashqi olmaydi, yurganda surinadi. Bu nuqson nasldan-naslga o'tadi.

3. **Oldinga qarab qo'yish.** Bunday qo'yish ko'pincha xronik kasallashdan kelib chiqadi. Buni umrovdan tushirilgan shovun tuyoqning tepasida qaltisi bilan izohlash mumkin. Oyog'i oldinga qarab otlarning asosiy ish tiliq oyoq oyoq'iga tushadi va erkin harakatlanishiga xalaqit beradi.

4. **Birkulimon oyoq** – ikki tuyoq oraliq'i ko'krakka nibatan keng bo'lishi bilan tashlanadi. Bunday nuqson yosh toylarda ko'proq uchraydi.

5. **Me'yor qo'yilgan oyoq** - tik va bir-biriga parallel joylashadi. Bu kenglik hisobiga otlarda me'yor hisoblanadi.

Otlarda yon tomondan qaraganda quyidagi oyoq qo'yish shakllari ko'zga ko'rinmaydi:

1. **Qiyshiq oyoqlar** – baqaylari va tuyoq uchlari tashqi tomonga qarab bo'ladi. Qiyshiq oyoq ko'pincha tor ko'krakli yo'rtoqi otlarda uchrab, yugurganda oyoq'lar bir-biriga urilib yiqilishi mumkin. Bu nuqson nasldan-naslga o'tuvchi ko'rsatkichi uchun, shunday nuqsoni bor ayg'irlar brak qilinadi.

2. **Qaltisli oyoq (maymoq)** – baqaylari va tuyoq uchlari ichqariga qarab bo'ladi. Bunday nuqson ko'pincha og'ir yuk tortuvchi, odimlab yuradigan otlarda uchraydi. Bu nuqson nasldan-naslga ham o'tishi mumkin. Shunga ko'ra bunday oyoq otlardan nasl olish yaramaydi.

Orqa oyoqlarning qo'yilishi

Otlning yuraganda orqa oyoqlar parallel va keng qo'yilgan bo'lib, ularning panasida oldingi oyoqlari ko'rinmasligi kerak. Orqa oyoqlarining keng qo'yilishi otlarning, xususan, sag'rining kengligiga bog'liq. Ortadan qaraganda orqa oyoqlarning qo'yilishi X-simon, O-simon va me'yor bo'lishi mumkin.

X-simon bo'lganda sakrash bo'g'imlari bir-biriga yaqinlashib, tovon va tashqari nisbatan keng qo'yiladi. Bunday nuqson otlarning yaxshi harakatlanishiga to'g'irlilik qiladi.

O-simon qo'yilganda sakrash bo'g'imlarning poshnalari tashqariga egilgan bo'ladi. Buni eslatadi. Bunda tuyoqlar bir-biriga yaqinlashib, otlning erkin

harakatlanishiga to'sqinlik qiladi. Bu xildagi oyoq qo'yish, ko'pincha og'ir yuk tortuvchi otlarda kuzatiladi.

Orqa oyoqlar yon tomondan qaralganda me'yor, qilichsimon, ichkariga va orqaga qiya qo'yilishi mumkin.

Oyoqlar me'yorda qo'yilganda o'tirg'ich do'ngligidan tushirilgan shovun poshnaga tegib, tovon bilan parallel tushadi. Bu hamma tipdagi otlar uchun maqsadga muvofiqdir.

Qilichsimon qo'yilganda boldir bilan tovon suyagining birlashgan joyidagi burchak 150° ni tashkil etadi. Oyoqlar bunday qo'yilganda qadam tor tashlanadi, otlar raxit bilan kasallanganda qilichsimon oyoqlar to'pig'iga ko'p og'irlik tushib, sakrash bo'g'imidagi turli nuqsonlar paydo bo'ladi.

Oyoqlar shamshirsimon qo'yilganda boldir bilan tovonning birlashgan joyidagi burchak 180° ni tashkil etadi. Oyoqlarning bunday qo'yilishi sakrash bo'g'imining amortizatorlik xususiyatini kamaytiradi, qattiq yerda ishlatilganda oqsaydi, sag'ri muskullarida og'riq paydo bo'ladi.

Ichkariga qiya qo'yilganda o'tirg'ich do'ngliklari (kuymich) dan tushirilgan shovun sakrash bo'g'imiga tegmasdan o'tadi. Bunday qadami qisqa bo'lib, sakrash bo'g'imiga ko'proq og'irlik tushadi. Bu ko'pincha mahalliy va yo'rg'a otlarda uchraydi.

Orqaga qiya qo'yilganda o'tirg'ich do'ngliklaridan tushirilgan shovun sakrash bo'g'imining o'rtasidan o'tadi. Bu nuqson raxit bilan kasallangan otlarda ko'zga tashlanadi. Ba'zi otlar tovonni kasallanganda, oyog'ini yuqorida aytilgan shaklda tutib turadi.

Otlarning eksteryer kamchiliklari va nuqsonlari

Otlarning ish qobiliyatini va nasl qimmatini baholashda ularning eksteryeri, kamchiliklari va nuqsonlariga alohida e'tibor berish kerak.

Tana qismlarining maqsadga muvofiq fiziologik me'yor rivojlanmasligiga kamchilik deyiladi.

Organ va to'qimalarining o'zgarish natijasida paydo bo'ladigan belgilarga esa **nuqson** deyiladi.

Orqa va belning o'ta tor va bukri bo'lishi **kamchiliklardan** hisoblanib, otning zaifligini ko'rsatadi.

Sag'ri – qisqa, tor, past (eshak sag'ri), o'ta qiya bo'lishi mumkin. Bunday otlar me'yor va kuchli harakatlana olmaydi, tor qadamli bo'ladi.

Boshning haddan tashqari katta, tanasiga nisbatan mutanosib konstitutsiyasining qo'polligidan, kichik va yengil bo'lishi nozikligidan dalolatdir.

Nuqsonlar

Ko'zga oq parda tushishi, ya'ni ko'z qorachig'ida dog'lar paydo bo'lishi ko'z shoxsimon moddasining xronik yallig'lanishi natijasida yuzaga kelib, ot qisman yoki butunlay ko'rmay qolishi mumkin. Tili yara yoki qisman uzilgan, yuqori jag'i pastki jag'idan uzun yoki kalta bo'lishi mumkin. Bunda tishlar bir-birining ustiga to'g'ri tushmaydi va qisman ozuqning maydalanishiga xalal beradi. Ma'lumki, ot ko'p turib qolganda qattiq narsalarni kemirishga o'rganadi va buning

otlarning boshlari noto'g'ri yedirila boshlaydi. Bunda ba'zi otlar qattiq narsalarni
boshlari bilan qutibhoga o'rganadi va tez-tez damlab turadi.

Buzoq qirillashi – hqildoqning cho'michsimon tog'aylarining yarim shol
bilan qirillanib ketishi yuzaga kelib, otning nafas olishini qiyinlashtiradi, xirillashga
olib keladi. Bu nuqson (poroq) hisoblanadi.

Buzoq qirillashi yu'larining xronik yallig'lanishi, buning natijasida burnidan
qirillanib ketishi esa otlarning kamchiligi hisoblanadi.

Buzoqning juda uzun, kam muskul, yalpoq, kalta bo'lishi ham otning
kamchiligi hisoblanadi.

Buzoqning qirillashi, bu esa bo'g'im sumkasi shilimshig'ining yallig'lanishi
natijasida yuzaga keladi, ot boshini erkin harakatlantira olmasdan yurish
qiyinlashtiradi.

Buzoqning qirillashi juda baland va qirrali bo'lsa, bu ham nuqson hisoblanadi.
Buzoqning qirillashi og'ir agar, xomo't tez «uradi».

Buzoqning yag'iri, bu tufayli qurchig'ay yallig'lanib, yiringlab shishib ketadi
va otlar qirillanadi.

Buzoqning mushaklarining atrofiyasi (isplek) – yoshligidan og'ir ishlarda
ishlatilishi va yuqori mushaklarini egar bosishi natijasida kelib chiqadi. Bunday otlar
otning bo'g'im qurib boga olmaydi, oqsaydi.

Buzoqning mushaklarining atrofiyasi (ich urish) – yoshligida og'ir ishlarda ishlatilishi
natijasida o'z yuqori mushaklarining kengayib, o'z holatiga kelmay qolishi bilan
kuchli kamchilik hisoblanadi. Bunday otlar tez va yuzuki nafas oladi, og'ir ishga yaramaydi.

Buzoqning mushaklarining atrofiyasi qurib va sunalar bo'lib, qichitadi. Ot dumini ishqab, qo'tir
qiyinlashtiradi.

Buzoqning mushaklarining atrofiyasi – dum ostida va boshqa yerda ko'chib yuruvchi zararli
kamchilik hisoblanadi. Bunday otlar mushaklarida paydo bo'ladi.

Buzoqning mushaklarining atrofiyasi – moyaklar moyak xaltasiga tushmay ichkarida qoladi. Bu
kamchilik hisoblanadi. Bunday otlar serjahl, kamurug' yoki urug'siz
bo'ladi.

Buzoqning mushaklarining atrofiyasi – bu bilan kasallangan otlarning moyak xaltasiga ichak tushib, xalta
qurib ketishi hisoblanadi. Otlarni operatsiya yo'li bilan davolash mumkin. Grija bilan
kasallangan otlardan nasl olinmaydi.

Oldingi oyoqlarida

Buzoqning mushaklarining atrofiyasi – bilakuzuk bo'g'imlarining to'la yozilmasdan egri bo'lib
otlarning mushaklarida yuzaga keladi. Egiluvchi paylarning xronik yallig'lanib,
otlarning mushaklarini egri bo'g'imini yozilmaydi. Xronik yallig'lanish har ikkala
oyoqda ham uchirishi mumkin. Yoshligidan og'ir ishlarda ishlatilgan va kuchli
ishlarda ishlatilgan otlar keyinchalik faqat yengil ishlarda ishlatiladi.
Buzoqning mushaklarining atrofiyasi o'xshab qolishi ba'zi otlarda tug'ma bo'lishi ham
mumkin. Bunday otlar ba'zan kamchilikni tuzatib bo'lmaydi.

Buzoqning mushaklarining atrofiyasi (bu yoki oyoq) – otlarning oldingi bir yoki ikkala oyoq'i ham
bilakuzuk qurib ketishini anglatadi. Buzoq oyoq bilakuzuk bo'g'imini
yozilmasdan xronik yallig'lanishi va ruxit bilan kasallanishi natijasida sodir bo'ladi.
Bunday otlar og'ir ishga va nasl qoldirishga yaramaydi.

Kaft suvaging noziklashuvi – bilakuzuk bo'g'imi va kaft suyagi sust rivojlanganligi oqibatidir. Kaft suyagi nozik otlar og'ir ishga yaramaydi, olinmaydi.

Brokdaun – oldingi oyoq barmoqlarini eguvchi paylarning xronik shikastlanishi natijasidir. Yoshligidan og'ir ishlarda ishlatilgan otlarning paylari cho'zilgan, ba'zilar uzilishi ham mumkin. Bu nuqson sof qonli salt miniluvchi zotlar uchun ko'proq uchraydi.

Bukshin (xronik shish) – kaft suyagi yozadigan paylarning xronik shikastlanishi natijasidir. Bu nuqson chopqir otlarni oqsatib qo'yadi.

Suyak ustidan suyak o'sib chiqishi – kaft va tovon suyaklarining shikastlanishi natijasida vujudga keladi. Agar o'simta suyakchalar paylarga yopishgan bo'lsa, u paylarga ishqalanadi, ot oqsaydi: agar paylardan uzoqda joylashgan bo'lsa, otning ish qobiliyatiga ta'sir qilmaydi. Bu nuqsonni otning kallalarini tovonlarini qo'l bilan silab ko'rish orqali aniqlash mumkin.

Jabka - deganda baqay bo'g'imining pastki va chocha suyaging usti qismida suyak o'sib, yarim doira shaklida chochani o'rab olinishi tushiniladi. Jabkani tik aqayli, tik tuyoqli, yoshligidan yaxshi sharoitda tarbiyalanmagan otlar uchun ko'proq uchraydi. Jabkani davolash qiyin. U otni oqsatadi, ish qobiliyatini susaytiradi. Agar suyak o'simtasi chochani butunlay o'rab olsa, u obruch deyiladi. Obruch jabkadan ham xavflidir.

Chochaning shikastlanishi – maymoq otlarning oyog'ini bir-biriga urishi natijasida sodir bo'ladi. Dastlab chocha terisida yara, keyinchalik tugun vujudga keladi.

Shevar – sochiq osti (baqay orqasi) terisining yallig'lanib, yoyinglashidir. Bu otlarni iflos, nam joylarda uzoq saqlash natijasida kelib chiqadi. Agar vaqtida uning oldi olinmasa shevar kattalashib, kaft va tovonga o'tadi, ot oqsatadi.

Bo'g'im shishi – bo'g'im xaltalarida, pay qinlarida sinovial suyuqlik to'planib, shilimshiq qatlamlarning yallig'lanishidir. Sakrash bo'g'imida bu suyuqlik uch xil ko'rinishda bo'ladi: tashqi, ichki va tik turuvchi (tashqaridan qo'l bosilganda ichkariga, ichkaridan bosilganda tashqariga o'tib turadi). Ishlatilgan otlarning uzoq turib qolishi, og'ir ishlarda ko'p ishlatilishi, oyoqlarining noto'g'ri tuzilishi bo'g'imlarining shishib ketishiga olib keadi. Bu kamchilik bo'g'imning konstitutsiyali otlarga xos bo'lgan tipik xususiyatlardan biridir.

Tirsak shishi - deb tirsak cho'qqisida surunkali shishning paydo bo'lishi aytiladi. Bu oyog'i nozik otlarga xos bo'lib, ular tez-tez yotadi, yurganda tirsakka urilib turadi, lekin oqsamaydi.

Orqa oyoqlari

Shpat (xo'roz vurish) – ot yurganda orqa oyoqlarining bittasini yoki ikkinchisini siltab ko'tarishdir. Shpat sakrash bo'g'imining ichki tomonidan suyak o'sib chiqishi tufayli paydo bo'ladi. Ba'zan suyak o'simtasi tashqi tomondan bilinmasligi ham mumkin. Bu holat veterinariyada nerv shpati ham deb yuritiladi. Shpat boshlangan dastlabki vaqtlarda ot oqsamaydi. Bu yopiq shpat deb ataladi. Uni aniqlash uchun otni 5-6 metr orqaga tislab, so'ngra oldinga yurgizish ket


Yana bir usuli 2-3 minut orqa oyog'ini qorniga tomon ko'tarib, so'ng yurgiziladi. Agar yopiq shpat bo'lsa, ot oyog'ini xo'roz singari ko'tarib bosadi.

Shpat nasldan-naslga o'tuvchi nuqson bo'lib, uni davolashning iloji yo'q. Shpatni ispat tashlash va xillash ishlarini namunali tashkil etish bilangina yo'qotish mumkin. Shpat otning ish qobiliyatini sezilarli darajada pasaytirib yuboradi. Shpatni o'tlar brak qilinadi.

Archa - shishning yoysimon shaklda ko'rinishidir. U poshna suyagining pastki qismida bo'ladi. Poshnada qurba paydo bo'lganda sakrash bo'g'imidan tizza bo'g'imiga ketadigan to'g'ri chiziq qiyshayadi. Poshna suyagining archedirlik, sakrash bo'g'imidagi paylarning yallig'lanishi, grifel suyaklari bosh qo'ng'ir va qizilchi paylarning yallig'lanib yo'g'onlashuvi, poshna suyagining oldingi bo'g'imni suyaklari bilan qo'shilib ketishi natijasida vujudga keladi. Ushbu davolash bo'lmaydi.


Pipgak - poshna cho'qqisidagi xronik shish bo'lib, u otlarning tor bo'linmalarida suralgan paytda orqa oyog'ini devorga urishi tufayli paydo bo'ladi. Bu shish tani oqatmaydi, ish qobiliyatiga ta'sir etmaydi. Shuning uchun uning ko'rik nuqsoni (buzabuzari) ham deyiladi. Pipgak nasldan-naslga o'tmaydi.

Tizza shishi - tizza xaltasi shilimshiq qavatining yallig'lanishi oqibatidir. Bu shpat bo'g'imning «xom»ini ko'rsatadi.



10-rasm. Ot tanasida uchraydigan umumiy kamchilik va nuqsonlar

1-ko'z kasalliklari; 2-burundan suv kelib turishi; 3-qirquvchi va jag' tashlashning bir-biriga to'g'ri tushmasligi; 4- qarchig'ay mushaklarining yallig'lanishi; 5-mokluki qisilgan; 6-grija; 7-yelka mushaklarining yallig'lanishi; 8-uzuk shishi; 9-bilak uzuk shishi; 10-echki oyoq; 11-bukshin; 12-brakdaun; 13-bo'g'alar shishi; 14-jabka; 15-tuyoqlar nuqsoni; 16-tizza bo'g'imining yallig'lanishi; 17-tovon shishi; 18-shpat; 19-qurba; 20-mokres.



11 – rasm Ot oyoqlarida uchraydigan ba’zi bir nuqsonlar
 A – echki oyoq; b – buzoq oyoq; v – brakdaun; g – jabka; d – bukshin.

Ot tuyoqlarida uchraydigan nuqson va kamchiliklar:

Yassi tuyoq – past, keng bo‘lib, gorizontga nisbatan o‘tkir burchak hosil qilib joylashadi, sassiq tuyoq (strelka) ning atrofi to‘la bo‘ladi. Bu shakldagi tuyoq hamma tipdagi otlar uchun ham nuqson hisoblanadi.

Tikka (stakan) tuyoq – baqayi tik otlarda ko‘p uchraydi. Tuyoqlar stakansimon bo‘lganligi uchun amortizatorlik xususiyati kam bo‘ladi. Shu sababli bunday otlar tez charchaydi.

Oiyshiq va to‘liq tuyoq – ot tuyoqlarining shakli qiyshiq, osti to‘liq va qabariq bo‘lib, yurganda tez zarbalanadi. Bu kamchiliklar og‘ir yuk tortuvchi otlarda ko‘p uchraydi.

Xalqali tuyoq – tuyoqning usti xalqasimon burishmalardan iborat bo‘ladi. Burishmalar ko‘proq bo‘lsa «kirpi» tuyoq ham deyiladi. Xalqasimon burishmalar revmatik yallig‘lanish, «suv tushish» va «yem tushish» natijasida paydo bo‘ladi.

Revmatik yallig‘lanish («suv tushish» va «yem tushish») - otning tuyoq harorati oshib ketadi, oqsaydi. Ishlab qizib ketgan otning sug‘orib to‘xtatib qo‘yish yoki yem bergandan keyin sug‘orish tuyoqning revmatik yallig‘lanishiga olib keladi.

Yumshoq tuyoq - shoxsimon moddasi yumshoq, puk, quruq, sinuvchan va xira bo‘ladi. Bu kamchilik og‘ir yuk tortuvchi otlarda ko‘proq uchraydi.


Yoriq tuyoq – odatda gorizont va ko‘ndalang bo‘lib, ichi, yoni, yuzasi, chochasi va burchagida har xil yoriqlar uchraydi. Yoriqlar noto‘g‘ri taqalash va tuyoqni parvarish qilmaslik natijasida paydo bo‘lishi mumkin.

Sassiq tuyoqning chirishi va rak bo‘lishi - tozalamaslik, noto‘g‘ri tozalash yoki o‘ta ko‘p kesish natijasida sassiq tuyoq chirib, shishib ketadi. Ot oqsaydi, ishga yaramaydi.

Rorer, qurba, shpat, jabka, suyak ustida suyak o‘sib chiqishi, bo‘g‘im shishlari, yassi tuyoq, sassiq tuyoqning rak bo‘lishi kabi nuqsonlar nasldan-naslga o‘tadi. Shuning uchun ular nasl nuqsonlari deb ataladi.

Otlar yoshligidan to'g'ri tarbiyalansa, parvarish qilinsa bunday nuqson va kamchiliklar kam uchraydi.

Tuyaqdagi qayd qilingan nuqsonlar mavjud bo'lgan otlarga II klassdan o'tkazilishi ta'minlanmaydi.



12- rasm. Tuyuq tuzilishidagi nuqsonlar

- a) to'g'ri tuyuq; b) stukansimon yoki g'ol'asimon; v) qiyshiq tuyuq; g) xalqali; d) tor tuyuq.

Otlarning yaramas odatlari

Hovir va ustilarni g'ujishi, suvliqni chaynashi, odamni utishlashi, yemni yutib yuborishi, kamak yoki tezaklarni yutib yuborishi, o'zini tozalashga yo'l qo'yish, choyandozal olib qochish va boshqalar otlarning yaramas odatlari hisoblanadi. Bunday qilib, otlardagi nuqson va kamchiliklari, yaramas odatlari ish qobiliyatini, mahsuldorligini va nasldorlik xususiyatlarini pasaytiradi.

Otlarning tuslari va belgilari

Otlarni qoplab turgan junlarning va terining rangiga tus deb ataladi. Tuslarning turlicha bo'lishida pigmentlar katta rol o'ynaydi. Belgilarni tuslardan his qilish kerak, belgilar dog' yoki parcha holda otning boshi va oyoqlarida

bo'lib, asosiy tusdan o'zining rangi bilan farq qiladi.

Otlarga nasldorlik guvohnomalari, pasportlar yozishda va inventarizatsiya qilishda ularning tus va belgilarini to'g'ri yozish katta ahamiyatga ega. Aksincha, otlarning tus va belgilari hujjatiga to'g'ri kelmay qolishi mumkin.

Otlarning tuslari, belgilari, konstitutsiyasi va ish qobiliyati o'rtasida bog'lanish mavjud. Masalan, ochiq tusga ega bo'lmagan otlarning ochiq otlarga nisbatan tanasi mustahkam, sharoitga chidamli va qoniqarli bo'ladi. Shuningdek, otlar tanasining ko'p qismida pigmentlar yetishmaganlik mustahkam konstitutsiyaga ega bo'lmaydilar.

34

Otlar tuslarini bir – biridan farqlash

Tuslar nomi	Farqlanishi	Xarakteristka
Tim qora		Butun tanasi, oyoqlari, yoli va dumi tim qora bo'ladi, qora junlar bilan qoplangan.
To'riq	Qoramtir to'riq, ochiq to'riq, tilla to'riq	Boshi va tanasi jigarrang yoki malla bo'ladi, yoli, dumi va oyoqlarining bilakuzuk va sarimsoq bo'g'imlaridan pastki qora rangda bo'ladi.
Qora kuyuk	Qora kuyuk	Boshi, tanasi, oyoqlari, yoli va dumi qora bo'ladi, atrofida tumshuk oxirida va chovlarida kuyuk bo'ladi, sarg'ish rangli junlar tovlanadi.
Saman	Malla saman	Boshi, tanasi va oyoqlari ochik malla tusda bo'ladi, atrofi. Tumshuk atrofi tumshuk oxiri, qorni, tuslarining rangi uchgan oqishroq. Yol va qismlari qo'ng'ir va qoramtir junlardan iborat. Orqasidan sag'risi tomon ketgan tasmasi ko'krak va bilakuzuk kismi zebrasimon rangda, ko'krak qismida qoramtir dog' bo'lishi mumkin.
Kulrang (sichqon rangida)	Qoramtir	Tanasi, qo'l yoki sichqon rangida, boshi yoli, va oyoqlarining sakrash bo'g'imidan pastki orqasidan sag'risi tomon ketgan tasmasi ko'krak osti zerasimon targil rangda, ko'krak qismida qoramtir dog' bo'lishi mumkin.
Kulrang (sichqon rangida)	Ochiq kulrang	Tanasi va boshi kulrang, tumshug'i va qorni ochroq. Oyog'ining pastki qora-qizil qarchig'aydan sag'risi tomon tasmasi bor.
Jiyron	Qoramtir, ochiq, tilla	Bosh tanasi va oyoqlari shokolad yoki qizg'ish rangda, yoli va dumi tanaga nisbatan birmuncha ochik, surma yoki ochroq rangda.
Malla	Qora malla, ochiq malla va tilla malla rang	Boshi, tanasi va oyoqlari bir xil, malla rangda bo'ladi, va dumi ham xuddi shu rangda, ba'zan ochiq qoraroq rangda bo'ladi.

ko'k	To'q va ochiq ko'k, jiyron ko'k va sepkil ko'k	Boshi,tanasi va oyoqlari oq va qora junlarning aralashmasidan iborat, yoli, dumi, va oyoqlari tanaga nisbatan qoraroq bo'lishi mumkin. Yoshi o'tgan sayin och ko'k tusli otlarning tusi oqarib boradi, ya'ni ko'k olma, ochik ko'k va oqish rangga aylanadi.
Avvalo biz konstitutsiyasi bo'yicha to'xtalib o'taylik. Ot organizmining anatomik, morfologik, fiziologik tuzilishi uning o'ziga xos xususiyatlari umumiy yig'indisining o'zaro bog'liqligi, irsiy xususiyatlarning nasldan-naslga berilishi o'zaro bog'liqlik rivojlanishining tashqi muhit ta'siriga javob berilishiga konstitutsiya deb aytiladi.

Otlarning konstitutsiyasini o'rganishda hayvon organizmini butun sistem deb qarab, uning keng ko'lamda o'rganish dastlab meditsinada va keyinchalik zootexniyada o'z ifodasini topa boshladi.

Ch.Darvin, Ye.N.Bogdanov va akademik M.F.Ivanovlar zootexniya faniga 5 xil klassifikatsiyani kiritganlar.

1. Qo'pol zich (kurik) – cho'l va o'rmon zotlariga xos bo'lib, terisi qalin zich, suyaklari og'ir, muskullari rivojlangan, yoli dumj o'siq.

2. Qo'pol xom (bush) konstitutsiyali. Gavdasi katta og'ir vazni suyaklari yo'g'on, zichligi mustahkam konstitutsiyali tipga nisbatan bo'sh terisi, qalin, teri osti biriktiruvchi to'qimalar yaxshi rivojlangan, muskullar bo'sh va hajmli teri semirishga moyil, bo'g'imlari yaqqol ko'zga tashlanib turmaydi. Og'ir yuk tashuvchi ot zotlar va ularning duragaylari.

3. Qo'pol quruq konstitutsiyali – boshning kichik bo'yni uzunroq, terisi bog'liqligi, terisi yupqa teri osti biriktiruvchi to'qimalarning sust bo'lganlik bilan xarakterlanadi. (Arab va Axaltaka ot zotlari.)

4. Qo'pol bo'sh konstitutsiyali. Terisi yupqa ingichka va muskullari bo'sh, teri osti biriktiruvchi to'qimalar sezilib turmaydi.

5. Mustahkam konstitutsiyali – akademik M.F.Ivanov konstitutsiyaning mustahkam tushunchasini zootexniya faniga kiritdi.

6. Mustahkam mustahkam otlarda suyaklari mustahkam muskullari zich bo'lganlik bilan biriktiruvchi to'qimalari unchalik yaxshi rivojlanmagan. Terisi bog'liq, og'irliklari adomatlari sezilmaydi.

7. Otlar muhit yaxshilash bilan konstitutsiyani maqsadga muvofiq tomonga o'tkazish uchun otlarni me'yor shart-sharoitlarda parvarish qilish, mashq qilish va paltash ishlarining roli kattadir.

Otlarning tashqi temperamenti konstitutsiya tipining eng asosiy xususiyatidir. Xulq va temperament hayvonning asab sistemasi bilan bog'liqdir.

8. Otlarning I.P.Pavlovning ta'limoti bo'yicha, otlarda asab sistemasi uchun uchta tipi mavjud:

1. Solt tip. Bu tipga mansub hayvonlarda qo'zg'alish jarayoni tez o'tadi, harakatlar kuchli bo'lib, juda asov (chars)dir. Bu tipga salt tip otlari kiradi.

2. Yengil tip. Bu tipga kirgan hayvonlarda qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari barobar rivojlangan. Bu tipga arab otlari kiradi.

3. Flagmatik (kuchal) tip. Bu tipdagi hayvonlarda qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari sust rivojlangan. Ular sharoitga qiyin moslashadi. Hurkak otlar bu tipga kiradi.

4. Yengil tortuvchi ot zotlari shu tipga mansubdir. Otlarning asov, o'jar va tormozlanish jarayonlari noto'g'ri tarbiyalashga bog'liq. Shuning uchun dastlab otlar o'ziga boshlaganda qo'pollik qilmasdan asta-sekinlik bilan harakat qilish kerak. Temperament deganda odatda, otlning tashqi muhit ta'siriga javob berish xususiyati tushuniladi. Temperament jonli (chopqir otlarga xos) va yuvish xususiyati (kuchal otlarga xos) bo'lishi mumkin bo'lgan odatni temperament xususiyatiga ajratish kerak. Odatda, asosan, otlarni parvarish qilish va paltash kerak.

5. Otlarning muhit ta'limoti bo'yicha xo'jalik tiplari. Otlar salmoqligi bo'yicha og'ir va yengil otlar bo'yicha odimlab yurish va tez yo'rtib yurish, yengil odimlab yurish otlari bo'yicha otlar quyidagicha xo'jalik tiplariga: salt tip, og'ir yuk tortuvchi, yengil arava tortuvchi, arava tortuvchi otlar, yukchi otlar, yengil yuk tortuvchi otlar, yengil yuk tortuvchi otlarga bo'linadi.

6. Otlarning muhit ta'limoti bo'yicha salt miniluvchi otlar konstitutsiyasi nafas oluvchi otlar bo'yicha nafas olish sistemasi rivojlanganligi va issiqlik regulyatsiyasi yaxshi bo'lganligi, jonli harakatchanligi va tana tuzilishining yuqori darajada rivojlanganlik bilan xarakterlanadi.

7. Otlarning muhit ta'limoti bo'yicha odimlab yurish otlarining tirik vazni 400-500 kg, oyoqlari uzun, boshi uzun, bo'yig'i og'ir, og'ir orullg'lari keng, sag'risi uzun, bo'yni uzun, qarchig'ayi

baland. Bo'yni uzun, suyakdorligi bo'yicha o'rtacha, kuragi uzun va qiya uzun va qiya, tuyoqlari o'rtacha kattalikda mustahkam, terisi yupqa va katta bilan qoplangan, konstitutsiyasi quruq, qiya kaft aylanasi 18-19 sm, axaltaka zotlari. Og'ir yuk tortuvchi otlarning tirik vazni 700-900 kg, kengligi, gavdasining uzunligi, oyoqlarining kalta va keng qo'yilish xarakterlanadi. Ularning boshi katta, bo'yni qisqa, yoli kam, orqasi sag'risi keng va go'shtdor, ko'pincha qavatma-qavat, oyoqlari yo'g'ay aylanasi 23-25 sm), oyoqlari suyakdor kalta, baqayi kalta, tuyoqlari katta terisi qalin, junlari o'siq, konstitutsiyasi pishiq, ba'zan xom, bo'sh ham mumkin. Harakatchanligi sekin. Biriktiruvchi to'qimalar yaxshi rivojlangan ostida to'plangan yog' qatlami otning umumiy vaznini oshiradi va muvazir aravaga qo'shib foydalanishda yiringlanishdan ehtiyot qiladi. Shu bilan bir vaqtda terisi ostida to'plangan zapas holatdagi yog' qatlami og'ir ishlarda ishlatilgan hollarda tanasini zapas holda to'plangan ozuq moddalar bilan ta'minlash imkon beradi. Shunga ko'ra og'ir yuk tortuvchi otlar konstitutsiyasi ovqat haddidan oshirish tipidagilardan farq qiladi. Harakatchanligi sekin, bu esa salt yurib barcha ishlarni qadamlarini bir me'yorda bosish imkonini beradi.

Aravaga qo'shilgan ot oldiga qarab yurishda o'ziga tushadigan og'ir o'zining orqa oyoqlariga tayangan holda gavdasini oldinga qarab itarish bilan harakatlanuvchi narsalarga nisbatan ko'rsatiladigan qarshilikni yengil harakatlanadi. Og'irlik tushadigan markazni oldinga qarab amalga oshirish bo'yiga qanchalik yaqin bo'lsa, shunchalik oson kechadi. Bu tipga og'ir yuk tortuvchi ot zotlari kiradi.

Yengil yuk tortuvchi yo'rtoqi ot zotlarining tirik vazni, gavdasining uzunligi, suyakdorligi bo'yicha o'rtacha bo'lishi, tana tuzilishi o'ta quruqligi va harakatchanligi yaxshiligi bilan xarakterlanadi. O'z xususiyati bilan salt miniluvchi va og'ir yuk tortuvchi ot zotlari o'rtasidagi o'rtacha hisoblanadi.

Yengil yuk tortuvchi, yo'rtoqi ot zotlarining tirik vazni 400-500 kg tashkil qiladi, bo'yni uzun, qarchig'ayi baland va sag'risi keng, oyoqlari yo'g'ay kaft aylanasi 19-20 sm bo'lishi bilan xarakterlanadi. Orlov va rus yo'g'ay zotlari kiradi.

Arava tortuvchi otlar – qishloq xo'jaligida foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, ishga eng yaxshi qobiliyatchanligi bilan boshqa ot zotlaridan ajralib turadi. Ularda gavda tuzilishi birmuncha cho'ziq, tanasi o'ziga xos, muvazir konstitutsiyali, oyoqlari ham o'rtacha yo'g'onlikdadir, kaft aylanasi 21-22 sm bo'lishi bilan xarakterlanadi. Tirik vazni 450-600 kg kechadi. Tori, jmuq va arava tortuvchi zotlar misol bo'la oladi.

Salt miniluvchi yuk otlar o'rtacha og'irlikda (350-450 kg) bo'lib, balandlikda (qarchig'ay balandligi 150-155 sm va oyoqlarining quruq bo'lishi bilan aylanasi 18-20 sm bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu tipga asosan tog' otlari kiradi.

Salt minilib arava tortuvchi otlar o'z xususiyatlari bilan salt miniluvchi arava tortuvchi ot zotlari o'rtasidagi oraliq tipdir.

Oldingi chap oyog'i bilan orqa chap oyog'i uning oyog'i bilan orqa oyog'i baravar ko'tarilib bosiladi. Salt miniladigan yengil otlar uchun


Ushbu qisqartirilgan variantlardan biridir. 1609 m ni, 1,52 minutda yo'rg'alab
hisoblanadi.

1.3. Otlarning (allyur) yurish usullari

Otlarning yurish usullari allyur deb ataladi.

Odimlab yurish otning eng sekin yurishi hisoblanadi. Bu og'ir yuk
tashish uchun eng tipik xususiyatlardan biridir. Odimlab yurganda oyoqlarning
uzunligi va boshlabi har xil bo'ladi. Oldingi oyoq ko'tarilgach, so'ng orqa gal
uzunligi oldingi chap oyoq va orqa ung oyoq ko'tariladi va hokazo. Bunday
yurishda har oyoq ko'tarilganda 3 tasi albatta yerda bo'ladi. Odimlab yurish 2
tashish usulidan biri bo'lib, tez odimlab yurish va tez odimlab yurish. Tez odimlab yurishda qadam uzun
va orqa oyoq oldingi oyoq izidan o'tib tushadi. Bunday yurishda ot ikkala
oyoqni parallel buyanib ikkalasini ham qariyb baravar ko'tarib tashlaydi, bu
yurishda otning yurishi ko'proq yo'rg'a yurishga o'xshab ketadi.

Tez odimlab yurganda soatiga 4-5 km, odimlab yurganda 7 km yo'l



29 - rasm.


Yo'rtish odimlab yurishga nisbatan tezroq bo'lib, oldingi o'ng oyog'ini ko'tarilganda orqa chap oyog'i ham ko'tariladi.

Trot-sekin (qadam kengligi 2sm) 1km yo'lni 4,5-5 minutda bosib o'tadi.

Razmashqa-trotga qaraganda tezroq 1km yo'lni 2,5-3 minutda bosib o'tadi.

Max-qadamni keng tashlab yo'rtish, 1km masofani 2-2,5 minutda bosib o'tadi.

Juda tez yo'rtish- 1 km yo'lni 1 minutda bosib o'tadi.




30 - rasm.

Yo'rg'alash. Bunda ot oldingi va orqa oyoqlarini parallel ravishda ko'tarilgan holda ko'tarib tashlaydi. Oldingi chap oyog'i bilan orqa chap oyog'i oldingi o'ng oyog'i bilan orqa o'ng oyog'ini baravar ko'tarib bosadi. Salt miniladigan yengil otlar uchun yo'rg'a yurish eng qimmatli xususiyatlardan biridir. 31-rasm 1609 metrni 1.52 minutda yo'rg'alab bosish jahon rekordi hisoblanadi.

Chopish (galop). Bu otning tez yurishi yoki alohida - alohida sakrash hisoblanadi, sakrash orqa oyoqlarining biridan boshlanadi: oldingi ikki oyog'ini birgalikda ko'tariladi. Qisqa vaqt to'rt oyog'i ham yerga tegmay havoda qoladi va sakrash yana orqa oyog'idan boshlanadi. Maxsus poygalarda sof qonli chopish

1 km yo'lni bosadi. Eng qattiq chopishni karer deb ham yuritiladi (1 km ni 53 sekundda chopib o'tish jahon rekordi).



31 - rasm.

3.4. Otlarni suratga olish

Otlarning eksteriyerini o'rganish va baholash uchun ularning suratlaridan foydalanish U. Ya. Anjukov va B.N.Soshaloskiy (1976) ma'lumotlariga ko'ra o'tirish va chopishning eksteriyer xususiyatlarini suratga olish birinchi marta chop o'tirish «Kommunozvodstvo i oxota» jurnalida Lebed laqabli Orlov otining suratli aks etgan maqola e'lon qilindi.

Chop o'tirish qishloq xo'jalik hayvonlarini keng ko'lamda amalga oshirila o'tirish uchun. Professor N.N.Kuleshov fikriga ko'ra qishloq xo'jalik hayvonlarini o'tirish uchun suratlardan foydalanish juda muhim ahamiyatga ega. O'tirish uchun qishloq xo'jalik hayvonlarini o'tirish uchun suratga olish va boshqa hayvon tana tuzilishi bilan taqqoslash

Otlarni zootexniya qoidalariga amal qilgan holda to'g'ri surat uchun ma'lum qoidalarga amal qilish kerak. Birinchidan, otlarni tana shaklini suratga olishda fotokamera obyektivi va hayvon oralig'idagi hayvon tana uzunligidan uch baravar uzoqlikda bo'lishi kerak. Ikkinchidan, fotokamerani obyektivi hayvonning umumiy tana uzunligini o'rtasiga qo'yib bo'lishi kerak. Uchinchidan, otlarni profilini suratga olishda fotokamera obyektivi tanasini qoq o'rtasiga qaratilgan bo'lishi kerak. To'rtinchidan, otlarni sur'atga olishda plenka chetlari otlarni tanasiga parallel holatda joylashgan bo'lishi kerak.

Odatda otlarning chap tomonidan sur'atga olinadi, agar bo'ynidagi junlari bo'ynini qoplab olgan bo'lsa, o'ng tomonidan sur'atga olinadi. Otlarni profilini suratga olishda ular erkin holda hamma to'rt oyog'iga ham tayanch va hamma oyoqlari ko'rinib turgan bo'lishi kerak. Otlarni tanasini cho'zilib yoki aksincha tanasini qisqargan paytida yoki orqasini bukkan holda suratga taqib olinadi.

Otlarni eksteryerini suratga olishda 45 gradus burchak ostida tomondan qo'yilgan yoritgichlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Qora otlarni suratga olishni oq devor yoki parda qarshisida va aksincha, oq otlarni olishni qora parda qarshisida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Otning eksteryeri deganda nimani tushunasiz.
2. Eksteryer to'g'risida qiziqqan kishilar va olimlar to'g'risida gapirib berib.
3. Otlarning interyeri to'g'risida qisqacha tushuncha bering.
4. Otlarning eksteryeriga qarab baholashning necha xil usullarini bilib.
5. Salt miniluvchi, yo'rtoqi va og'ir yuk tortuvchi ot zotlarining tuzilishi bo'yicha farqni ayting.
6. Qaysi ot zotlarida qaysi ko'rsatkichlariga qarab chopqirligini bilib mumkin.
7. Otlarning konstitutsiyasi deganda nimani tushunasiz.
8. Otlarning xo'jalik tiplari necha tipga bo'linadi.
9. Otlarning konstitutsiya tiplarini tushuntiring.
10. Akademik I.P.Pavlovning ta'limoti bo'yicha otlarning sistemasining nechta tipi mavjud.
11. Otlarning yurish usullari necha xil bo'ladi.
12. Otlarning yurish usullarining bir-biridan farqini ayting.
13. Otlarning eksteryer kamchilik vav nuqsonlari, ularning ish qobiliyatini qayta nasl qiymatlariga, sotish bahosiga ta'sirini ayting.
14. Har xil zot va tipdagi otlarning ichki tuzilishi farqini tushuntirib.
15. Otlarning tusi to'g'risida tushincha bering.
16. Otlarning belgisi deganda nimani tushunasiz va qanaqa belgilari.
17. Otlarning yoshini aniqlash bo'yicha tushuntirib bering.

IV BOB. YILQICHILIKDA TAKROR ISHLAB CHIQRARISH

Takror ishlab chiqarishning asosiy maqsadi otlarning bosh sonini ko'paytirish bilan bir qatorda sifat jihatidan yaxshilashni ham o'z ichiga oladi. Otlarning xususiyatlarining sifati mavjud bo'lgan ayg'ir va biyalarning zotiga bog'liq. Otlar ko'paytirilishida, ayniqsa, ayg'irlarning yuqori sifatli bo'lishiga ko'proq e'tibor berish kerak. Chunki mavsumda har bir ayg'ir bilan ko'plab biyalarni otalantirish mumkin.

4.1 Biyalarning o'ziga xos biologik xususiyatlari

Har bir biya zooveterinariya qoidasi asosida oziqlantirilsa, har yili bittadan yoki bir nechta imkonlik. Takror ishlab chiqarish yoki biyalarni o'ziga xos biologiyasi bo'yicha 3-4 davrni o'z ichiga oladi:

1. Biyalarni otalantirish;
2. Ho'g'oz biyalarni yaxshi tarbiyalash;
3. Ho'g'oz biyalarni tug'dirish;
4. Otolarni parvarishlash.

Biylarning o'ziga xos biologik xususiyatlari (kuyukish, jinsiy sikl va uning xususiyatlari).

Biylarning o'ziga xos xususiyatlarini bilish ularni o'z vaqtida otalantirish, ho'g'ozlik va tug'ish davrida butun imkoniyatlar yaratishni o'z ichiga oladi.

Biyalarni otalantirish jinsiy aloqa vositasi bilan amalga oshiriladi. Biyalarning otalanishi uchun ayg'irning jinsiy urug'i biyaning jinsiy organiga borib kelishi va uni biyaning tuxum hujayralari bilan qo'shilishi kerak.

Bu holatda zigota naslning «boshlang'ich» qismi deb ataladi, zigotadan tashqari homila rivojlanadi. Tabiiy urug'lanishning bachadon tipi otlarni ko'paytirishning xarakterli biologik xususiyati hisoblanadi.

Aloqa davrida ayg'ir urug'i bevosita bachadonga, so'ngra bachadon va tuxum yo'li muskullarining qisqarishi va spermatozoidning aktiv harakati natijasida tuxum yo'lga tushadi. Tuxum hujayrasining otalanishi vujudga keladi. Tug'ulib biyaning tuxumdonida urg'ochi jinsiy hujayralar yetilgan paytdan boshlab...

Yetilgan tuxum hujayrasi tuxumdon pufakchasidan chiqib tuxum yo'llari orqali bachadon shoxlariga kiradi. Tuxum hujayrasi tuxumdonidan chiqqandan keyin biya qochirilgan qochirilmaganidan qat'iy nazar kuyukish to'xtaydi.

Kuyukish (jinsiy moyillik) – deb biyaning shunday fiziologik holatiga ataladi, biya o'ziga ayg'irni yaqinlashtiradi, uni o'ziga iring'ishga xohishlik bildiradi. Biya tuxumdoni garmonlarining ta'sirida kuyukadi, natijada jinsiy xususiyatlar qisqaradi.

Bachadonning shilimshiq pardasi epiteliyal hujayralar o'sib yetiladi, undagi homila rivojlanadi. Bez sekresiyalari kuchayadi. Bachadon bo'yni kanali yopiq tashkil topadi. Kanaldagi sekretor epiteliysining ish faoliyati oshadi, bachadon bo'yni kanaliga kelib tushgan shilimshiq modda suyuladi va u qinga tushadi.

Otolarni pufakchalaridan tuxum hujayralarining ajralib chiqish jarayoni ko'rsatib beriladi. Tuxum hujayralarining ajralib chiqishiga asosan nerv...

sistemasi bilan boshqariladigan gipofizning ichki sekresiyasi sabab bo'ladi. Gine pufakchalari yorilgandan so'ng tuxum hujayralari ajralib chiqmaguncha biyalar urug'lanmaydi. Me'yoriy kuyukish 5-7 kun davom etadi. Agar u otalanmagan bo'lsa, 10-16 kundan keyin yana kuyukadi. Shunday qilib 21-22 kun davom etadi.

Biyaning jinsiy organiga tushgan spermatazoidlar tuxum hujayrasini 24-36 soat mobaynida urug'lash qobiliyatiga ega, tuxumdondan chiqqan tuxum hujayrasi esa ovulyasiyadan so'ng 5-6 soat davomida urug'lanadi. Agar biya kuyukishga kelishi bilanoq qochirilsa, ovulyasiya sodir bo'lmasdan burun spermatazoidlar halok bo'lishi, bordi-yu kechiqb qochirilsa, tuxumdondan chiqqan hujayra biya qochirilmasdan avvalroq nobud bo'lishi mumkin. Biyaning kuyuka boshlashi ikkinchi, to'rtinchi va oltinchi kunlarida qochirish tavsiya etiladi.

Yangi tuqqan biyalarning kuyukish muddati ayniqsa qish davrida ratsionel karotin yetishmaganda juda cho'zilib ketadi va uzoq vaqtgacha ovulyasiya sodir bo'lmaydi. Bunday biyalarni yerda ko'k o't o'sib chiqquncha qochirmay turish kerak.

Biyalarning kuyukkanligi sinovchi ayg'irlar yordamida aniqlanadi. Qisir va birinchi qochiriladigan biyachalar kunora ayg'irni yoniga olib boriladi va uning qiliqlariga qarab kuyukkan-kuyukmaganligi aniqlanadi. Tuqqan biyalar 5 kundan keyin qochirilishi mumkin.

Agar urug'langan biyalar qaytarib kuyukmasa, 30-40 kundan so'ng ularning bo'g'ozligi rektal (to'g'ri ichakdan qo'l solib) usulida aniqlanadi. Qisqirib deb topilganlari yana qaytadan ayg'irga qo'yiladi.

Biyalarning bo'g'ozligini aniqlashda ba'zan garmonlar usulida foydalanish ham mumkin. Bu usul bo'g'ozlikni 45- kundan 90-kuniga qadar biyaning qon zardobida jinsiy bezlar bo'lishiga asoslanadi.

Jinsiy sikl

Bir kuyukish bilan ikkinchi kuyukish orasidagi muddat **jinsiy sikl** deyiladi. Kuyukish biyalarda boshqa qishloq xo'jalik hayvonlariga nisbatan bir muncha ko'p 144 soat, ona cho'chqalar 48 soat, sigirlarda 18-20 soat, qo'yalarda to 20 soatgacha kuyukish davomiyligi va uning darajasi biyaning alohida xususiyatiga, fiziologik holatiga, sog'lomligiga, yoshiga va boqish sharoitiga va ob-havoning haroratiga bog'liq.

Mart oylarida kuyukish (kamroq bo'lib) davomiyligi 7-15 kun, aprel-may oylarida 5 kun davom etadi. **Biyalarda kuyukishning quyidagi darajalari mavjud:** 1 – darajali kuyukish – (K^1) kuyukishning dastlabki davri bo'lib, ayg'ir yaqinlashganda biya jim turadi. 2 – darajali kuyukish – (K^2) ayg'irni biya o'ziga yaqinlashtiradi, dumini ko'taradi, jinsiy organlarini tashqi muskuli qisqaradi. 3 – darajali kuyukish – (K^3) ayg'ir yaqinlashganda oyoqlari keng qo'yiladi va siyadi. 4 – darajali kuyukish (K^4) ayg'ir yaqinlashganda biya engashadi va irg'iganib to'sqinlik qilmaydi.

Agar ayg'ir yaqinlashganda tepsa, bir kun kuyukishning o'tganligini bildiradi. Biyalarda 3-4 darajali kuyukish paytida qochirish yaxshi natija beradi. Jinsiy sikl 3 davrga bo'linadi: qo'zgalish, tormozlanish, tenglashish.

Oo'zgalishda jinsiy a'zolarida borgan sari o'zgarish kuchayadi, folikulalar yetiladi. Bachadon va qindagi shilimshiq pardalar o'sadi, barcha jinsiy a'zolar

bachadon bo'yni kanali ochiladi. Bachadon bezlari ko'plab shilimshiq bo'lib chiqaradi. Natijada to'rtta asosiy refleks, ya'ni umumiy uyg'onish, jinsiy moyillik va ovulyasiya yuzaga keladi.

Yaqinlashish davrida yorilgan folikulalar o'rmda sariq tanalarning barcha jinsiy a'zolarining qizarishi va bachadon bezlarining so'nishi, qo'zgalish bilan biyalar ayg'irlarni o'ziga yo'latmaydi.

Yaqinlashish davri – yangi folikulalar yetilishining boshlanishi, sariq yetilish bilan shimilib ketishi, jinsiy moyil va kuyukishning to'xtashi bo'ladi.

Biyalarda o'tsonalarda bog'lab boqishda qochirish 15 fevraldan 15 martlarda boqishda 15apreldan 1avgustgacha o'tkaziladi. Lekin bu boqish sharoitlariga qarab o'zgarishi mumkin.

Yaqinlashishda me'yoriy kuyukish 5-7 kun davom etadi. Kuyukishning davri va uning darajasi biyalarda o'zgarib turib u biyaning fiziologik holatiga, boqish sharoitiga va asrashga bog'liqdir.

Qisir – biya ayg'irni o'ziga yaqinlashtirmaydi, quloqlarini dikkaytirib oyoqlari bilan tepadi.

Biyalarni sinash. Hali qulunlamagan hamda yosh biyalarni, birinchi marta qochirishda, qochirish mavsumi boshlangunga qadar kunora, birinchi marta qulunlagandan keyin beshinchi kundan boshlab qochirishda bir kuni sinaladi.

Biyalarni qochirishga yoki sun'iy urug'lantirishga tashqi belgilari uchinchi darajali kuyukishga yetganda qo'yiladi, bu xildagi qochirish biyalar qochirishga qadar tashqi belgilari bo'yicha har 24-28 soatda takrorlanib

qochirish tugagandan keyin 9-10 kuni qochirilgan va sun'iy usulda qochirilgan biyalar qayta sinalib ko'riladi. Bu holdagi sinash biyalarning qochirishga qadar bo'lib belgilangunga qadar davom ettiriladi. Agar biya qayta qochirilgan bo'lsa, odatdagi tartibda qochiriladi.

Otlarning jinsiy yetilishi va qochirish yoshi

Otlarda jinsiy yetilish 1,5 – 2 yoshlarida sodir bo'ladi. Otlarning umumiy yetilish davri 3 va 5 yoshgacha davom etadi. Bu ot zotiga bog'liq. Otlarning zotiga qarab kamida 3 va 5 yoshga yetganda qochirishga qo'yiladi. Ilg'or otlarda buni harbiy yilqichilik xo'jaliklariga biya va ayg'irni fiziologik holatiga keyin quyidagi yoshlarda: og'ir yuk tortuvchi zot otlarning yetilishi 3-4 yoshda, biyalarni 3 yoshda, yo'rtoqi va salt miniluvchi zot otlarini 4-5 yoshda, biyalarini 3-4 yoshda qochirishga qo'yilishi tavsiya etiladi. Jinsiy jihatdan eng kech yetiladigan otlar uyur holda boqiladigan otlar hisoblanadi, eng tez yetiladigan og'ir yuk tortuvchi hamda yo'rtoq otlardir. Odatda jinsiy jihatdan tez yetiladigan otlar tez rivojlanadi va qochirishga qo'yiladi. Ayg'irlar esa biyalarga qaraganda ancha uzoqqa cho'ziladi. Naslli otlarda biya yetilish hamma zotlarda bir xil emas. Yo'rtoqi va salt minuvchi otlarda 12-16 yosh, og'ir yuk tortuvchi zotlarda 16 yosh.

12-16 yoshda eng yaxshi ayg'irlardan sifatli sperma berguncha to 25

yoshgacha foydalaniladi.

Qimmatli naslli biyalardan bola olish qobiliyatigacha, ya'ni yoshgacha foydalanish mumkin.

4.2. Yilqichilikda qochirish usullari va bir ayg'irga to'g'ri keladigan biyalar soni

Yilqichilikda qochirishning quyidagi usullari qo'llaniladi: qo'lda ichida, erkin qochirish, uyurda qochirish, sun'iy qochirish.

Qo'lda qochirilganda ayg'ir yordamida yoki sinovchi tomonidan aniqlanadi. Qo'lda qochirilganda qochirilgan vaqti hisob-kitob Bu usuldan otxonalarda boqilganda foydalaniladi. Kuyukkan biya maxsus binoda yoki otxonaning tashqarisidagi tekis joyda qochiriladi. Qochirishda ayg'imi tepib yubormasligi uchun biyaga xavfsizlik tasmasi kiygiziladi. Irig'iyotgan paytda biyalarni qochirish joyining atrofi o'ralgan bo'lishi muvofiqdir. Ana shu tartib qoidalarga amal qilinmasa, ayg'irlarni sodir shovqinga chalg'itib qo'yish va ana shu uni qo'rqitib yuborish va biya qochirishga moyilligini yo'qotib qo'yishga sabab bo'ladi.

Qochirish uchun olib kelingan biyaning dumini qochirish paytida jinsiy a'zosini qillar bilan zararlanmasligi uchun biyaning dum asosi biya o'rab qo'yiladi. Biya jinsiy organining tashqi qismi iliq suv bilan yuqdir yuviladi. Buning uchun toza kul rang yoki oq paxtadan foydalanib, u jinsiy jinsiy a'zogagina ishlatiladi. Biyani qochirish paytida uning emadigan qochirish paytida ayg'ir tegib ketmasligi uchun va biya ko'rib turishi uchun oldida ushlab turiladi.

Otalanish yaxshi bo'lishi uchun biyaning old tomoni pastroq bo'lish boshini ko'tarib turishiga e'tibor berish kerak. Agar birinchi irg'ishda jinsiy sodir bo'lmasa, ayg'ir 15-20 minut yetaklab yurgiziladi va to'liq ereksiyada qayta irg'itiladi. Kuyukkan biyalar qochiriladigan kuni va qochirilgandan kunlarda og'ir ishlarda ishlatmaslik, tez choptirmaslik kerak. Jinsiy aloqada biya tinch turmasa, u bachadon bo'yinchasining to'liq ochilmagan kuyukishni boshlanmaganligi yoki tugallanmaganligidan darak beradi. Qochirish ana shu usulda olib borilganda har bir nasldor ayg'irga 25-30 bosh biya boqil qo'yiladi. (7-12 yoshli ayg'irga) 3-4 yoshli ayg'ir bo'lsa 12-15 biya va shunday yoshi 14 dan katta bo'lgan ayg'irlar uchun ham 12-15 bosh berkitiladi.

To'siq ichida erkin qochirish. Bunday qochirishda xillangan boqil devor yoki taxta bilan o'ralgan g'ov ichiga kiritiladi va ayg'ir kuyukkan biya o'zi izlab topadi. Bir-ikki marta irg'igandan keyin ushlab bog'lanadi. Agar faqat bir biyaga chopaverib kuyukkan boshqa biyalarga qaramasa, birinchi qochirilgan biya ikkinchi kuni g'ov ichiga kiritilmaydi. Bir ayg'irni kuniga marta ertalab va kechkurun biyaga qo'yib olish mumkin.

G'ov ichiga bir yo'la 15-20 biya qamaladi. Bu usul bilan ularda biya biyalarni to'liq otalantirish va nasldor ayg'irlardan maksimal foydalanish imkon beradi. Eng muhimi qochirishda aniq hisob-kitob ishlari olib boriladi. Mav

1980-yil dekabr oyida 23-25 bosh va qari ayg'irlarga 15-20 bosh biyani berkitib

1- usulda o'zlashtirish. Bu usul bilan bir o'rta yoshli ayg'irga 25 biya, bir yoshli ayg'irga esa 12-15 bosh biya berkitiladi. Ayg'ir biyalar bilan bir vaqtda otalantirish va biyalar kishilar yordamisiz shu ayg'irdan qochiriladi. Bu usulda boshqa ayg'ir qo'yilmaydi. Agar boshqa ayg'ir qo'shib qolsa, natijasi qabul qilinmaydi. Zo'rlik qilgan shu uyumi egallaydi. Bunda kam mehnat bilan biyalar ko'proq qochadi, me'yor o'tlanadi. Qochirishning bu usuli katta korxonalarda qo'llaniladi.

Ushbu usulda biyalarini to'g'ri olib borish uchun uyurlarni biyalarning me'yoriga, shaxsiyatiga va klassik darajasiga qarab tashkil qilish, biyalarga ayg'irni qo'yish va ayg'irlarni charchab qolishidan asrash kerak.

Ushbu usulda qochirayotgan vaqtda ayg'ir biyalarga nisbattan bir klass yuqori

2- usulda o'zlashtirish. Bu usul nisbatan progressiv hisoblanib, bir ayg'irning bir kishiga ko'p biyani (150-150) urug'lantirish mumkin. Ayg'ir bir irg'ishda bir kishiga beriladi. Biyani otalantirish uchun esa 20-40 ml urug' yetadi.

Ushbu usulda ayg'irning bir irg'ishi davomida bergan urug'i bilan uni suyultirmasdan 3-4 oy davomida 15-20 biyani qochirish mumkin. Shunga ko'ra bu usul katta korxonalarda qo'llaniladi, yaxshi samara beradi: nasldor elita klassli biyalar maksimal foydalanishdan, ayg'irlar sonini me'yor tutib turishda, har xil korxonalar uchun biyalarini olishda, jinsiy organlari kasallangan taqdirda ham biyalarini olishda ularni klassli urug'i bilan uzoqdagi biyalarni otalantirishda, biyalarini to'g'ri olib borishda katta ahamiyatga egadir.

Biyalarining otalantirish jarayoni qochirish kompaniyasining eng muhim vazifasidir. Bu ko'rsatkichning yuqori darajada bo'lishi, biyalarning me'yoriga, ayg'irlarning jinsiy aktivligiga bog'liq.

Bu usulda, qadim kompaniyasini to'g'ri tashkil etish mutaxassislarining me'yoriga bog'liq.

Biyalarini qochirishdan maqsadi foydalanilgan naslli ayg'irlar kamchilik va me'yor bo'lmish bo'lishi lozim. Qochirish kompaniyasi boshlanishidan bir oy oldin ayg'ir va biyalar zoveterinariya ko'rigidan o'tkaziladi.

Biyalar va shoychi ayg'irlarni qochirish kompaniyasi boshlanishiga 1,5 oy oldin qo'lda difuzi konsentrat ozuqalar bilan boqishga kirishiladi. Biyalarni qochirish usuli jadvalda berilgan.

Yilqichilikda qochirish usullari va bir ayg'irga to'g'ri keladigan biyalar soni

Qochirish usullari	Ayg'irlarning yoshi	Biyalarning soni	Kunda	Mavsumda
Qo'l yordamida qochirish	To'liq yoshi (7-12),	25-30	1-2	175
	yosh va qari ayg'irlar	12-15	1	75
To'siq ichida qochirish	To'liq yoshli yosh va qari ayg'irlar	25-35 15-20	1-2 1	175 75
	Uyurda qochirish	To'liq yoshli yosh va qari ayg'irlar	20-25 12-15	- -
Sun'iy qochirish		150	1	-

Biyalarni qochirish mavsumida qochirish usullari, ayg'irlarning yoshi katta ta'sir qiladi. Qochirishning hamma turlarida to'liq yoshli ayg'irlar, yosh va qari ayg'irlarga nisbatan ko'p biyalarni qochiradi. Sun'iy qochirishda ayg'irlarning yoshi emas, ammo ayg'irdan olingan spermaning miqdori, sifati muhim rol o'ynaydi.

Ayg'irlarning ishlab chiqarishdagi qobiliyatchanligi

Ayg'irlarning qobiliyatchanligi spermasining sifatiga, aktivligiga, hayvonning sog'lomligiga bog'liq. Ayg'irlarning ishlab chiqarishdagi qobiliyatchanligi uning o'tgan yildagi amaliy naslchilikdagi foydalanish hisob natijalarining amaliy natijasi bilan belgilandi. Shuningdek ayg'irlarning klinik ko'rigidan o'tkazib, uning jinsiy organlari tekshiriladi.

Sperma sifati

Ayg'irlarning spermasini baholashda spermatozoidlarning aktivlik rangi va hidi bo'yicha baholanadi. Qochirish kompaniyasi oldindan kuniga bir marta uch kun davomida (kuniga) qochirish kompaniyasi davomida kamida oyiga bir marta tekshiriladi. Ayg'irning ejakulyat hajmi har bir ejakulyat baholanadi. Ejakulyat hajmi 15 ml.dan to 120 ml.gacha. Oldin rangi, hidi va hajmi aniqlanadi. Ayg'irning me'yor holatdagi spermasi kul rangsimon oq tusda, hidsiz bo'ladi, spermada yiring, qon va boshqa aralashmalarga e'tibor beriladi. Konsentrasiyaga, harakatchanligiga va spermaning qanchalik hayotchanligiga qarab baho beriladi. Spermaning hajmi (ml hisobida) darajalarga bo'lingan silindr yoki stakanda, uning konsentratsiyasi standart bo'yicha, harakatchanligi ko'zda chamalab aniqlanadi. Spermaning o'rtacha ko'rsatkichini kuyukligi bo'yicha sperma kuyuk 1mln.dan 300 mln. va ziyod dona, o'rtacha 150-250 mln. va siyrak bo'lganda 150 mln. donadan kam sperma bo'ladi. Siyrak sperma yaroqsiz hisoblanadi. Spermatozoidlarning harakatini kuzatish uchun sperma 39-40°S haroratda mikroskop ostida olg'n intiluvchi aktiv sperma kuzatiladi. Sperma hajmi gradus darajalangan menzurkada

spetsializatsiyalarning harakati esa mikroskopda 10 ballik sistemada

qochirilgan spermatozoidlarning hammasi (100%) to'g'ri chiziqli ilgari lanma harakatga ega bo'lsa, sperma 10 balldan yuqori baho oladi, 9 balli spermatozoidning 90% to'g'ri chiziqli harakat qilganda beriladi va hokazo. 8 balligacha bo'lsa 5 balldan kam baho olgan sperma fiziologik jihatdan qochirilgan bo'lmaydi.

Naslil ayg'irlarni oziqlantirish va saqlash

Naslil ayg'irlar va sinovchan ayg'irlar oddiy denniklarda taqasiz oziqlanish uchun holda boqiladi. Denniklar uzunligi 320 sm, kengligi 320 sm, balandligi 100 sm bo'lishi kerak. Otxonani yorug' va toza bo'lishi otlar uchun muhim bo'ladidir. Yorug'likda otlar organizmida modda almashinuv tezlashadi. Otxona quruq va shamol esmaydigan bo'lishi zarur. Derazalar 1.5-2 m balandlikda quriladi. Nasldor otlar turadigan otxonalarda 8-10^oS bo'lishi kerak.

Naslil ayg'irlarni oziqlantirishni to'g'ri tashkil qilish qochirish uchun muvaffaqiyatli yakunlanishining garovidir. Chunki ayg'ir oziqlanish sifatini beritadigan ozuqaning miqdori, sifatiga bog'liq. Ayg'irlarni oziqlashda asosida oziqlantirish, ishni namunali tashkil etish, jinsiy oziqlanishni ta'minlashga olib keladi. Nasldor ayg'irlarning ratsionida yaxshi oziqlanish uchun quyidagilarni pichanlar, arpa yormasi, sabzi, beda uni, go'sht-suyak uni, otlar uchun va boshqa oqsil, vitaminlar hamda mineral moddalarga boy bo'lgan oziqlanish kerak. Haddan tashqari semirib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Oziqlanishda Lizin tuzi bo'lishi kerak. Ayg'irlarning 100 kg tirik vazni uchun oziqlanishga 2 kg ozuqa birligi, (har ozuqa birligida 110-130 gr hazm qilinadigan parda, 6 gr Sa, 5gr R, va 5 mg karotin) to'g'ri kelishi kerak.

Ayg'irlarning jinsiy imkoniyatlarini ko'paytiruvchi stimullardan biri havoning issiq, yomon havo, doimiy harakat va cho'miltirishdir. Havoning issiq va yomon havo ayg'irlarni yayratishga chiqarish taklif qilinmaydi. Yoz oylari ayg'irlar 10-12 minut 14-15^oS issiqlikdan past bo'lmagan suvda cho'miltirish kerak. Har kuni tozalash va bir oyda bir marta tuyoqlarini ko'rib o'sgan bo'lsa, ayg'irlar qochirilgan bo'lmaydi. Bir kunda 1-2 marta biyalarga qo'yib olish mumkin. Bir oyda bir kunda beriladi.

4.3. Qochirish kompaniyasini tashkil qilish va uni o'tkazish

Qochirish kompaniyasini muvaffaqiyatli tashkil qilish uchun ayg'ir va sinovchan otlar mavsumiga yaxshi tayyorlash kerak. Buning uchun quyidagi amallar amalga oshirish kerak:

- 1) Qochirish planini tuzish (juftlash plani);
- 2) Qochirish punktlarini qurish uchun joy tanlash;
- 3) Harbiy jihatidan tekshirilgan nasldor ayg'irlarni ajratish;
- 4) Ayg'ir va biyalarni qochirishga tayyorlash;
- 5) Kuyrukga kelgan biyalarni ajratib olish va va ularni urug'lantirish

- 6) Olingan natijalarni hisobga olib borish;
- 7) Qochirish kompaniyasi uchun kadrlar tayyorlash.

Qochirish kompaniyasini asosiy ko'rsatkichi bo'lib, biyalarning oshirish protsessi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichning yuqori bo'lishligi biyalar serpushtan ayg'irlarning jinsiy aktivligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun juftlash (ma'lum klassik ayg'irga ma'lum klassdagi biyani birkirish) to'g'ri tuzilish ahamiyatga ega. Juftlash rejasini tuzishda har bir ayg'irga berkitiladigan qadrlar soni, qochirish punktlarining soni va ishlovchi kadrlar soni aniqlanadi.

Qochirish kompaniyasi qatnashadigan nasldor ayg'irlar ilgariroq qochirish Ular o'zlarining xo'jalik va biologik xususiyatlari bilan qochirish uchun ajratilgan biyalardan ustun turishlari kerak. Ularda nasldan-naslga o'tuvchi xususiyat kamchiliklar bo'lmasligi kerak. Qochirishdan oldin va qochirish davri ayg'irlarining ularning urug'ining sifati tekshirib boriladi. Nasldor ayg'irlardan har bir ayg'ir punkti uchun hech bo'lmaganda bir bosh sinovchi ayg'ir ham ajratiladi. Nasldor sinovchi ayg'irlar qochirish kompaniyasi boshlanishiga 1-1,5 oy qoldi davri boshlab yaxshi ozuqa sharoitida boqila boshlaydi. Qochirish kompaniyasi tugagunga qadar ularning semizligi P kategoriyada bo'lib, har kuni ma'lum oshirish mosion berilishi kerak.

Balog'atga yetgan nasldor ayg'ir qochirish kompaniyasi davomida biyalar ikki marta chopgandan so'ng 10-12 soat dam olib, ikkinchi marta chopiladi. Har 7 kundan so'ng ayg'irga dam beriladi. Mavsumda bir va katta yoshli ayg'ir kamida 35 biyani otlantirishi kerak, 3-4 yoshli ayg'ir birinchi marta qochirish qatnashadigan yosh va qari ayg'irlarga 12-15 bosh biya berkitiladi.

Qochirishdan bir oy oldin ayg'ir va biyalarning kasalliklari tekshiriladi. Qochirishga faqat sog'lom va hech bo'lmaganda o'rtacha semizlikka ega ayg'ir va biyalar ajratiladi.


4.4. Biyalarning bo'g'ozlik davri va tug'ilishi

Bo'g'ozlik davri deyilganda tuxum hujayralari otalangan vaqtdan boshlab to tuqqan vaqtgacha o'tgan davr tushuniladi. Biyalarning bo'g'ozlik davri 335 kundi, ayrim hollarda tebranishi 315-350 kundi tashkil etadi. Bu davr biyalarni ovqatlantirish darajasiga, tug'iladigan qulunning jinsiga, ayg'ir va biyaning zoti hamda ularning individual xususiyatiga bog'liqdir. Birinchi tug'adigan yosh biyalar bolasini ko'proq ko'taradi. Erkak qulunlar ayg'ir qulunlarga nisbatan 1-2 kun keyin tug'iladi. Shuni aytish zarurki, agar biya to'q juda oz ko'tarsa, bu uning kasalligini bildiradi. Bo'g'ozligining 7-8 oyida biya qorni osiladi, yelini kattalashadi, tez-tez siyadi, terlaydi va ba'zan charchaydi. Tug'ishiga 2 oy qolganida biyalar barcha ishlardan ozod qilinadi, 15-20 kun qolganida otxonada saqlansa, tagiga to'shama solingan doimiy og'itish ko'chirilishi kerak. Qulunlashga 1-2 kun qolganda biyaning yelini ko'pchilik so'rg'ichlaridan yeliga o'xshash suyuqlik kela boshlaydi. Biya tug'ish davri bezovtalanadi. Ozuqa yemay qo'yadi, qulunlash 20-40 minut davom etadi. To'lg'oq 2-3 minutda qaytalanadi. Qulun tug'ilganidan keyin qulunning 10-15 qomidan 5-6 sm pastroqdan toza ip bilan bog'lanib qaychida qirg'iladi. Qulun joyga yod surkab qo'yiladi. Agar biyaning yo'ldoshi 12 soat ichida tushmasa,

ishlari va vrachlign murojaat etiladi.

Yangi tug'ilgan qulunni biyaning o'zi yalab quritadi, yalash jarayoni davomida qulunning terisi massaj qilinadi, nafas olish va qon aylanish funksiyasi tezlashadi, yo'ldosh tez ajraladi, jinsiy organlar holati me'yorlashadi.

Yangi qulun to oyoqqa turguncha biyaning yelin so'rg'ichlarini qidira berish kerak. Bunday puytda unga otboqar yordam berishi, biyaning yelinini 1%li bor yordam bilan yuvib tashlash, so'rg'ichlarni sochiq bilan artib qo'yishi va dastlabki 24 soatda sog'ib tashlashi kerak.



33 - rasim. Bachadonda xomilani tug'ish oldida har xil holatda yotishi

- 1. Yag'ibni bachadonda homilani to'g'ri yotishi.
- 2. Yag'ib oldidan bachadonda homilani oldingi holatda to'g'ri yotishi.
- 3. Yag'ib oldidan bachadonda homilani oldingi holatda noto'g'ri yotishi.
- 4. Yag'ib oldidan bachadonda homilani keyingi holatda to'g'ri yotishi.
- 5. Yag'ib oldidan bachadonda homilani keyingi holatda noto'g'ri yotishi.
- 6. Yag'ib oldidan bachadonda homilani oldingi holatda noto'g'ri yotishi.

4.5. Yosh otlarni o'sish va rivojlanish qonuniyatlari

Hayvonlarni o'sish va rivojlanishi ona qornida, ya'ni tuxum hujayra spermatazoid bilan qo'shib urug'lanishdan boshlanadi va tug'ilganidan so'ng davom etadi. O'sish -deganda tirik vazning organizmga qo'shilishi tananing uzunligi, eniga, kengligiga ortishidir. Organizm funktsiya va strukturasi murakkablashib takomillashuviga **rivojlanish** deyiladi.

O'sish va rivojlanish ikki davrga bo'linadi:

A) ona qornida;

B) tug'ilgandan so'ng.

Tug'ilganda qulunlarning tirik vazni o'z onasi vazning 10%ini tashkil qiladi, 7-8 kunga qadar yangi tug'ilgan davri deyiladi. Tug'ilgandan 1-2 soat o'tgach o'tmasdan u mustaqil harakat qiladi.

Yosh otlar tanasining tuzilishi bilan katta yoshdagi otlardan keskin farq qiladi. Oyoqlari uzun, gavdasi tor va katta, ko'kragi chuqur emas. Agar bo'g'och biyalar yomon oziqlantirilsa, homilaning o'sishi sustlashadi, trubkasimon suyaklar o'sishdan to'xtaydi, natijada qulunlar oyoqlari katta bo'lib tug'iladi va hayotining oxirigacha bu nuqson saqlanib qoladi (embrionalizm).

Qulun tug'ilgandan so'ng organizm dastlabki 2-3 kun mobaynida qayta tiklana boshlaydi. Bu davrda qulun kenglikka, uzunlikka va balandlikka o'sish boshlaydi. Bu davrda kaloriyalı ozuqalar bilan oziqlantirilmasa, ularning skeleti yaxshi o'smaydi, rivojlanmaydi, ular kattalashganda oyoqlari baland, orqasi tor, gavdasi katta, ko'kragi tor bo'lib shakllanadi. Tana tuzilishi yosh otlarni eslatadi (infantalizm) deyiladi.

Tug'ilgan qulunlarda tana harorati yurak rejimlarining qisqarishi va nafas olishi yuqori bo'ladi. 2-3 oylikidan boshlab yuqoridagi aytilgan ko'rsatkichlar pasayib boradi. Yoshining oshib borishi bilan o'sish va rivojlanish tezligi susayib qonning morfologik tarkibi o'zgaradi. Eritrotsitlar soni va gemogloblin konsentratsiyasi pasayadi.

Yosh otlarning jinsiy yetilishi 6-8 oylikidan 12-18 oylikgacha bo'lgan davrda sodir bo'ladi. Jinsiy yetilishning dastlabki davrida yosh otlar tanasining kattalashuvi kuzatiladi: ko'kragi kengayadi, tanasi uzunlashadi, balandlikka o'sadi. Yetilish davri oxirida o'sish tezligi, nafas olish va tomir urish pulsi sustlashadi, tana harorati pasayadi. Qondagi eritrotsitlar va gemogloblin miqdori oshadi.

Otlarning o'sishi 5 yoshgacha davom etadi. Bu davrda gavda to'lishadi, fiziologik ko'rsatkichlar me'yorga keladi, hamma sut o'tishlari doimiy o'tishlar bilan almashadi. Yosh toylarni va qulunlarni o'sish va rivojlanishini tekshirish uchun ular tarozida tortib ko'riladi. Hayvonlar o'sishining asosiy ko'rsatkichi mutloq va nisbiy bo'ladi.

Mutloq o'sish deb hayvonning muayyan vaqt, kun, oy, kvartal, yil mobaynida tirik vazning ortishiga aytiladi va quyidagi formula bilan ifodalana

Onasidan ajratilgan qulunlarni o'stirish va asrash

Qulunlarning onasidan ajratilishining eng yaxshi muddati oktyabr oylari hisoblanadi.

Onasidan ajralgan qulunlar bittadan yoki ikkittadan qilib bo'linadigan joyining kengligi 9 m²dan kam bo'lmali kerak, bo'lmalar avtomatik bilan jihozlangan, quruq va yorug' bo'lishi kerak.

Asrashning tannarxini pasaytirish maqsadida ularni guruh-guruh bo'lmalarda asrash mumkin. Onasidan ajratilgan qulunlar sifatli pichan va bilan oziqlantirilishi lozim, ularga o'tga boy bo'lgan yaylovlar ajratiladi.

Konsentrat oзуqalardan bug'doy kepagi, sulii, arpa, kungaboqar beriladi. Ratsionda kalsiy moddasi yetishmasa, konsentrat oзуqalarga har bir kilogrammiga 20-30 g dan bork qo'shib beriladi.

Yosh qulunlar sutkasiga 4 marta oziqlantiriladi, konsentrat ertalab, tushlikda va kechga beriladi. Konsentrat oзуqalar berishda qulunlarga bog'lanadi (kuchlilari kuchsizlarini siqib chiqarish uchun) oзуqalar sutkasiga 3 marta, shirali oзуqalar 2 marta beriladi.

Kech va nimjon tug'ilgan qulunlarning asosiy ratsioniga har bir kilogrammiga 3-8 l dan obrat yoki issiq suvga aralashtirilgan sigir suti qo'shib beriladi. Bunda har bir litr sut hisobiga 20-25 g dan qand ham qo'shiladi. Qulunlar birlariga yaxshi o'rganib ketgunlariga qadar ular muntazam ravishda oziqlanib boriladi.

Yaylovda yaxshi o'tlashi uchun ularning to'ldasiga axta qilingan o't qo'shib qo'yiladi. Ayg'irchalar biyalarga nisbatan oзуqa va uning sifatiga talabchan bo'ladi, yaxshi oziqlantirish sharoitida ayg'irchalar rivojlanib, biyachalardan o'zib ketadi. Shuningdek, ayg'irchalarni oziqlantirish biyachalarnikidan ustun bo'lishi kerak. Bunday holat to 2 yoshga to'lguncha qadar davom etishi kerak.

Intensiv mashq qildirish davriga kelganda erkak toylar va urg'ochi qulunlarni oziqlantirish me'yori deyarli bir xil bo'ladi. Oktyabrdan to yanvargacha qulunlarga har 100 kg tirik vazniga, 2,8 urg'ochi toylarga har 100 kg tirik vazniga 2,5 oзуqa birligi beriladi, yanvar oyidan boshlab bu ko'rsatkich 2,5-2,8 gacha tashkil qilishi kerak.

Bunda har bir oзуqa birligiga 105-106 g hazmlanuvchi oqsil, 6,5-7,5 g fosfor va 20 mg karotin to'g'ri kelishi kerak. Dastlabki oylarda ratsionning 50-60%ni to'yimlilik bo'yicha konsentrat oзуqalari tashkil etishi kerak. Ratsiondagi dag'al oзуqalar miqdori asta-sekin oshib boradi. Yosh qulunlar kuni bilan yaylovda bo'lib faqat kun juda isib ketgan vaqtdagina otxonaga haydab kirishadi, konsentrat oзуqalar bilan boqiladi.

Yosh qulunlar va toylarni o'sish va rivojlanishiga biyalarning qulunlari mavsumi ham ta'siri ko'rsatadi. Erta tug'ilgan qulunlar mart, aprel, may oyida yaxshi rivojlanadi. Me'yori oziqlantirish sharoitida sof qonli salt miniluvchi qulunlar yuk tortuvchi, rus va orlov zotlari boshqa zotlarga nisbatan tez yetiladi. 3,5 yoshga yetganda ular katta yoshdagi otlarning vaznini egallaydi.

Shuningdek, qulunlarning erkagi urg'ochisiga nisbatan ona qulunlarni ko'proq kuni yotadi va shunga ko'ra erkaklari urg'ochilariga nisbatan kattaroq tugiladi.

bu davrdan so'ng erkagi urg'ochilariga nisbatan eksteryeri bo'yicha 1,5 o'sganliklar yuz beradi.

Erkak toylar 1,5 yoshda eksteryerining hamma ko'rsatkichlari (tirik vazni, o'sish sur'ati) bo'yicha urg'ochi toylardan o'zib ketadi. Qulunlarni o'sish va rivojlanishini nazorat qilib borish uchun tug'ilgandan so'ng 3 kundan boshlab o'sish sur'ati va tanasining ayrim o'lchamlari olinadi, so'ngra 3,6,12 oyligida 1,1,3,6,9,11,14,5 yoshligida aytib ko'riladi va o'lchanadi.

O'zbekiston sharoitida otlarning bosh sonini ko'paytirishda biyalardan yillar o'tib, otarni to'g'ri zooveterinariya qoidalari asosida olib boriladi. Muallif fikricha har xil yaylov sharoitida otlarni o'stirish asosida parvarishlash va qulunlarni ko'chatlarini bilish zarurdir va ko'paytirish xususiyatlari farq qilishi muhimdir. Masalan, O'zbekiston tog' oldi sharoitlarida har 100 bosh biyalardan yillar o'tib 5-6 yoshli biyalarda 80-82%, 8-10 biyalarda 96-97,3%, tog' mintaqalarida bu ko'rsatkichlar 8-9 yoshli biyalarda 86-96%, yarim sag'ri sharoitida O'zbekiston Respublikasida 86,7 bo'lishi aniqlangan.

April, may oyida tog' oldi va tog' mintaqalarida 8-10 yoshli biyalardan yillar o'tib qulunlarning saqlanib qolishi 100%, iyun oyida tug'ilgan 5-6 yoshli biyalarda 90,9%, 8-10 yoshli biyalarda 95,45-100% bo'lgan tog' sharoitida iyun oyida 8-10 yoshli biyalardan tug'ilgan qulunlarning saqlanishi 95-95,2% bo'lgan. Yarim sag'ri mintaqalarida 8-10 yoshli biyalarda aprel oyida tug'ilgan qulunlar 96,7%, may oylarida 96,7% bo'lgan. 7 - jadvalda berilgan.

7 - jadval.

Tog' oldi mintaqalarida har xil davrda tug'ilgan qulunlarni saqlanishi

Yillar	Tug'ilish oylari	Bosh hisobida qulunlar	Bosh hisobida o'lganlar	Qulunlari saqlanishi	
				bosh	foiz
5-6 yoshli biyalar					
1989	April	12	-	12	100
	May	13	-	13	100
	Iyun	11	-	10	90
8-10 yoshli biyalar					
1989	April	27	-	27	100
	May	24	-	24	100
	Iyun	22	1	21	96,45
5-6 yoshli biyalar					
1990	April	14	-	14	100
	May	15	-	15	100
	Iyun	8	-	8	100
8-10yoshli biyalar					
1990	April	32	-	32	100
	May	23	-	23	100
	Iyun	18	-	18	100

Kuzatish olib borilgan yillarning aprel, may oylarida hamma yoshdagi biyalardan olingan qulunlarning saqlanishi 100 foizni tashkil etgan. Aprel oyida tug'ilgan qulunlar biyalarning sutdorligi, hamda ko'k maysalarni iste'mol qilinishi bilan farqlanadi.

8 – jadval

Har xil yoshdagi biyalarning serpushtligi

Yosh bo'yicha	Qochirilgan biyalar soni	Shundan		Olingan tirik qulunlar soni	Bosh biya hisobiga olingan qulunlar foiz hisobida
		Bo'g'ozi	%		
5-6 yoshli birinchi marta tug'adigan	45	38	88,2	36	80
8-10 yoshli	75	73	97,3	72	96
5-6 yoshli birinchi marta tug'adigan	45	38	84,4	37	82,2
8-10 yoshli	75	73	97,3	93	97,3

Jadvaldan ma'lumki, har xil yoshli biyalar har xil yilda 100 bosh hisobida taqqoslaganda birinchi yilga nisbatan ikkinchi yil ozuqani yaxshi bo'lishi biyalarning serpushtligiga olib kelgan. Shuningdek o'rta yoshli biyalar birinchi marta tug'adigan biyalarga nisbatan serpushtligi aniqlangan.

Qulunlarni o'sish va tirik vaznini oshishi ko'rsatkichlarining natijalarini ularning tug'ilish davriga bog'liqligi aniqlangan. Aprel, may, iyun oylarida tug'ilgan qulunlarni o'sish, rivojlanish va tirik vaznini bir-bir bilan taqqoslaganda quyidagi xulosalar chiqarilgan.

Ularni tug'ilish tirik vazni va tana tuzilishi bir xil bo'lib, 6-12 oylik davrga kelib, bir-birdan keskin farq qiladi. Aprel oyida tug'ilgan qulunlar 6 oyligida qarchig'ay balandligi bo'yicha o'zining tengdoshlaridan, ya'ni may oyida tug'ilganlariga nisbatan 2 farq, ko'krak aylanasi 1,6 foiz, tirik vazni 5,4 foiz, 12 oyligida 1,6.3.3 va 10,2 foiz ko'p o'sish va rivojlanishga ega bo'lgan.

Qulunlarni o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari aprel oyida tug'ilgan bilan iyun oyida tug'ilgani bir-biri bilan tenglashtirilganda ko'proq jiddiy farqlanishga olib kelgan. 12 oylik davrida aprel oyida tug'ilgan qulunlar, iyun oyida tug'ilgan qulunlarga nisbatan o'sish va rivojlanishi tezlashib tengdoshlariga nisbatan afzallikka ega bo'lib, ko'krak aylanasi 3,2 foiz, tirik vazni 16 foiz ko'p bo'lgan.

Tajribadan ma'lumki, kech tug'ilgan qulunlar o'sish va rivojlanishi bo'yicha bahorning boshida va o'rtasida tug'ilgan qulunlarga nisbatan orqada qolgan. Erta tug'ilgan qulunlar, shuningdek, 8-10 yoshli biyalardan har xil (aprel, may, iyun) oylarda tug'ilgan qulunlarni: tug'ilishda, 3 oyda, 6 oyda, 12 oyda o'sish va rivojlanishi o'rganilib taqqoslangan. 9 – jadval.

Yaylovda o'tlarni mo'l bo'lgan davriga to'g'ri kelishi, ozuqalarning to'yimlilik, biyalarni sutdorlik davri, shuningdek ko'k maysa bilan qulunlarni

... va boshqa faktorlar kech tug'ilgan tengdoshlariga nisbatan o'sish va ... o'rtali o'rtali o'rtali uniplangan. Qulunlar tug'ilgandan keyin bir oydan ... va yanani yanu boshlaydi. Qulunlarni kech tug'ilishi kelajakda fenotip ... hariri in'ir qiludi, mahsuldorligini kamayishiga olib keladi.

9 – jadval

Tug'ilgan mintuqalarida har xil davrda tug'ilgan qulunlarni o'sish va rivojlanishi

Tug'ilgan vaqti	Yoshi, oy			
	Tug'ilganda	3 oyligida	6 oyligida	12 oyligida
1- yilda tug'ilgan qulunlar (P=15)				
Qulunlar	91±0,33	109±0,17	122,5±0,46	126,5±0,39
Qulunlar qo'sh	72±0,43	99,5±0,18	116,5±0,22	129,5±0,3
Qulunlar qo'sh	78,5±0,17	107±0,29	125±0,36	137,6±0,20
Qulunlar qo'sh	10,5±0,14	13,7±0,09	14,8±0,20	16,2±0,10
Qulunlar qo'sh	18±0,37	115±0,55	154±1,16	199,5±0,40
2- yilda tug'ilgan qulunlar (P=15)				
Qulunlar	91,5±0,23	108±0,38	121±0,38	125,5±0,36
Qulunlar qo'sh	73±0,35	97,5±0,28	115±0,42	136±0,47
Qulunlar qo'sh	79±0,31	106,5±0,30	123±0,29	133±0,50
Qulunlar qo'sh	10,5±0,11	13,5±0,11	14,6±1,41	16±0,13
Qulunlar qo'sh	18,5±0,31	108±0,73	146±1,41	181±1,35
3- yilda tug'ilgan qulunlar (P=15)				
Qulunlar	92±0,29	106,3±0,38	120±0,58	122,5±0,47
Qulunlar qo'sh	72,±0,24	97±0,41	115±0,36	126,5±0,35
Qulunlar qo'sh	73±0,38	104±0,37	121,5±0,49	130,5±0,29
Qulunlar qo'sh	10,4±0,19	13,1±0,10	14,2±0,19	15,7±0,17
Qulunlar qo'sh	18±0,35	103±0,70		172±1,96

... kech tug'ilishi (iyun) oylarida, eng avvalo yaylovdagi o'tlarning ... hariri in'ir qiludi, mahsuldorligini kamayishiga olib keladi, ... hariri in'ir qiludi, mahsuldorligini kamayishiga olib keladi.

NAZORAT SAVOLLARI.

1. Podaani takror ishlab chiqarishning asosiy maqsadi nima?
2. Podaani takror ishlab chiqarish necha davrni o'z ichiga oladi?
3. Bialarning kuyukishi va jinsiy moyillik va jinsiy sikl deb nimaga

aytiladi?

4. Biyalarda kuyukishning qanaqa darajalari mavjud va qaysi biyalarda kuyukish paytida qochirish yaxshi natija beradi?

5. Jinsiy sikl necha davrga bo'linadi?

6. Otlarning umumiy rivojlanishi necha yoshgacha davom etadi?

7. Biya va ayg'irlarni fiziologik yetilgandan keyin qaysi ot zotlarida yoshdan boshlab qochirish mumkin?

8. Naslli otlardan foydalanish hamma zotlarda bir xil emas shunday bo'lsa, yo'rtoqi salt miniluvchi va og'ir yuk tortuvchi zotlardan necha yoshda foydalanish mumkin?

9. Ot zavodlarda eng yaxshi ayg'irlarda va biyalardan necha yoshda foydalanish mumkin?

10. Ayg'irlarning spermasini baholashda qaysi ko'rsatkichlariga e'tibor baholanadi?

11. Ayg'irning ejakulyat hajmi necha ml?

12. Me'yor holatdagi sperma qanaqa bo'ladi?

13. Spermatazoidlar 100% to'g'ri chiziqli ilgarilanma holatga ega bo'lsa, qancha baho oladi? Harakatchanligiga ko'ra necha balldan kam baho beriladi? Sperma fiziologik jihatdan me'yori sperma hisoblanadi.

14. Biyalarni sun'iy qochirganda bir ayg'irni urug'i bilan necha biya urug'lantirish mumkin?

15. Naslli ayg'irlar qayerda saqlanadi va joy hajmi qancha bo'lishi kerak?

16. Yilqichilikda qochirish davrida qanaqa ozuqalar berish tavsiya qilinadi?

17. Ayg'irlarni qochirish davrida parvarishlashni ayting.

18. Biyalarni qochirishning qanaqa usullarini bilasiz?

19. Biyalar uyurda qochirilganda mavsum davomida bitta o'ta ayg'irga, birinchi marta qo'yiladigan ayg'irga necha bosh biya berkitiladi? Ayg'ir bo'lsachi?

20. Biyalarning bug'ozlik davri necha kun davom etadi?

Otlarni yaylovda boqish bo'yicha olib borilgan hammasi boqishga qo'yish oldidan yakka holda tortib ko'riladi, yoshi belgilanib, semizligi xisobga olinadi va jami veterinariya hamda zootexniya ishlariga amalga oshiriladi. Tajriba oxirida ham har qaysi otning tirik vazni boqish natijalarining qanchalik semirganligi aniqlanadi. Shuningdek, ular yaylovda boqish mobaynida sutkasiga qanchadan et qo'shganligi xisobga olinadi.

Olib borilgan tajribadan keyin turli yoshdagi va turli jinsdagi otlarning mahsuldorligi o'rganiladi. Bahorgi-yozgi o'tlatish mavsumida otlar boqish natijalariga hisobiga ozuqlanib, ana shu davrda yaylovdagi o'tlar efemerlar va shuvoqlar bilan oziqlanadi.

Otlarni yaylovda o'tlatishda quyidagi kun rejimiga rioya bo'lib, 10 yarimdan 10 yarimgacha sug'orildi, 10 yarimdan 12 yarimgacha o'tlatildi, 15 gacha dam berildi, 15 dan 16 gacha sug'orildi, 16 dan 20 gacha o'tlatildi, 20 yarimdan ertalab soat 9 yarimgacha suv berish bilan birga tungi o'tlatish bilan davom ettirildi.

Otlarni O'zbekistonning tog' oldi zonalarida uyur qilib yaylovda boqish natijalarini ularning ozuq bazasi mavsumiy yaylov o'tlaridan iborat bo'lib, bahor kunlari qiziy boshlangunga qadar juda avj olib o'sadigan efemer va o'tlardan iborat bo'ladi. Bu xildagi o'tlar yuqori ozuq bo'lish qiymati bilan o'tlardan keskin farq qiladi. Bu xildagi yaylovlarda asosan qiyoqning to'q, qo'ng'irbosh, yaltirbosh, astragal va turli xil o'tlar keng tarqalgan bo'lib, poyali o'tlardan karrak, yantoq, chalov va shuvoqning xilma-xil turi uchraydi.

Turli yoshdagi otlar guruhini yaylovda o'tlatib boqish bo'yicha boqish natijalariga qaraganda, otlar tirik vaznining yaylovda o'tlab yurish natijalarida o'rtacha sutkalik ortishi 2 maydan 25 mayga qadar yosh toylar va katta otlarda eng yuqori bo'ladi.

Bu ko'rsatkich semizlik bo'yicha standartga yetmagan yosh otlar I kategoriya darajasida semirgan yosh otlarda 1300 g va II kategoriya darajasida semirgan katta yoshdagi otlarda 1133 g ni tashkil etdi. Iyun oyining oxiriga kelib ko'rsatkich yosh otlarda 400 g, katta yoshdagi otlarda esa 533 grammga oshirdi. Bu esa yaylov o'tlarining kunlar isishi bilan qu'rib ketishi va o'tlarning tirik vazni pasayib ketishi bilan izohlanadi.

Otlarni bahorgi-yozgi mavsumda yaylovda o'tlatib boqish natijalarini olib borilgan tajribalarning umumiy natijalari 53 – jadvalda ko'rsatilgan.

II kategoriya bahorgi-yozgi mavsumda yaylovda o'tlatib boqishning umumiy natijalari (M ± m)

Kategoriya	Yosh otlar		Katta yoshdagi otlar	
	1-guruh	2-guruh	1-guruh	2-guruh
Yoshdagi tirik vazni, kg	167,0 ± 2,67	211,0 ± 4,04	281,0 ± 3,60	370,0 ± 4,57
Yoshdagi tirik vazni, kg	234,0 ± 4,12	264,0 ± 5,82	345,0 ± 4,94	421,0 ± 6,11
Yosh davomidagi hosil berish, kg	67,0 ± 4,5	53,0 ± 1,78	64,0 ± 1,56	51,0 ± 1,64
Yosh davomida hosil berish, kg	893,0 ± 19,30	883,0 ± 9,60	853,0 ± 21,0	850,0 ± 7,40

II kategoriya bahorgi-yozgi mavsumda yaylovda o'tlatib boqilgan otlar tirik vaznining o'sishi

Otlarning tirik vaznining o'sishining umumiy natijalari	II.IV-25.IV		26.IV-10.V		11.V-25.V		26.V-9.VI		10.VI-25.VI		Tajriba davrida ortgan vazni, kg
	Vazning usishi										
	Jami, kg	O'rtacha sutkalik, kg	Jami, kg	O'rtacha sutkalik, kg	Jami, kg	O'rtacha sutkalik, kg	Jami, kg	O'rtacha sutkalik, kg	Jami, kg	O'rtacha sutkalik, kg	
II kategoriyali	109	66,6600	1815	12001000	2118	14001200	1211	800667	6-	400-	6753
II kategoriyali	8,58	567533	1614,5	1007967	19,517	13001133	1211,5	800767	8-	533-	64,551

Otlarni bahorgi-yozgi mavsumda yaylovda o'tlatib boqish davrining boshida II kategoriyadagi semizlikda bo'lgan yosh otlarning semizligi I kategoriyaga ko'tarildi. Semizligi standartga yetmagan yosh otlarning 74,8% qismida I kategoriyaga va 25,2% qismida II kategoriya darajasiga, katta yoshdagi otlarning 71,5% qismida I kategoriya darajasidagi semizlikka va 29,4% qismida II kategoriya darajasidagi semizlikka yetdi.

Bahorgi-yozgi mavsumda yaylovda o'tkazish natijasida I guruhdagi otlarning (standartga yetmagan semizlikdagi) tirik vazni 40,1% (67kg) ga II guruhdagi (kategoriya darajasi semirgan) yosh otlarniki 25,1% (53kg) ga ortdi. Katta yoshdagi otlardan iborat III guruhdagi 22,8% (64 kg)ga, IV guruhda 13,8% (51 kg) ni tashkil etdi.

Yozgi mavsumda yaylovda boqish

Otlarni yozgi mavsumda yaylovda o'tlatib boqish bo'yicha olib borilgan tajribada otlar alohida uyurda faqat yaylov o'tlari hisobiga oziqlantirildi.

Olib borilgan kuzatish natijalariga qaraganda, otlarni yozgi mavsumda yaylov o'tlari xisobiga o'tlatib, ularning tirik vaznini oshirishda hal qiluvchi ta'sir choralardan biri bo'la olmaydi. Chunki ana shu davrda otlar tirik vaznining pasayish darajada pasayib borishi kuzatilib, 6 iyuldan 6 avgust oralig'ida otlarning sutkalik et qo'shishi katta yoshdagi otlarda 200, umumiy et qo'shishi 6 kg, yosh otlarda tegishli 117 va 3,5 kg ni tashkil etdi.

Yozgi mavsumda yaylovda o'tlatish davrida otlarning semirishi I guruhdagi otlarda 6 kg ni, katta yoshdagi otlarning guruhida 11 kg ni tashkil etdi. Hatto ba'zi yillarda katta otlarning semirish o'rniga ozish ko'zatilgan.

Muallif ma'lumoti bo'yicha, yozgi mavsumda otlar tirik vaznining kamayishi yaylovdagi o'tlarning qurib qolish natijasida pasayishi, shuningdek, havo harorati pasayishini va havo haroratining ko'tarilishi hamda qon so'ruvchi hashorotlar ko'plab yopirilishi oqibatidan deb izohlash mumkin.

Otlarni kuzgi mavsumda yaylovda boqish

Otlarni kuzgi mavsumda yaylovda boqish masalasiga kelsak, kuz davri boshlanganida, yog'ingarchiliklar sodir bo'lish natijasida yaylovdagi o'simliklar yanada o'ssa boshlaydi. Buning natijasida ularning to'yimliliigi ortadi, kimyoviy ta'sir o'zgaradi, bu esa o'tlar tarkibidagi eng muhim organik moddalarning ortishi bilan sodir bo'ladi. Otlar ana shu davrda o'tlatilganda havo harorati ancha past bo'lgan qonni so'ruvchi xashorotlar kamayadi, ba'zan bo'lmaydi.

Otlarni kuzgi mavsumda o'tlatib boqishda 1 dan 25 oktyabrgacha qadar o'tlatilgan otlarda ayniqsa yosh otlarda eng yuqori ko'rsatkichlarga erishiladi. Shundan keyin 26 oktyabrdan 9 noyabrgacha bo'lgan davrda) otlarning semirishi pasaya boshlaydi. Masalan, yosh otlar guruhida sutkalik o'rtacha semirishi 756 g dan 533 g ga kamayadi.

guruhida 700 g dan 500 g ga qadar pasaygan. Kuz mavsumida o'tlatish olib borilgan kuzatish natijalarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

10.6. Yaylovda boqilgan otlarning go'sht mahsuldorligi

Ma'lumot kitob avtorlari D.Xolmirzayev tomonidan O'zbekistonning tog' oldi zonasida bahorgi-yozgi, bahor va kuzgi mavsumda turli yoshdagi Qorabayir otlaridan olib borilgan ko'zatish natijalariga qaraganda, yilning turli mavsumida yaylovda boqilgan otlarning go'sht mahsuldorligi nazorat variantiga qaraganda juda keskin farq qiladi. Buning dalili sifatida bahor-yozgi mavsumda yaylovda boqilgan Qorabayir otlarini Samarqand go'sht kombinatida so'yib analiz natijalarini ma'lumotlarni keltirish mumkin.

Ma'lumotlariga qaraganda, yaylovda boqilgan otlarda eng vaznli nimta mavsumda ko'zatilib, uning go'shti I kategoriyada baholanadi va 144 kg ni tashkil etadi. Yilning turli mavsumidagi otlar ichidan ko'p (3,51) yog' to'plagan. Katta yoshdagi otlarda ham I kategoriyada semizlikka erishilgan. Boshqacha aytganda I kategoriya semizlikdagi yosh otlarda go'sht chiqishi, II kategoriya semizlikdagi otlarnikiga qaraganda 1,4% yuqori bo'lgan. Lekin katta yoshdagi otlarda I kategoriya darajasida semirgan otlardagi go'sht chiqishi, II kategoriya semizlikdagi otlarnikiga qaraganda 2,3 yuqori bo'lgan.

Yana shuni aytish kerakki, yaylovda boqilgan otlarda so'yilganda chiqadigan yog' uchun yaroqli chiqindilari va texnik xom-ashyolari jihatidan katta farq kuzatiladi. Masalan, bu ko'rsatkich I va II kategoriya darajasida semirgan yosh otlarda qaraganda ana shu kategoriyada semirgan katta yoshdagi otlar guruhida bir oz yuqori bo'lgan. Terilarining og'irligi jihatidan ham I va II kategoriya darajasida semirgan yosh otlarda shu kategoriya darajasida semirgan katta yoshdagi otlardagiga qaraganda yuqori bo'lgan.

Olib borilgan tajribalarda II guruhdagi yosh otlarda IV guruhdagi katta yoshdagi otlardagiga qaraganda yog' chiqishi foizi ana shu yoshdagi boshqa otlar guruhidagiga qaraganda 75,5-64,0 % yuqori bo'lgan.

Yaylovda boqilgan otlarning go'sht mahsuldorligini sifat jihatidan ustun bo'lgan ko'rsatadigan dalillardan biri otlar so'yilgandan keyin chiqadigan go'sht va suyakning o'zaro nisbatidan iborat. Ko'zatish natijalariga qaraganda, I kategoriya darajasida semirgan yosh otlarda go'sht chiqishi 77,0% ni, suyak chiqishi 19,7% ni tashkil qilgan holda II kategoriya darajasida semirgan yosh otlarda bu ko'rsatkich 75,2 va 17,1% ni tashkil etdi. I kategoriya darajasida semirgan katta yoshdagi otlarda go'sht chiqishi 79,9% va suyak chiqishi 17,0% bo'lgan bo'lsa, II kategoriya darajasida semirgan katta yoshdagi otlarda bu ko'rsatkich 78,0 va 18,5% ni tashkil etdi.

Yaylovda boqilgan katta yoshdagi otlarda nimtasining turli qismlarida so'yilganda suyak chiqishida ham katta farq kuzatiladi. Masalan, qazi tayyorlash uchun qozonli yog'li go'sht II kategoriya darajasida semirgan otlarda 84,8% bo'lgan bo'lsa, I kategoriya darajasida semirgan otlarda esa 90,1% ni tashkil qildi.

Yaylovda boqilgan otlarda sof go'shtning ko'p chiqimidan tashqari kimyoviy tarkibi hamda uning kaloriyaliligi bo'yicha ham katta farq bo'ladi. Yaylovda boqilgan yosh otlar va katta yoshdagi otlarda I kategoriyali semirgan bo'lsa, ularning go'shti tarkibidagi yog' ko'p va suv kam bo'ladi. Bundan tashqari otlarning yoshidan qat'iy nazar bir xil kategoriyali otlarda I sort go'sht tarkibida oqsil va yog' saqlashi yuqori darajada bo'lib kaloriyaliligi jihatidan xarakterli xisoblanadi.

Kuz mavsumida yaylovda o'tlatilgan otlarning go'sht mahsulotida katta farq kuzatiladi. Chunonchi, ana shu mavsumda yaylovda boqilgan otlar sifatida so'yib ko'rilganda go'sht chiqishi yuqori bo'lgan. Bunda yoshdagi otlarda keskin farq qilishi kuzatiladi.

Jadval ma'lumotlariga qaraganda, Qorabayir zot otlari yoz mavsumda o'tlatilganda yaxshi semiradi va so'yilgandan keyin yaxshi go'sht beradi. Shuningdek, kuzda yaylovda boqilgan Qorabayir zot otlarda hamda boshqa ozuq-ovqat maqsadlari uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan chiqindilarning chiqishi birmuncha yuqori bo'ladi. Masalan, so'yim otlar og'irligiga nisbatan olingan texnik xom-ashyosi (terisi) yosh otlarda 4,11% bo'lsa, yoshdagi otlarda esa 4,51% ni tashkil etdi.

Kuzgi mavsumda yaylovda boqilgan otlardan olingan go'shtning tarkibi va uning kaloriyaliligi ham boshqa mavsumda boqilgan otlarnikidan farq qiladi.

Kuzgi mavsumda yaylovda boqilgan otlarning go'shti mahsulotligi

Otlar guruhi	Semizlik kategoriyasi	So'yish oldidan tirik vazni	Nimta massasi,kg	So'yilganda chiqishi
Yosh otlar	I	242,9±8,71	131±76,59	54,1
K.yoshdagi otlar	I	348,5±6,67	192,7±3,11	54,9

Buning dalili sifatida jadvalda quyidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin. Jadval ma'lumotlariga qaraganda, yaylovda kuzgi mavsumda boqilgan otlar go'shtning sorti va uning kimyoviy tarkibi otlarning yoshiga xam bog'liq bo'ladi. Chunki bunda yosh otlar go'shti tarkibida yog'lar miqdori kam bo'lishi, oqsil miqdori esa ko'p bo'lishi bilan xarakterlanib, o'z navbatida go'shtning kaloriyaliligi past bo'lishiga olib kelgan.

Kuzgi mavsumda yaylovda boqilgan otlar go'shtining kimyoviy tarkibi va kaloriyaliligi, % va kkal xisobida

Otlar turi	Go'shtning sorti	Suv	Oqsil	Yog'	Kul	Kaloriya-liligi
Kuzgi otlar	I sort	72,30	20,00	7,00	0,70	1471
	II sort	72,80	19,42	6,68	1,10	1417
	kazi	36,27	12,87	50,29	0,57	5205
Yoz mavsumidagi otlar	I sort	70,20	18,32	20,38	0,80	1716
	II sort	71,40	17,24	10,26	1,10	1661
	Kazi	28,85	11,65	58,98	0,52	5964

Kuzgi yoshdagi otlarda esa go'shtning yog'i katta solishtirma og'irlikka ega bo'lib, bu bilan farq qilib, kaloriyaliligi ham o'z-o'zidan yuqori darajada bo'ladi. Otlarning qazi qilinadigan qovurg'a qismining go'shti yosh otlarda katta yoshdagi otlar qazilganda qaraganda tarkibida ko'p miqdorda suv va kam miqdorda yog' saqlashi kuzgi otlar xarakterlanadi.

Yoz mavsumida boqilgan otlarni kuzgi mavsumda boqilishda olingan go'shtning sifatini aniqlash bo'yicha olib borilgan kuzatishlar qaratib qaraganda, ulardan tayyorlangan qazi tarkibidagi yog' kuzgi otlarda 48,27% ni, o'rtacha semizlikdagi otlarda 43,58% , oqsil esa o'rtacha 11,77 va 12,91% ni, kaloriyaliligi 4911 va 4571 kg/kkal ni tashkil etdi. Kuzgi mavsumda yaylovda boqilish bo'yicha Yu.N.Barmensev tomonidan olib borilgan kuzatishlarda ham bu usulning afzalligi tasdiqlanib, bunda yaylov kuzgi mavsumda boqilgan ot go'shtidan tayyorlangan qazi tarkibidagi 37,8% ni, yog' 47,3% ni, oqsil 13,2% ni tashkil etib, qazining kaloriyaliligi esa 4940 kg/kkal ga bordi.

Yoz oylarida ot uyurlarini xashorotlardan saqlash uchun ularni 20-30 boshdan qaratib saqlanadi va shamol esib turadigan balandlik maydonlarda haydab boqiladi. Otlarning shamolning esishiga qarshi sekin odimlatib o'tlatiladi. O'tlatish ertalab salqinda boqiladi va kechasi amalga oshiriladi. Shunday qilinmasa, issiq vaqt otlar yozda boshlarini bir-biriga qaratib doira hosil qiladilar va o'zlarini xashorotlardan saqlaydilar.

Kuzgi mavsumda yaylov tumanlarda bu davr uchun eng baland yaylovlar ajratiladi. Chunki yaylovlarda yozda ham kun haddan tashqari isitmaydi, xashorotlar kam bo'ladi. Mana shunday tadbirlarga roiya qilinsa otlarning keskin et kamayishiga olib keladi.

Yozgi mavsumda otlarni yaylovlarda boqilishdan maqsad ularni qishga o'tkazish va semirtirishdan iboratdir. Kuz davriga borganda, yog'ingarchilik sodir

bo'lishi natijasida yaylovdagi o'simliklar yana qaytadan o'sa boshlaydi. Natijasida ularning to'yimliliği ortadi, kimyoviy tarkibi o'zgaradi, tarkibidagi eng muhim organik moddalarning ortishi foydasiga sodir. Davrda xashorotlar yuqoladi, havo salkinlashadi, otlar uchun yaylovdan foydalanish imkoniyati tugiladi. Otlarni yaylovda, qishda asrashdagi ularning semizligini saqlab qolishdan iboratdir. Qish davrida oriq otlarga pichan va yem berish tashkil qilinadi. Qishki yaylov uchun cho'l galladoshlar, shuvoq va shurasi o'simliklar o'sadigan maydonlar ajratiladi. Xildagi o'simliklar qor tagida yaxshi saqlanadi va ularni otlar ishtaxa bilan qoladi. Qor qalinligi 50 sm bo'lgan joylarda otlar oldingi oyoqlari bilan bemalol o'tlay oladilar. Toylar bunday o'tlarni 20-25 sm qalinlikdagi qor olishlari mumkin, qachonki sovuqlar kuchayib, yer muzlab o'tlashni bo'lmasa, otlarga ozuqa qo'ldan beriladi. Bu davrda ozuqa qo'ldan berilishi kechiktirilib berilsa bo'g'oz biyalar oriqlab bola tashlashi va ko'plab mumkin.

Madaniy uyur usulida boqishda, qishning ikkinchi yarmidan boshlab biyalarni qo'ldan qo'shmacha ozuq berib boriladi. Bunda 1 yoshdan ikki bo'lgan toylarga albatta qo'ldan qo'shimcha ozuq berish kerak bo'ladi, ularning rivojlanishi sustlashadi, kech yetiladi kech qulunlagan toylar va duragaylar ozuqaga juda talabchan bo'ladi. Shuning uchun qish davomida doimo nazorat ostida bo'lishi kerak.

Yaylovda otlarni sug'orishni tashkil qilish

Otlarning sug'ga bo'lgan talabi yozda oshib, bahor va kuz faslida Qish davrida ularni pichan bilan boqilishi tufayli sutka davomida bir marta turish kerak bo'ladi.

Yoz davrida sutkasiga 3 marta, bahorda, kuzda 2 marta sug'orish muvofiqdir.

Yaylovda biyalarni qochirish va ulardan qulun olish

Yaylovda asraladigan otlarni qochirishga shunday tayyorlash kerak bo'g'oz biyalar bahor faslida qulunlab bo'lsin. Iqlim sharoiti va tayyorgarligiga qarab biyalarni qochirish kompaniyasi aprel oydan boshlab oyida tugallanishi kerak. Qochirish usuli xo'jalikning ozuqa bilan ta'minlanganligiga ayg'irlarning tarkibiga, biyalarning holatiga, imoratlar va kadrlar bilan ta'minlanganligiga qarab tanlanadi.

Yaylov yilqichiligida biyalar odatda uyurda qochiriladi. Uyur uchun ayg'irlar yuqori klassli, sof zotli, eksteryeri kelishgan bo'lishi kerak. Yosh (biyalar) ayg'irlar o'rta yoshli biyalar uyuriga qo'shilishi kerak. Biyalar qilishda ular 25-30 boshdan qilib baza bo'limlariga kiritiladi, so'ng ular

ayurlarga bo'linadi. Shundan keyin har bir uyur uchun ayg'ir tanlanadi. Qochirishga qo'yiladigan ayg'irga 12-15 biya, shuningdek qari ayg'irlarga yoshil ayg'ir uchun esa 20-25 biya tanlanadi. Kuyukka kelganligini darhol sezib, so'ng uyur ichiga qo'shilib, yaylovga haydab ketiladi. Qochirishga qo'yilgan undan katta yoshdagi sog'lom biyalar yaroqli xisoblanadi. Qochirish qo'yilgan oldin biyalarni sinchiklab ko'rib, oriqlari qo'ldan oziqlantirilgandan so'ng qochirish maqsadga muvofiqdir. Qochirishga qo'yishdan oldin ayg'irlarning qo'riq jihatidan tekshiriladi. Tug'ishni rejalashtirish uchun har bir uyurdagi biyalarning chislosi ayg'ir har bir biyani necha marta otlantirilgani maxsus hisoblab boriladi. Yaylov yilqichiligida biyalarning qulunlashini to'g'ri tashkil topish uchun davr hisoblanadi. Qanchalik yaxshi o'tishi yil mavsumining qanday davriga bog'liq. Biyalarning qulunlashining eng yaxshi davri bahorning aprel va may oylariga to'g'ri keladi. Biyalarning bahorda qulunlashi odatda yaylov sharoitida amalga oshiriladi. Agar qovuqroq bo'lsa maxsus saroy va bazalarda o'tkaziladi. Tug'ishdan bachadon muskullari qisqarib tulg'oq boshlanadi. 1-1,5 minut 2-3 minut davom etadi. Tug'ish 10-30 minut davom etadi. Qulunlarning 80-85 foizi 10-15 daqiqada tug'iladi. Kechasi tug'ishi yaqinlashgan biyalar ustidan nazorat

Yaylov yilqichiligi uchun zarur inshootlar

Yaylov yilqichiligida maxsus inshootlar (qurilishlar) qilinadi. Ulardan eng muhim joy (to'siq) bazalar, saroylar xisoblanadi. Bundan tashqari otlar uchun qulunlangan suv ichadigan joy quriladi.


Pana joy-to'siqlar otlarni kuchli bo'ron va shamollardan muhofaza qilish uchun quriladi. Tabiiy pana joy, to'siqlar, chuqurliklar, tog' yonbag'irlari, o'rmon bo'g'ozlari va boshqalar.

Ustisimon asrash uchun, raskolli bazalar esa zootexnika-veterinariya xizmatida quriladi. Raskolli bazalar to'rtburchak yoki to'rtburchak shaklida quriladi. Har bir bazada ikkita xonadan iborat bo'lib, ular bir-biri bilan to'tashgan bo'ladi.

Bazalar birinchisi ichida varonkasimon kichik kabudxonasi quriladi. Bu xonaning ichida torayib borib raskol panjarasi bilan tugaydi. Avvalo katta xonaga qulunlaydigan biya yoki 8-10 boshdan qilingan mayda xonalarga bo'linadi, qabulxonasi va o'tirish xonasi bilan tutashtiriladi. Kerak bo'lganda xonalardan chiqarib kerak bo'lgan daluga haydaladi. Qabulxonaning diametri 28-30 m, bo'lavchi xonaning diametri 15 m, kengligi 10 m, balandligi 1,8 metr bo'ladi.

Saroylar otlarni ma'lum davrda asrash uchun xizmat qiladi. Saroylarda kasal, qo'riqdan oziqlantiriladi, erta tug'iladigan biyalar qulunlaydi va yosh toylar quriladi. Usti somon loy bilan suvaladi. Saroyning ichi tabiiy yer holida quriladi.

Saroylarni qurishda har bir bosh biyaga 15-20 m² ayg'irga 10 m² - qulunlarga qulunlangan bo'lishi, balandligi 3 m dan kam bo'lmasligi kerak.



73— rasm. Bazani bo'linishi

1. Bazani bosh qabul qilish bo'limi 2. Koridar 3. Bo'lim
4. Taqsimlaydigan baza 5. Baza bo'limi 6. Darvozasi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yaylov yilqichiligi haqida tushuncha bering?
2. Otlarni yaylovda boqishning qanaqa usullari mavjud?
3. Yaylovda boqiladigan otlarning biologik xususiyatlarini ayting?
4. Otlarni to'g'ri o'stirish texnologiyasiga tushuncha bering?
5. Otlarni yaylovda qanaqa boqish mavsumlari mavjud?
6. O'zbekiston sharoitida otlarni yaylovda asrash bo'yicha tushuncha bering?
7. Yaylovda boqiladigan otlarning go'sht mahsuldorligi bo'yicha fikringizni ayting?
8. Yaylovda biyalarni qochirish va ulardan qulun olishga ta'rif bering?
9. Yaylov yilqichiligi uchun zarur inshootlarni ayting?

XI BOB. YILQICHILIKDA NASLCHILIK ISHLARI

11.0. Yilqichilikda naslchilik ishlarining ahamiyati

MDH da yilqichilikda ishlar ilmiy asosda amalga oshirilgan, 1930-yilda MDH yilqichilik ilmiy tekshirish instituti tashkil topib, ilmiy asosda naslchilik ishlarini amalga oshirishda muhim muammolarni ishlab chiqqan. Yilqichilik sohasida MDHda ishlagan olimlar P.N.Kuleshov, M.N.Pridorogin, N.A.Yurasov, V.O.Vittlarni xizmatlari yadgor bo'lgan.

Otlarning nasldorlik xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan kompleks tashkiliy va texnik tadbirlarga naslchilik ishlari deyiladi.

Naslchilik ishlarining maqsadi

Yilqichilikda naslchilik ishlarining maqsadi tanlash, juftlash usullari bilan sport afit ko'rsatgichlarini oshirish hamda otlarning nasl sifatini yaxshilash, saqlash, zarur bo'lgan tipdagi zotlarni saqlab qolish va yangi zotlarning yaratilishidan iboratdir.

Naslchilik ishlarining asosiy vazifalari

Otlarning sifatini yaxshilash, ularning soni va mahsuldorligi oshirishdan iborat. Naslchilik ishlarini samaradorligi ko'p jihatdan tanlash, xillash, maqsadga muvofiq juftlash usullarini qo'llash, yaxshi oziqlantirish va asrash, yosh otlarni mashq qildirish va sinashga bog'liq bo'ladi.

Xozirgi vaqtda yilqichilikda naslchilik ishining eng asosiy vazifasi reja asosida maqsadga ilmiy yutuqlarni, ilg'or tajribalarni amalga qo'llab, har xil nasldorlikdagi ot zotlarining sifatini yaxshilashga qaratilgandir. Salt miniluvchi va sport ot zotlarining chaqqonligi, tezligini oshirish uchun ularning sport ishidagi qobiliyatini (klassik o'yinlarda-oliy darajada mashq qilish, to'siqlardan o'tish va churach kurash bo'yicha) og'ir yuk tortuvchi ot zotlarini yuk tortish darajasini va mahsuldorligini oshirishga, ma'lum yo'nalishdagi ot zotlari esa shu yo'nalishdagi mahsuldorligini oshirishga qaratish kerak. Ma'lum yo'nalishdagi ot zotlarini esa shu yo'nalishdagi mahsuldorligini oshirishdir.

Yilqichilikning yo'nalishi qaysi maqsadda urchitilishiga qarab naslchilik ishlarining usullari va yo'nalishi har xil bo'ladi. Naslchilik ishlari faqat bir zotlarni saqlash va chatishtirish emas, yangi yuqori mahsulotli zotlarni liniyalarini, oilalarini yaratishga qaratilgandir.

Otlarni yo'nalishda saqlash va ularni urchitish usullari xo'jalik va yilqichilik ishlarining sharoitiga bog'liq. Shunday qilib yilqichilikdagi naslchilik ishlari asosan otlarni urchitish usullari, tanlash, saralash, boqish, mashq qildirish, sinash va sportologiyalari va otlarga baho berish va boshqalar tushiniladi.

Yilqichilikda urchitish usullari asosan sof zotli urchitish va chatishtirish usullari qo'llaniladi.

11.1. Sof zotli urchitish

Sof zotli urchitish – bir zotga mansub bo‘lgan otlarni o‘zaro urchitishga zotli urchitish deyiladi. Sof zotli urchitish biror zotni yanada takomillashtirish va xususiyatlarini mustahkamlash, yangi liniya va oilalarni tashkil qilish maqsadida boriladi. Asosiysi esa tanlash, xillash, yaxshi oziqlantirish, asrash, yosh ayg‘irlar maqsadga muvofiq o‘stirish, ularni mashq qildirish va sinash tashkil etadi. Sof zotli urchitish qarindoshlik urchitishga juda chidamsizdir. Ayniqsa eksteryerida otlarni qurtoshlik urchitish mumkin emas.

Yangi zotni yaratish davrida qo‘lga kiritilgan yaxshi xususiyatli otlar mustahkamlash maqsadida qarindoshlik urchitilishi mumkin.

Har bir naslchilik xo‘jaligida tanlash, eng avvalo biyalar ichida olib borilishi kerak. Biyalarning konstitutsiyasi bir xil tipdagi ekanligiga, sog‘ligiga, serqushligiga, bola ko‘tarishiga, qulunlarning rivojlanishiga alohida e‘tibor berish zarur. Yosh ayg‘irlar bilan to‘ldirishda ularning irsiy xususiyatlariga qaraladi.

Xo‘jalikdagi biyalarning bir tipda bo‘lishligi xillash va juftlash bilan birmuncha osonlashtiradi. Naslchilik xo‘jaliklarida nasldor ayg‘irlarni tanlash bo‘lgan talab biyalarni tanlashga bo‘lgan talabdan ustun turadi. Tanlangan ayg‘ir o‘zining prepotentligi, bolalariga xususiyatlarini yaxshi o‘tkazishi jihatidan tanlanib bo‘lishi, ayniqsa, yosh ayg‘irlarni tanlashda ularning eksteryer tuzilishi va qobiliyatidan tashqari, otasining sifatiga e‘tibor berishi kerak.

Sof zotli urchitishdan tanlashdan tashqari juftlash ham katta ahamiyatga ega. Juftlash tanlashning davomi bo‘lib, tanlashni mustahkamlaydi, ot zotining shakllanishida asosiy omilkorlik rolini o‘ynaydi. Ayg‘ir va biyalarni puxta o‘rganib to‘g‘ri juftlash natijasida ularning avlodlar ichida qimmatli xususiyatlarni yanada keltirish mumkin.

Yilqichilikda gomogen va geterogen juftlashlar farq qilinadi. Gomogen juftlanadigan hayvonlar mahsuldorligi, tipikligi, eksteryeri, konstitutsiyasi barchasi bir-biriga yaqin turadi. Geterogen juftlanadigan hayvonlar esa belgilari bilan bir-biridan farq qiladilar.

Gomogen juftlash ko‘pincha ot zavodlarida, naslchilik fermalarida ot zotini takomillashtirish va yangi zot yaratishda qo‘llaniladi. U asosan liniyalararo urchitishga asoslangan. Geterogen juftlash bir avlodda ikki zotning xususiyatlarini jamlashda va zotni ikkinchi zot bilan yaxshilashda ko‘pincha chatishtirishdan qo‘llaniladi.

Bulardan tashqari, yilqichilikda individual guruh asosida juftlash ham qo‘llaniladi. Bunda bir ayg‘irga bir guruh biya berkitiladi. Bu xildagi juftlashdan davlat zavodlariga, naslchilik fermalarida foydalanilmoqda. Juftlashning barcha turi qo‘llanilgan taqdirda ham quyidagi umumiy qoidalarga rioya qilish kerak: tanlash qanday maqsad ko‘zda tutilgan bo‘lsa, juftlashda ham shu maqsad ko‘zda tutilgan nasldor ayg‘ir zotdorligi tipi va sifati bilan xo‘jalikning naslchilik ishlarini yo‘naltirishga javob berishi shart, nasldor biyalarga ulardan sifati jihatidan yuqoriroq bo‘lgan ayg‘irlar berkitiladi; bir xil kamchilikka ega bo‘lgan ayg‘ir va biya o‘zaro

tanlab qilinmagan paytda yaqin qarindoshlararo urchitishga yo'l qo'yilmas; juftlashda biya va ayg'ining yoshiga qaraladi, ya'ni qari ayg'ir va biya o'zaro juftlanmaydi. Yosh biyalarga sifati jihatidan tekshirilgan katta ayg'irlar, katta yoshli biyalarga yosh ayg'irlar berkitiladi.

Buni aytish kerakki, gomogen va geterogen juftlashni bir xo'jalikda alohida-aloq vaqt qo'llash mumkin emas. Bir xo'jalik miqyosida gomogen juftlash qo'llanilganda otlarning hayotchanligi sustlashadi, serpushtliligi kamayadi, kasalliklari bushashadi va hokazo. Bunday vaqtda xo'jalikdagi nasldor ayg'irlar xo'jalik sharoitida tarbiyalangan, lekin shu zotga mansub bo'lgan nasldor ayg'ir bilan ulmashtiriladi. Bunga naslchilik ishlarida «qon tozalash» usuli deyiladi. Uzoq geterogen juftlash qo'llanilganda avlodlarning hayotchanligi oshsada, ayg'ir xil tipliligi buzilishi mumkin. Buning natijasida ularning eksteryer shakli ham xil shakllanadi, tanlash va juftlash ishlari qiyinlashadi.

U zavodlarida yosh nasldor ayg'irlarga biyalarni tanlab juftlash muhim ahamiyatga ega. Agar ayg'irga biyalar to'g'ri juftlangan bo'lsa, bir yoki ikki ayg'irning ayg'irining sifatlari ekanligi bilinadi. Agar noto'g'ri juftlangan bo'lsa, ayg'ir yuqori sifatlari bo'lsada, olingan avlodlarga qarab u noxaq puchak qilib chiqishi mumkin.

U avlodlarning tashqari, ayg'irning zotni yaxshilovchi sifatida tanilishida uning ayg'irni yaxshi ozuq sharoitida boqish va asrash, sistematik mashq qildirish, tanlashda sinash katta ahamiyatga ega. Ayg'irning nasl qoldirish jihatidan eng qimmat bo'lgan davri 8 yoshdan 16 yoshgacha davom etadi. Shu davrda undan nasl qoldirilishiga harakat qilmoq lozim. Agar 8-12 yoshli biyalarni 3-4 yoshli ayg'ir bilan juftlansa, avlodlarda biyalarning xususiyati ayg'irlikiga qaraganda ustun bo'ladi. Shuningdek, biya va ayg'irning yoshi juftlash davrida eng kuchga to'lgan ayg'ir bo'lsa, ulardan juda sifatlari erkak qulun olinadi.

Qarindoshlararo urchitish (inbriding)

Inbriding nemischa insuxt so'zidan olingan bo'lib, qarindosh bo'lgan ayg'ir va biya o'zaro urchitish demakdir. U urchitiladigan hayvonlarning qarindoshlik darajasiga qarab bir necha tipga bo'linadi:

1. Juda yaqin qarindoshlik urchitish («qon aralashish») – bunda qarindosh bo'lgan hayvonlarning qarindoshlik darajasi birinchi uch bo'g'in atrofida bo'ladi, ya'ni otasi qizi bilan (II-I), o'g'li onasi bilan (I-II), akasi singlisi bilan (II-II), otasi bobosi bilan (I-III), momosi nevarasi bilan (III-I) juftlanadi.

2. Yaqin qarindoshlik urchitishda qarindoshlik darajasi ikkinchi to'rtinchi bo'g'in atrofida bo'ladi, ya'ni otasi bobosi bilan (II-II; II-III; III-III; III-IV).

3. O'rta qarindoshlik urchitishda qarindoshlik darajasi uchinchi dan to'rtinchi bo'g'ingacha (III-IV; IV-III; IV-IV; III-III).

4. Uzoq qarindoshlik urchitishda qarindoshlik darajasi beshinchi bo'g'indan to'rtinchi bo'g'ingacha bo'ladi.

Tajribada shu narsa aniqlanganki, qarindoshlik urchitishda otlar hayotchanligi sustlashadi, ular me'yori tug'ilmaydi, yaxshi rivajlanmaydi. Qarindoshlik urchitishda hayvonlar bir xil jinsiy to'qimaga ega bo'lgan to'qimalarning o'zaro assimilyatsiyasi davrida yangi organizm uchun zarur hayotchanlikni ta'minlay olmaydi.

Otlar qarindoshlik urchitishga juda chidamsizdir. Ayniqsa, kamchiligi bo'lgan, konstitutsiyasi nozik otlarni qarindoshlik urchitish mumkin. Yangi zot yaratish davrida qo'lga kiritilgan yaxshi xususiyatlarni mustahkam natijasida qarindoshlik urchitilish mumkin, lekin shunda ham qarindoshlik urchitish qo'llamaslik kerak. Qarindoshlik urchitish uchun tanlangan otlarning mustahkam, yaxshi ozuq sharoitida boqilgan bo'lishi lozim.

Zootexnik – seleksionerlar har bir liniya va oilaning xususiyatlarini o'zgartirishning yaxshi tomonlarini saqlab qolgan holda talabga javob bermaydigan otlarni tuzatib borishlari lozim.

Zot ichida liniyalararo urchitish zotning takomillashib borishida otlar liniyalar bilan boyitishda asosiy yo'l xisoblanadi.

Liniyalararo urchitish.

Sof zotli urchitishda liniyalararo urchitish keng tarqalgan. Liniya deb tipik xususiyatga ega bo'lgan ayg'irlardan tarqalgan va shu ayg'irlarning xususiyatlarini ikki-uch bo'g'ingacha o'zida saqlab qoladigan otlar guruhiga aytiladi. Liniyalararo yuqori darajada naslchilik ishlari olib borilgan xo'jaliklarda kross etiladi. Liniyani tashkil qilishda yaxshi oziqlantirish, saqlash, sistemali mashg'ulot va sinash muhim rol o'ynaydi. Liniyalar bo'yicha naslchilik ishlarini ikki yo'l olib borish mumkin.

1. Naslchilik xo'jaliklarida liniyani davom ettiruvchilarning yetishganlikni takomillashib boriladi, bunday vaqtda qarindoshlik urchitishga yo'l qo'yiladi.

2. Liniyalar krossi tashkil qilinadi. Bunda turli liniyalarga mansub otlar juftlanadi. Juftlash geterogen asosida bo'lib, bir liniyaning kamchiligi, ikkinchi liniyaning yaxshi xususiyatlari evaziga tuzatiladi, liniyalar krossi otlar hayotchanligini oshiradi.

Liniyalar krossida yangi liniya yaratilishi mumkin. Masalan udaliy laqabli yirik kuchli ayg'ir liniyasi kurik yaxshi yuguruvchan Letuchiy laqabli ayg'ir bilan kross qilinganda, keyinchalik bu'tun Rossiya ot ko'rgazmasining chempioni bo'lgan. Gromadniy laqabli ayg'ir olingan. Bu ayg'ir juda chopqir yuruvchi liniyasining yaratilishiga asos bo'ldi. Bu liniyadan Krepish (2.08.5). Udachi kabi rekordchi ayg'irlar yetishgan. Shunday qilib, liniyalar krossi otlar hayotchanligini oshiradi.

Otlarning oilasi – yilqichilikning naslchilik ishida oilaning muhim ahamiyatga ega. Zotni yaratishda ba'zan liniyalardan uning xissasi kam otlar bilan ko'p bo'lishi mumkin.

Oilada deb – biror tipik xususiyatli biyalardan tug'ilgan, uning xususiyatlarini to'liq mujassamlashtirgan, bir guruh otlarga aytiladi. Mashhur oiladan tarqalgan zavodlarida yilqichilikning asosiy yadrosini tashkil etadi. Masalan: sof qonli oila zoti oilalari bilan yaqin aloqada bo'lib, ayniqsa Kantip, Ledi, Mumtoz, bu oilalardan Angliya, Fransiya, AQSh va boshqa mamlakatlarda eng rekord qonli ayg'ir va biyalar yetishib chiqqan.

Professor V.O.Vitt fikricha toza sof qonli Angliya biyalaridan eng katta sonning 90% ni eng yuqori oilalardan tashkil topgan.

Yilqiyalar qotib qolgan forma emas, ular 2-3 bug'in davomida o'zgarimasligi uchun bo'ngra liniya ichidan juda yaxshi liniyani davom ettiruvchilar yetishsa, birlaschidan ko'ra sifatliroq liniyaning yaratilishiga asos solishi mumkin. Agar bo'g'ir bo'yicha naslchilik ishlari olib borilmasa, ular takomillashish o'rniga, asta asta yo'q bo'lib ketadi.

Zootexniya seleksionerlar har bir liniya va oilaning xususiyatlarini puxta o'rganib, uning yaxshi tomonlarini saqlab qolgan holda talabga javob bermaydigan xususiyatni tuzatib borishi lozim.

Zot ichida liniyalararo urchitish zotning takomillashib borishida va yangi xususiyat bilan boyishida asosiy yo'l hisoblanadi.

Hozirgi urchitilayotgan zotlar ichida juda mashhur liniyalar soni 10-12 tadan ko'prog'i zavodlarida 3-4 liniya bo'yicha naslchilik ishlari olib borilmoqda. Har bir liniyasi esa 2-3 ta ot zavodlarida urchitiladi. Bir zavoddagi liniyaga mansub bo'lgan boshqa zavoddagi liniyalar bilan almashtirish katta ahamiyatga ega.

11.2. Chatishtirish

Yilqichilikda chatishtirish mayda mahalliy zotlarning zotdorligini yaxshilash, yangi tipni yaratish va yangi zotlarni yaratish maqsadida qo'llaniladi. Chatishtirishda ikki zotning irsiy xususiyatlari birlashib, turg'un bo'lmagan yangi xususiyatga keladi. Duragaylarni yaxshi boqish, asrash, mashq qildirish va sinash natijasida yangi sifatlar maqsadga muvofiq tomonga qarab o'zgaradi, shakllanadi. Ikki zotni chatishtirish natijasida olingan duragaylarda geterozis ta'siri ko'ry beradi, ya'ni ular yaxshi sharoitda o'stirilganda rivojlanishi, ozuqni qabul qilishi, sharoitga moslashishi ota va onasiga nisbatan ustun bo'ladi. Chatishtirilgan zotni qaysi biri shu sharoitga yaxshi moslashgan bo'lsa, olingan duragaylarda usha zotning xususiyatlari yaxshi rivojlanadi.

Yilqichilikda quyidagi chatishtirish usullari qo'llaniladi

Qon mingdirib chatishtirish – mahalliy zotlarni tubdan yaxshilash uchun miniluvchi zotning ayg'iri bilan bir necha bo'g'in chatishtiriladi. Bunday chatishtirish tufayli olingan duragaylar yaxshi sharoitda boqilib asragandagina yaxshi bo'ladi. Lekin qozoq otlarni sof qonli salt miniluvchi zot bilan shu tipda

chatishtirib, duragaylar yaylovda boqilganda va shuningdek mahalliy otlar bilan yo'rtiqi bilan bir necha bo'g'in chatishtirib, duragaylar ularda o'rta boqilganda yaxshi natija bermagan. Qon singdirib chatishtirish otlar yaxshi boqiladigan naslchilik xo'jaliklaridagina yaxshi natija beradi.

Ishlab chiqarish asosida chatishtirish – yilqichilikni yangi zot va nasl yaratish uchun qo'llaniladi. Bu tipda chatishtirishdan oldin chatishtirish rejasini so'ngra chatishtirish uchun zot tanlanadi. Zotlarni shunday tanlash kerakki, o'zaro juftlashdan olingan duragaylar ma'lum iqlim va ozuq sharoitida qo'ng'ay talabga to'liq javob bersin.

Agar bu tipdagi chatishtirishda ikkita zot qatnashsa, oddiy ishlab chiqarish chatishtirishi, uchta va ko'p zot qatnashsa, murakkab ishlab chiqarish chatishtirishi deyiladi. Agar ikki zotni chatishtirishdan olingan bo'g'in duragaylar talabga javob bersa, ular «o'z ichida» urchitiladi, ya'ni birinchi bo'g'in yaxshi ayg'irlar talabga javob bo'g'in yaxshi biyalar bilan urchitiladi. Birinchi bo'g'in duragaylar talabga javob bermasa, ularni uchinchi zotning ayg'iri bilan chatishtirish kerak.

Budenniy, Orlov yo'rtiqisi, Toriy, Yangi qirg'iz kabi qator zotlar chatishtirish chiqarish chatishtirishi natijasida yaratilgan. Bu tipdagi chatishtirishning natijasida ham ko'p jihatdan duragaylarni yaxshi boqish va asrashga bog'liqdir.

Sanoat asosida chatishtirish – turli maqsadlarda ishlatiladigan zotlarni yetishtirishda qo'llaniladi. Masalan, og'ir yuk tortuvchi zotlarni yo'rtiqi zotlari bilan chatishtirib, qishloq xo'jalik ishlariga mos bo'lgan arava tortuvchi tipdagi otlar yaratish. Salt miniluvchi zotlarni o'zaro yo'rtiqi zotlar bilan chatishtirish tufayli yaxshi zotlarni yetishtirish mumkin. Sanoat tipdagi chatishtirish geterozizga bog'liq bo'lib, faqat birinchi bo'g'in duragaylar olinadi va ular yaxshi oziq bilan tarbiyalanadi.

Sanoat tipdagi chatishtirish yilqichilikning mahsuldorligini oshirishda katta ahamiyatga ega mahalliy Qorabayir otlarni rus, Vladimr og'ir yuk tortuvchi zotlari bilan chatishtirish tufayli olingan birinchi duragaylar o'sish va rivojlanishda birinchi Qorabayir zotiga nisbatan ancha ustun turadi. O'zbekiston sharoitida go'shak zotini yetishtirishda mana shu tipdagi chatishtirishdan foydalanmoq lozim.

Nasldorlik yo'nalishiga ega bo'lmagan xo'jalik yilqichiligida go'shak zotini nasrsut otlar yaratishda sanoat tipdagi chatishtirishni keng qo'llash zarur muvofiqdir.

Boshlang'ich («qon qo'yish») tipdagi chatishtirish – zotning xususiyatlarini saqlab qolgan holda ayrim kamchiliklarini to'zlash uchun qo'llaniladi.

Yaxshilovchi sifatida tanlangan ayg'ir biyadagi mavjud kamchiliklarni o'z ichida bo'lishi kerak. Aks holda zotning bir kamchiligini tuzatib, boshqa kamchiliklarni vujudga keltirish mumkin.

Qorabayir zotini otlari sharoitga yaxshi moslashganligi, pishiqligi va yaxshi baholanadi. Lekin, klassik o'yinlarda o'ynashi uchun boldir, buni qo'ng'ay

Yilqichilikda gomogen va geterogen juftlashlar farq qilinadi. Gomogen juftlanadigan hayvonlar mahsuldorligini, tipikligini, eksteryerini, kasalliklari jihatidan bir-biriga yaqin turadi. Geterogen juftlanadigan hayvonlar esa taqriban bir-biridan farq qiladilar. Gomogen juftlash ko'pincha ot zavodlarida va nasldor fermalarida ot zotlarni takomillashtirish va yangi zot yaratishda qo'llaniladi. Geterogen juftlashlar linialararo urchitishga asoslangan.

Geterogen juftlash bir avlod ikki zotning xususiyatlarini jamlashda va ikkinchi zot bilan yaxshilashda ko'pincha chatishtirishda qo'llaniladi.

Bulardan tashqari yilqichilikda yakka holda guruh asosida juftlash ham qo'llaniladi. Bunda bir ayg'irga bir guruh biya berkitiladi. Bu xildagi juftlashishdan nasldor zavodlariga naslchilik fermalarida foydalanilmoqda. Juftlashishning barcha shartlari qo'llanilgan taqdirda ham quyidagi umumiy qoidalarga rioya qilish kerak.

Tanlashda qanday maqsad ko'zda tutilgan bo'lsa juftlashishda ham shu maqsad ko'zda tutiladi; Nasldor ayg'ir zotdorligi tipi va sifati bilan xo'jalikning barcha ishlarini yo'nalishiga javob berishi shart. Yosh biyalarga sifati jihatidan ko'pincha katta yoshli ayg'irlar katta yoshli biyalarga yosh ayg'irlar berkitiladi, bu ish kerakki gomogen va geterogen juftlashni bir xo'jalikda alohida alohida qo'llash mumkin emas.

Uzoq vaqt qo'llanilsa otlarni hayotchanligi kuchayadi, serpushtligi va konstitusiyasi bo'shashadi, bunday vaqtda xo'jalikdagi nasldor ayg'irlar va xo'jalik sharoitida tarbiyalangan, lekin shu zotga mansub bo'lgan nasldor biya bilan almashtiriladi.

Bunga naslchilik ishlarida "qon tozalash usuli" deyiladi. Uzoq vaqt juftlash qo'llanilganda avlodlarning hayotchanligi oshsada, ularning bir qismi buzilishi mumkin. Buning natijasida ularning eksteryer jihatidan xarakteristik tanlash va juftlash ishlari qiyinlashadi.

Juftlashda biya va ayg'irning yoshiga qaraladi, ya'ni qari ayg'ir biya qo'llanilmaydi. Duragaylash yilqichilikda qadimdan qo'llanib kelingan usul. Duragaylash chatishtirishdan olingan duragay xachir (mo't). Ayg'ir bilan duragay chatishtirishdan olingan duragay (ot xachir). Zebra – yovvoyi holda Afriqada uchraydigan ketgan. Zebra – ot bilan chatishtirilib naslsiz avlod bo'ladi. ular zebra bilan duragay. Xachirlar eramizdan 2 ming yil ilgari qo'llanib kelingan. O'zining kuchilligi va talabchan emasligi, ko'p yashashi bilan farq qiladi. Issiqqa chidamli bo'lgan foydalanish uchun qo'llaniladi. Hozir ham Meksika, Braziliya, AQSh, Afg'oniston va Gretsiyada ko'pdir.

11.4. Nasldor otlarni bonitirovka qilish

Nasldor otlarni bonitirovka qilishning asosiy qoidalari va bonitirovka o'tkazishni tashkil etish.

1. Yilqichilikda naslli otlarni bonitirovka o'tkazishdan maqsad yo'nalishi (instruksiya) va naslchilik kitobida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib nasldor otlarni bonitirovka qilish, ularning nasldorligini baholash (saralangan (elita) biya)

6. Otlarni aniqlashdan iborat). Otlarni nasldorlik qiymatiga ko'rsatkichlari asosida baholash, qaysi sinfga mansubligini aniqlash ularni bonitirovka deb aytiladi.

7. Otlarda bonitirovka o'tkazishning asosiy maqsadi otlarning yo'nalishlari va uning zoti va nasldorlik qiymatini hamda elita birinchi va ikkinchi sinfga nasldorlik qiymatini aniqlashdir.

8. Naslli otlarni bonitirovka qilishda yo'riqnoma (instruksiya) va naslchilik otlarida keltirilgan hamda shu ot bo'yicha xujjatlar asosida aniqlanadi.

9. Instruksiyaga binoan bonitirovka oktyabr, noyabr oylarida o'tkaziladi.

10. Nasldor otlarni bonitirovka qilishda 5 ta ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi.

11. Har bir ko'rsatkich 10 ballik tartib asosida baholanadi.

A) otlarni kelib chiqishi va tipikligi

B) eksteryeri (tana qismlari)

V) tana o'lchamlari

G) ish qobiliyatiga

D) avlodlarning sifat ko'rsatkichi bo'yicha

12. Birinchi bonitirovka 1,5-3,5 yoshida 3 ta ko'rsatkichi bo'yicha: kelib chiqishi va tipikligi, eksteryeri (tana qismlari) tana o'lchamlari

13. Ikkinchi bonitirovka to'rtta ko'rsatkichi bo'yicha: kelib chiqishi va tipikligi, eksteryeri (tana qismlari) tana o'lchamlari va ish qobiliyatiga (3,5-7,5 yosh oralig'ida)

14. Uchinchi bonitirovka beshta ko'rsatkich bo'yicha: otlarni kelib chiqishi va tipikligi, eksteryeri (tana qismlari), tana o'lchamlari, ish qobiliyati, avlodlarning sifat ko'rsatkichi bo'yicha (7,5 yoshdan o'tgandan keyin o'tkaziladi).

Chorvachilikda birinchi marta naslchilik ishlari yilqichilikdan boshlangan.

XVII asrga kelib juda ko'p miqdordagi ot egalaridagi nasldor otlar to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanib to'plam shaklida nashr qilib boshlangan.

Eng birinchisi "Skakoviy kalendar" nomli to'plam 1751-yilda Angliyada nashr qilingan. 1793-yilda Angliyada sof qonli salt miniluvchi nasldor otlarning birinchi to'plam nashr qilingan va bu kitobga shajarasi malum bo'lgan otlar kiritilgan.

Otlarni zotga mansubligi, naslchilik ishlari chatishtirishga ruxsat etilgan yoki o'tkazilish quyidagi talabga mos ravishda o'tkaziladi.

Qonbayir zotli otlarga toza qonli salt miniluvchi, axaltaka va arab zotlarining qonli otlaridan yuqori bo'lmaganda ruxsat etiladi;

Kof qonli salt miniluvchi, axaltekin va arab zotlari bo'yicha ruxsat etiladigan qonli otlarning qondorlik darajasi $\frac{1}{2}$ teng bo'lishi kerak.

10. U yoki bu zot bo'yicha qondorlik darajasi ota-onasining qondorligini yarim qonli otlar bilan aniqlanadi. Shajaraning 5-qatoridan boshlab qondorlik ulushi kam bo'lgan otlar qurab yaxlitlashga ruxsat etiladi. (1/32 yoki 3,12% va undan past bo'lgan otlarni hisobga olmaslik mumkin);

11. Bundan tashqari har yili 6 oylik qulunlarni eksteryeri va rivojlanishi

bo'yicha bonitirovka qilish maqsadga muvofiqdir.

12. Hamma xo'jalikdagi nasldor otlar va ularning duragaylari baholash uchun qilinadi. Bonitirovka o'tkazishda shu sohaning olimlari, malakali mutaxassislar va davlat naslchilik stansiyalarning xodimlari taklif qilinadi.

13. Bonitirovkachi-zootexnik har bir bonitirovka qilingan ot uchun davlat 1 va 2-l formadagi blankalar tuzadi, xo'jalik uchun bonitirovka yakuniy hisoboti yordamida vedomostini to'ldiradi.

14. Nasldor otlar bonitirovka yakuni bo'yicha quyidagi elita, birinchi va ikkinchi sinflarga bo'linadi.

15. Bonitirovka qilingan otlar ballar shkalasi bo'yicha quyidagi sinflarga bo'linadi: Saralangan (elita)-zot talabiga to'liq javob beradigan eng yaxshi otlar.

Birinchi sinf -zot talabini yaxshi qondiradigan otlar;

Ikkinchi sinf -nasl ahamiyatiga ega ko'rsatkichlar talabiga javob beradigan qolgan zotlar.

Har bir sinf uchun hamma ko'rsatkichlar bo'yicha malum ball belgilanadi. Otlar u yoki bu sinfga mos ravishda quyidagi ballar shkalasi bo'yicha eng ko'pincha ball bilan alohida belgilar bo'yicha kiritiladi.

Nasldor otlar sinflari (ballar bo'yicha)

Ko'rsatkichlar	Saralangan (elita)		1 sinf		2 sinf
	Ayg'irlar	Biyalar	Ayg'irlar	Biyalar	
Kelib chiqishi va tipikligi	8	7	6	5	4
Eksteryeri (tana qismlari)	8	7	6	5	4
Tana o'lchamlari	8	7	6	5	4
Ish qobiliyati	6	4	5	3	2
Avlodlarning sifati	8	7	6	5	4

Bu sinfga kirmagan otlar nasldor otlar qatoriga kirmaydi.

16. Zotlarning kelib chiqishi va tipikligi ularni tabiiy holda tabiiy holda zotkorlik xujjatlari asosida aniqlanadi.

II. Kelib chiqishi va tipikligini baholash

Otlarning kelib chiqishi ajdodlarining sinflari bo'yicha baholash uchun malumotlariga qarab, nasldorlik qiymatiga asosan baholanadi.

Baholash quyidagi shkala bo'yicha o'tkaziladi.

Ifodalangan maqul tipiga ko'ra zotlarning bahosi

Zotdorligi	Ifodalangan maqul tip		
	Alo	Yaxshi	O'rt
1-4 bo'g'in duragayi qoni 15/16	8	7	6
Duragaylar:			
1 bo'g'in qoni 7/8	7	6	6
2 bo'g'in qoni 3/4	6	5	4
1 bo'g'in qoni 1/2	4	3	2

1-4 bo'g'in ifodalangan ma'qul tipni baholashda bonitirovkachi-zootexnik har bir xarakteristikasini va shu zotga bo'lgan talabni hisobga olishi kerak.

1-4 bo'g'in bo'g'iniga yoki toza zotga o'tkazish uchun duragay ot tana qonini va ish qobiliyati bo'yicha elita va birinchi sinf talabiga javob berishi kerak.

1-4 bo'g'in otlarning zotdorligi va duragaylarning kelib chiqishi haqida hujjatlar va eksteriyeriga, tipikligiga, ish qobiliyatiga, tamg'alariga qarab va shu otlarning xarakteristikasini biladigan kishilarning ma'lumotlariga asoslanib aniqlanadi.

1-4 bo'g'in zotlu ifodalangan ma'qul tipni baholashda bonitirovkachi-zootexnik har bir xarakteristikasini va shu zotga bo'lgan talabni hisobga olishi kerak.

1-4 bo'g'in zotni o'zaro chatishtirish tufayli olingan birinchi bo'g'in duragaylar bo'yicha zot shkalasi bo'yicha bonitirovka qilinadi.

1-4 bo'g'in qonli, sof zot otlar va ularning duragaylarini 3-4 avlodlari a'lo va 2-3 otlarga erishsa otasi yoki onasi elita bo'lsa, kelib chiqishi bo'yicha ota-onasiga bo'yicha baholadi.

1-4 bo'g'in tashqi tuzilishi (eksteriyerini) va konstitutsiyasini baholashdan oldin, 1-4 bo'g'inlarni bonitirovka qiluvchi va uni ustida ilmiy ish bilan shug'ullanuvchi bo'yicha tana o'lchamlarini bilmasdan bonitirovka qila olmaydi. Shuning uchun ham 1-4 bo'g'in skeletini va tana qismlari nomlarini rentgen ekranida ko'rib turgandek ko'rib olinishi va bilishi zarur.

III. Tashqi tuzilishi (eksteriyerini) va konstitutsiyasini baholash

1-4 bo'g'in tuzilishi bo'yicha uch guruhga ajratiladi: I-boshi, bo'yni, tanasi; II-boshi, tanasi; III-konstitutsiyasi, jussasi, muskullari, paylari, mijozi. Tashqi tuzilishi tana qonini ko'rib olinishi bilan bajariladi.

1-4 bo'g'in tuzilishi "yaxshi", "qoniqarli", "yomon" tartibi bo'yicha baholanadi. 1-4 bo'g'in bo'yicha olingan tashqi tuzilishiga 2 ball, "qoniqarli"ga 1 ball va "yomon" baho 0 ball beriladi. Bu baholar jami belgilar guruhi uchun Ball hisoblanadi.

Qorabayir ot zoti (o'lchamlari sm)

AYG'IRLAR			BIYALAR		
Qarchig'ay balandligi	Ko'krak kurak aylanasi	Kaft aylanasi	Qarchig'ay balandligi	Ko'krak kurak aylanasi	Kaft aylanasi
158	179	20,5	156	180	19
156	177	20	154	178	19
154	176	19,5	152	177	19
152	174	19	150	176	19
151	173	19	148	175	19
150	172	19	149	174	19

Axaltaka ot zoti(o'lchamlari sm)

AYG'IRLAR			BIYALAR		
Qarchig'ay balandligi	Ko'krak kurak aylanasi	Kaft aylanasi	Qarchig'ay balandligi	Ko'krak kurak aylanasi	Kaft aylanasi
160	176	19.5	158	176	19
158	174	19.5	156	174	19
156	172	19	154	172	19
155	170	19	153	170	19

Eslatma: To'rt yosh va undan katta otlar uchun qarchig'ay balandligi nisbatan 1 sm kam bo'lishi hisobga olinmaydi. Agar hisobdagi tana o'lcham bironnisi belgilangan eng kichik ko'rsatkichidan ziyod bo'lsa, qolganlari quyidagi tartibda qo'shimcha ball beriladi: ko'krak aylanasi 5 sm oshganida 1 ball, 10 sm ga 2 ball, kaft aylanasi 1 sm dan ohsa 1 ball beriladi.

61-jadval

Qorabayir otlari uchun yoshiga qarab tuzatishlar

Yoshi	Karchigay balandligi (sm)	Kukurak aylanasi (sm)	Kaft aylanasi (sm)
1,5	1	3	-
1,0	2	6	0,5
0,5	4	10	0,5
1,0	6	15	1,0
1,5	10	20	1,5

62-jadval

Axaltaka zotli otlari uchun yoshiga qarab tuzatishlar

Yoshi	Qarchigay balandligi (sm)	Tananing qiya uzunligi	Ko'krak aylanasi (sm)	Kaft aylanasi (sm)
1,5	1	2	5	0,5
1,0	2	4	7	0,5
0,5	4	6	10	1
1,0	6	9	15	1,0
1,5	10	17	18	1,5

Qalasma: Ko'rsatilgan eng kichik ko'rsatkichdan ko'krak aylanasini 5 sm va ko'proq, kaft aylanasi 0,5 sm va undan ko'proq oshishiga har bir ko'rsatkich 0,5 ball ko'shiladi.

Agar tananing qiya uzunligi qarchig'ay balandligidan 3 sm va undan kam bo'lsa, baho 1 - ballga pasaytiriladi.

To'rt va undan katta yoshdagi otlarda qarchig'ay balandligini 1 sm ga pasayishi hisobga olinmaydi.

63-jadval

Otchopar sharoitida otlarni mashq qildirish va sinovdan o'tkazish ishlarida bu zotlarni yetishtirish maqsadlariga qarab amalga oshiriladi. Masalan, tof qopish boshqa otlarni mashq qildirish va sinovdan o'tkazish ularni sakrab chopishdan tezligini oshirishga, yo'rtoqi otlarni yaxshi va bir me'yorda harakat qila olish, chaqqonligi va bardoshligini, og'ir yuk totadigan otlarning kuchini oshirishga yaratiladi.

Otlarni otchopar sharoitida mashq qildirish va sinovdan o'tkazish usullari ishlarining bir qismi bo'lib, bunda otlarning ishlash imkoniyatlarini tashqi harakatlar bilan gavda ko'rinishini obyektiv baholash, shuningdek, ularning eng yuqori tezlikda naslchilikda foydalanish uchun tanlab olish imkonini beradi. Masalan, otning chaqqonligi ot gavidasining tuzilishi, bardoshligi va naslchilik qiymatiga bog'liq bo'ladi. Chaqqonlik jihatidan rekordchi otlar odatda yaxshi ayg'irlik ham qila oladi, rivojlanish liniyalarining boshlovchisi, oila asoschisi xam bo'la oladi va o'zidan so'ngi avlod sifatli avlod qoldiradi. Shuning uchun ham yuqori darajadagi ishchan (chaqqon) otlar har doim yuksak baholanadi.

Otchilik zavodlari va otchopar sinovlarining rivojlanishiga qarab mashq qildirish yo'rtoqi otlarni mashq qildirishning asosiy prinsiplari belgilandi. Ilgari bu ishlar otchilik qildiruvchi bilan chavandozning xohishiga ko'ra amalga oshirilardi. Zamonaviy veterinariya va fiziologiya fanlarining rivojlanishi natijasida otlarni mashq qildirish tobora sotsial kuzatuvlar predmetiga aylanib bormoqda. Otlarni mashq qildirish va sinovdan o'tkazish MDH olimlaridan A.N.Krestovnikov, L.S.Pirogov, A.A.Yakovlev, A.S.Sulun, R.M.Vosqonyan, O.A.Jeligovskiy va boshqalar katta xissa ko'rsatgan.

Salt miniladigan yo'rtoqi va og'ir yuk tortadigan otlarni mashq qildirish ishlarida davra amalga oshiriladi.

Ot zavodlarida ham otlar mashq qildiriladi.

Yosh otlarni mashq qildirish va minishga o'rgatish

U bilan muomala qilish va uni o'rgatishga kirishishda u juda ham sezgir, o'zlash xususiyatiga ega bo'lgan jonivor ekanligini unutmaslik, yodda saqlash

Uda teri orqali sezish qobiliyati va eshitish kuchli ravishda rivojlangan. U uchun u bilan harakatlar, muloyimlilik bilan astagina bo'lishi, o'nga qo'l o'tkazish ovoz bilan tinglatadigan, yupatadigan holda bo'lishi kerak.

Mashq qildirish qulunlardan boshlanib, ularni dastlabki va oxirgi mashq qildirish qanday maqsadlarda foydalanilishiga qarab amalga oshiriladi.

Hamma ot zavodlarida, fermalarda yosh otlar otxona-yaylov sharoitida mashq va yukka holda chiniqtiriladi. Qulunni guruhlab chiniqtirish ularni sutdan chiniqtirishdan boshlab; yakka tarzda choptiriladigan paytda tugallanadi. Guruhlab chiniqtirishda qulunlarni har kuni galma-gal mashq qildiriladi. Masalan, salt otlarni yugan otlarni qadamlab, yo'rtib va sakrab choptiriladi.

Qulunlarni ikkita chavondozi rahbarligida atrofi to'silgan yo'lakda guruhlab mashq qilish uslubi ham mavjud. Bunda toy va biyalar alohida-alohida chiniqtiriladi. Mashq chiniqtirishning boshlanish davrida choptirish masofasi 2-3 km dan boshlanishi kerak. Bu paytda guruhlab chiniqtirish ularni yaylovda boqish bilan birga oshiriladi.

Salt miniluvchi otlarni zavod sharoitida yakka holda chiniqtirish.

Bu tadbirni amalga oshirishdan maqsad otlarni choptirish va otchopar otlarni tanlash jarayonlari uchun jadval ishlashga tayyorlashdan iborat. Salt otlarni minishga tayyorlashda avvalo egarga, yuganga hamda ustiga chiniqtirish holda yurishga va chopishga o'rgatiladi. Salt otlar bir yarim yoshga chiniqtirish kuzgi paytdan boshlangani ma'qul ko'riladi. Bu paytgacha toylar yugan otlar hunda ustini tozalashda osoyishtalikka o'rgatilgan bo'lishi kerak. Toylar zavodonchalarda minishga o'rganiladi.

Toylar dastlab egarga o'rgatiladi. U egarga o'rganganidan so'ng vazni 40 kg gacha bo'lgan uspirin mindiriladi. Mindirishga o'rgatish 7-10 kungacha davom etadi, bu paytda toy bu yangilikka ko'nikib qoladi. Keyinchalik bir yarim-ikki hafta davomida qulunlab yurishga va yo'rtib yurishga o'rgatiladi.

Toylarni otchoparga yuborish oldidan har haftada bir marta, hammasi bo'lib bir marta 500 m masofaga lo'killatib choptiriladi.

Chopqir otlarni zavod sharoitida mashq qildirish ishlari, otchoparga yuborish ishlari aprelning oxiri va may oylarida tugatiladi.

Qulun yuk tortadigan otlarni zavod sharoitida mashq (individual) qildirish va mashq otlarning toylari bir yarim yoshga chiqqanda bog'lab boqish payti mashq minishga o'rgatila boshlaydi. Ayni paytda ular aravaga qo'shish va tortish ishlari ham ko'niktiriladi.

Toylar dastlabki oyda salt aravani tortishga o'rgatiladi, keyinchalik unga mashq tortish asta-sekin ko'paytirib boriladi. Otlarni har xil shataklarga transport

vositalariga xo'jalik va dala ishlariga o'rgatish mumkin.

Otlarning yuk tortish imkoniyatlari tekis va quruq tuproq yo'lida o'ltash asbobi yordamida aniqlanadi. Yukni yetkazib berish tezligi vaqti kuchi, ot bosib o'tgan masofa bo'yicha maksimal tortish kuchi (yuk ko'tarish ketgan yuk hajmi bo'yicha baholanadi.

12.3. Yo'rtoqi otlarni mashq qildirish

Yo'rtoqi zot toylar hali xo'jalik sharoitidayoq ma'lum belgilan o'tishi kerak. Avvalo qulunlarni odamlar bo'lgan ishonchli reflekslarni kerak. Qulunlarni emib yurgan davridayoq erkalab chaqirib, qo'ldan qand, va shunga o'xshash narsalarni berib, o'rgatib boriladi. ularga baqirib yoki aytib urib muomala qilmaslik kerak.

Qulunlarni kishi o'ziga tamoman o'rganganligiga ishonch hosil so'ng. asta – sekin uning boshiga no'xta kiygiziladi. So'ngra vaqt o'tishi bilan uzun tasma bog'lanib, toyni bir yerda qimirlamay turishga o'rgatiladi. Undan keyin qashlagich bilan tozalashga, oyoqlarini ko'tarishga, tuyoq ostlarini tozalashga boshqalarga o'rgatiladi.

Qulunlar onasidan ajratilgandan so'ng ko'proq toza havoda masofa to'siqli maydonchada erkin harakat qilib yurishi kerak. Ularni yurishga va doimiy mashqga o'rgatishdan oldin guruh – guruh qilib, odimlab, yo'ltirib oyoqlab yurish va chopishga o'rgatiladi. Guruh – guruh qilib mashq qilish choparda yoki ochiq maydonda olib boriladi.

Onasidan ajratilgan qulunlar otxona yoki yaylovda asralishidan qat'iylab juda loyli va ob – havoning yomon kunlaridan tashqari har kuni guruh – guruh mashq qildirilishi kerak. Buning uchun bir yilqiboqar otlanib guruhning oldin yilqiboqar ot minib guruh orqasida va yonboshidan quvib borishi kerak. Guruh 2 – 3 km tez odimlab, so'ngra 2 – 4 km yo'rtib va oxirida 2 – 3 km odimlab qildirilishi kerak.

Yosh otlarni o'sish va rivojlanishiga ularning oyoq paylari muskullarini va nafas olish sistemasini rivojlanishiga qarab mashq qildirish darajasi va ushbu oshirib boriladi. Ularni yurganda alohida – alohida mashq qildirish bo'yicha yetganda, ya'ni bir yoshga to'lganda guruh qilib mashq qildirish masofasi 10 km borishi mumkin.

Yo'rtoqi otlarni otchoparda mashq qildirish va sinash

2-2,5 yoshli toylar otchoparga keltirilib veterinariya kurigidan o'tib karantin e'lon qilinadi. Karantin davrida ular har kuni 4-5 marta otchoparda bo'ylab odimlatib yurgiziladi. Otboqar bu paytda toylarning o'ziga xos individual xususiyatlarini o'rganadi, har bir toy uchun individual mashq rejasi tuzadi. Bu muddati tugagach, toylar trener bulimiga o'tkazilib, ma'lum reja asosida o'qitiladi.

da boshlanadi.

Otchoparda sinash davrida otlar tez yo'rtishning turgunligiga, o'zini tuta olishga, musobaqaga birga chopib borayotgan boshqa otlardan orqada qolmaslikka erishishiga, jilov harakatiga yaxshi moslashishiga, finishga yaqin qolganda o'tni yanada oshirishga va boshqalarga e'tibor beriladi. Shuni esdan chiqarmaslik uchun, mushq davridagi tezlik sinash paytidagi tezlikdan pastroq bo'lgani ma'qul. O'tlarning toylar otchoparda asosan odimlashga, trot, razmashqa, max va yo'rtish usullarida mashq qildiriladi va so'ngra sinaladi.

Yo'rtoqi ot zotlarini kachalkaga qo'shilgan xolda 1600, 2000, 3200, 4800 m masofaga; to'rt gildirakli aravachalarga qo'shilgan xolda 1600, 2400, 3200 m masofaga; minib 1600, 2400, 3200 m masofaga yo'rtib sinaladi. Aravani va minadigan otning og'irligi xisobga olinmaydi.

Yuqorida aytilganidek, ayrim yo'rtoqi otlar ustiga minib sinaladi. Bunday otchoparko'pincha sinash aravalarida yaxshi natijaga erishmagan, kerakli allyurda chopayotgan otlar uchun qo'llaniladi. Otchoparda yo'rtoqi otlarning biyalari 6 yoshgacha, ayg'irlari 10 yoshga qadar salt miniluvchi zotlarning biyalari 4 yoshgacha, otlari 6 yoshga qadar sinaladi. Ayrim yaxshi xususiyatga ega bo'lgan otlarni bu usuldan o'tgandan keyin sinalishi ham mumkin. Otlarning yoshi 1 yanvardan boshlanadi.

Ma'lumki, otchopar aylanasi ellipsga o'xshash yo'lkanadan iborat bo'lib, uning uzunligi 1600 m ni (ayrim otchoparlarda 1067 m bo'lishi mumkin) tashkil etadi. Otlar shu yo'lakchadan choptirib sinaladi.

Sinash va mashqni yaxshi ko'zatib borish uchun dastlab start belgisi, keyin otchopar aylanasi har 400 m ga va masofaning oxirgi (finish) belgi qo'yiladi. Musobaqa o'tkazilayotgan paytlarda chopish yo'lakchalari ko'zdan kechiriladi, otchopar yeri tug'irlanadi, belgilash tekshiriladi, yozda changimasligi uchun otlar ko'zdan yiqilmaydigan darajada suv sepiladi.

Otni musobaqa boshlanishiga bir, bir yarim soat vaqt qolganda 15-20 min 400 m masofaga tez yurttirib choptirilishi, undan oldin unga ozroq konsentrat ozuq va suv berilishi kerak. Musobaqadan so'ng bo'mi va tumshuklari suv bilan yuvilib, bir-ikki kun suv ichiriladi, abzallari yechilib (qishda yopqich yopiladi) terlari artiladi va 40-60 minut davomida klinik ko'rsatgichlari me'yorga kelgunga qadar yetaklab yuriladi. Keyindan keyin bo'lmaga kiritib, suv va ratsionda ko'rsatilgan ozuq beriladi.

Ko'p yillik tajribalardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, otlarni har kuni o'rtacha 10-15 daqiqa uzoq mashq qildirilsa, sinash davrida albatta yaxshi natijalarga erishiladi.

12.4. Salt miniladigan otlarni mashq qildirish va sinash

Otchoparda salt otlarni mashq qildirishning negizida ma'lum masofalarga, har bir vaqt davomida kadamlash, yo'rtish, ma'lum vaqtda ma'lum masofaga chopib kubi harakat mashqlarini bajaradi.

Ikki yashar otlarning mashqlari undan katta yoshlardagi otlarnikiqam qamqam ancha jadal bajariladi.

Bu mashqlarni o'tkazishdan maqsad otlarni tobora murakkablashib ishlash sinashga va ancha yuqori darajada ishchanlik ko'rsatishlariga tayyorlashdan iborat. Buning uchun mashq o'tkazishning mavjud usullarini takomillashtirish va o'tkazish miniladigan otlarni sinashga ancha muvoffaqiyatli tayyorlash imkonliki ta'minlash yangi mashq qoidalari ishlab chiqilishi kerak.

Otlar otchoparga keltirilgan dastlabki kunlarda faqat qadamlatib yurguziladi. Keyinchalik ular otchopar sharoitiga kunikishganidan so'ng turli usulda katta masofalarda choptirishlar, turli masofaga poyga masofaga o'rgatiladi. Lukillatib choptirishlar bir haftada bir marta amalga oshiriladi.

Nomli va an'anaviy sovrinlar har yili belgilangan muddatlarda ishlatiladi. Musobaqalarga chopish tezligi yuqori bo'lgan otlar qo'yiladi.

Otchopar sharoitida sinash xillari. Turli – zot (yo'rtoqi, salt miniladigan otlar, yuk tortuvchi) otlar uchun har xil sinovlar o'tkaziladi. Salt miniladigan otlar poyga va to'siqlardan o'tishda sinaladi. otlarning yoshi har xil bo'lganligidan ular poyga va to'siqlardan o'tishda sinovlardan o'tkaziladi.

Chopish masofasi: ikki yoshli otlar uchun – 1000, 1200, 1400 va 1600 m; uch yoshlilar uchun – 1200, 1400, 1500, 1600, 1800, 2000, 2400, 2800 va 3000 m; to'rt yoshli va undan yuqorilar uchun – 1200, 1500, 1600, 1800, 2400, 2800, 4000 m. Ushbu masofalar tashkil etishi kerak.

Olti yoshda bo'lgan salt miniladigan yarim qonli otlarni yanada tobora tobora masofaga choptirish sinash mumkin.

To'siqli joylarda uch yoshli va undan ortiq otlar qo'yiladi. Salt miniladigan otlarni sinovdan o'tkazishda chavondozning vazni xam katta ahamiyatga ega. Uch yashar otlar uchun chavondoz bilan egarning vazni 57 kg dan, uch yasharlari to'rt yoshli kg, to'rt va undan katta yoshdagilar uchun 60 kg (biyalar uchun bu yuk 2 kg gacha bo'lishi kerak) dan oshmasligi kerak.

Salt miniladigan otlar poyga va to'siq joydan tashqari stipil chezi (yoki stipil) tabiiy to'siqlardan o'tish poygasi) o'yini va 3000-7000 m gacha poyga musobaqasiga xam sinovdan o'tkaziladi. Stipilchez musobaqasiga besh yoshdan oshgan otlar qo'yiladi.

Ayrim joylarda chala zotli otlarni sutkasiga va bir necha kun davomida 1000 m km masofaga choptirish kifoya qiladi.

Yo'rtoqi otlar yoshiga qarab maxsus ikki g'ildirakli yengil aravalarida har xil masofaga mashq qildiriladi. Aravakash bilan tachankaning vazni limitlanadi. Ikki yashar otlar 1600 m masofaga (bir tomonga) uch yashar otlar 1600 m masofaga har ikkala tomoniga, turt yoshdan oshganlari 1600 m masofaning ikki va uch tomoniga 2400 va 3000 metr masofaga choptirilgan holda sinaladi.

Bundan tashqari, yo'rtoqi otlarni kachalkada, yuzni manzilga yuzni tezligiga, egarlanganda lukillab choptirib sinash xam mumkin, bu musobaqalar

va undan ortiq yoshdagi otlar qo'yiladi. Odatda beshta-oltita va undan ortiq otlar guruhlarga ajratilgan holda sinovdan o'tkaziladi.

Ushbu otli izvosini sinash uchun otlarning xamma zotlari, istagan jinsdagilari ham mumkin, lekin bunda o'rtacha qo'yilgan ot to'rt yashardan, ikki yoniga tashqari esa uch yoshdan kichik bo'lmasligi kerak. Qishda chanada 1600, 2400, 3200 masofaga choptiriladi. O'rtadagi ot yo'rtib, chapdagilari yugurib chopishlari

otchopar sharoitidagi sinovdan otlarning axvoli doimiy ravishda har xil holatda bo'lib turishi shart. Masalan, fiziologik jihatidan nazorat qilish, otlarning mashq qilish qildirganligini, ularni asrash, oziqlanish, mashq qildirish va mashq muqobil rejimlarini aniqlash imkonini beradi. Zootexnika nazorati otlarning umumiy va umumiy axvolini, semizligini, tashqi ko'rinishini, xulkinini, oziqlanish rejimlarini tuzatib borish xamda ishlash xususiyatlarini takomillashtirish masalalarini o'z ichiga oladi.

Otlardan tashqari, veterinariya nazorati xam olib boriladi. Bunda otning funksional faoliyatidagi chekinishlar o'z vaqtida aniqlanib, profilaktik tadbirlar amalga oshiriladi. Yuqumli kasalliklar va shikastlanish holatlarining oldini olishga alohida e'tibor beriladi. Zootexnik va veterinariya nazorati bir-biriga bog'langan holda amalga oshiriladi.

Ular bir otchoparda otlarni sinash uchun sud kollegiyasi tashkil etiladi. Sud kollegiyasiga bosh sudya, sekretar, ikkita sudya, otchopar ishlab chiqarish korxonasi vakili va starter kiradi. Otlarni sinovdan o'tkazishda sud kollegiyasining vakillari zarur xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bo'ladi. Ular otlarni sinovdan o'tkazish belgilangan qoidaga muvofiq ish olib borishadi.

Otchoparda barcha sinov natijalari qat'iy hisobga olib boriladi. Bunda har bir sinov haqidagi sud kollegiyasi tomonidan tuzilgan protokol asosiy xujjat hisoblanadi. Protokolda havo sharoiti, yo'lining xolati, har bir musobaqa va poyganing natijalari, qullangan o'mi, otlarning musobaqadan chetlatilish sabablari va boshqa omillar ko'rsatiladi. har kaysi ot uchun sinov natijasi yoziladigan ikki nusxada individual hisobot tuzilib, bittasi otlarning egasiga yuboriladi, ikkinchisi esa otchoparning hisobotiga qo'shiladi.

Salt miniluvchi otlarni otchoparda sinash

Salt miniluvchi otlarni otchoparda mashq qildirishning yo'rtoqi otlarni mashq qilishdan birdan-bir farqi ularni xo'jaliklardan shu otlarni minib kelgan otchoparlarga o'tqazish, otboqarlar mashq qildiradilar va sinaydi. Chunki bu o'rgatuvchi va mashq qiluvchi o'z otlarining fe'lini yaxshi biladilar. O'rgatuvchilar otchoparning sinash natijalarini o'z qo'l ostidagi otlarni tayyorlash va sinash uchun alohida reja tuzib

Salt miniluvchi otlarni poygada sinashga tayyorlangan kishining shaxsan o'z o'zini chopishi, sinash kuni ertalab otni faqat yetaklashi, musobaqaga 2-3 soat

vaqt qolganda 900-1000 g konsentrat ozuq va yarim chelak suv berishi kerak. Musobaqa boshlanishiga 30 min qolganda egar va yugan uriladi. Chavandoz o'rtirgach, o'rgatuvchi ayilni maxkam tortilgan-tortilmaganligini yana bir marta tekshirib ko'radi. Sudyaning uchinchi unrog'idan so'ng, chavandoz otlarini masofaga tez choptirib musobaqaga tayyorlaydi.

Ikki yoshli otlarni sinashda kamchilash yoki taqimlash mumkin emas. Otlar tezligi chopish aylanasining hamma qismlarida deyarli bir xil bo'lishi kerak. Tezlik bir me'yorda bo'lmasa, ot finishga kechiqib kelishi mumkin. Chavandoz o'z kuchini har xil sarflaydi va tez charchaydi. Shuning uchun chopish masofasini to'g'ri xisobga olish, otlarning qobiliyatini to'g'ri xisobga olish, otlarning qobiliyatini yaxshi urganish va uni turli kislmlarda to'g'ri taksinlash chavandozning muvaffaqiyatli bog'liq. Ot finishga yetib kelgandan so'ng boshqa otlar singari sovitiladi.

Ikki yoshli ayg'irlarni sinashda chavandozning og'irligi egar bilan bog'liq. 1 yoshli ayg'ir 57 kg, 3 yoshli 58 kg, katta yoshli otlar 59 kg, biyalarni sinashda esa og'irlikni ko'zda tutqanida chavandozning og'irligi 2 kg kam bo'lishi kerak.

12.5. Og'ir yuk tortuvchi otlarni mashq qildirish va sinash

Og'ir yuk tortuvchi otlarni mashq qildirish ba'zi bir tomonlar bilan mashq zotdagi otlarni mashq qildirishdan ajralib turadi. Masalan, bu zotdagi otlarni mashq qildirishda e'tibor asosan ularning ish qobiliyatini oshirishga qaratilgandir.

Og'ir yuk tortuvchi zotlarini sistematik mashq qildirish ilk bor 1880 yilda boshlandi va 1930 yilda Rossiya yilqichilik ilmiy – tadqiqot instituti tomonidan sistematik mashq qildirishning muayyan sxemasi ishlab chikildi. Bu sxemada og'ir yuk tortuvchi otlarning ish qobiliyatini oshirish, pishiqiligini, odimlab va yo'rtish qobiliyatini rivojlantirish kerakligi aniq kursatilgan edi. Hozir ot zavodlarida og'ir yuk tortuvchi otlar manna shu instruksiya bo'yicha mashq qildirilmoqda.

Qulunlar onasidan ajratilgach, birinchi yilgi guruhlariga bo'linib, 6000 m yurg'ochilari bilan bir muddatda ikkinchi yili aloxida – aloxida mashq qildiriladi. Og'ir yuk tortuvchi otlarning tekis yullarda chanalar, turli tipdagi aravalarga qo'yib mashq qildirish kerak.

Mashq qildirishning dastlabki 5 oyi mobaynida og'ir yuk tortuvchi otlarning og'irlik – 30 kg tortish kuchida odimlatib va sekin yo'rtiriladi oy sayin og'irlik va yo'rtish kuchini ko'paytirilib boriladi. Otchoparlarning mashq planida 2 yoshli otlarni mashq qildirish nixoyasiga yetay deb qolganda ikki kun 8km masofaga kuchli mashq qildirish belgilangan. Mashq oxirida tortish kuchi yengil otlar uchun 170 kg ga og'ir otlar uchun 230 kg ga yetkazishi lozim. 2,5 yoshli otlar mashq qildirib bo'lgandan keyin ularning ish qobiliyati kompleks rivojlanishi kerak. Bu o'tkaziladigan maxsus sinashni tekshirib krliladi.

Og'ir yuk tortuvchi nasildor otlarning sinashning quydagi usulari mashq qildirish va sinash ma'lum tortish kuchida otlarning odimlash va yo'rtish qobiliyatini oshirishga

...ni 200 – 300 kg tortish kuchida bosib o'tish qobiliyatini va maksimal tortish kuchining rivojlanish darajasini aniqlash yordam beradi.

Rossiya yilqichilik ilmiy - tekshirish inistituti tomonidan doymii mashq qilishning sxemasi ishlandi. Bu sxemada asosan og'ir yuk tortuvchi otlar kuchliligi, tezligi, odimlar va yo'rtish, yuk tortishi, yurish aniqligi va ishni bajarish tezligi bo'yicha mashq qildirishi kerak. Xozir ot zavotlarida shu instruksiya bo'yicha og'ir yuk tortuvchi otlar mashq qildiriladi.

Qulunlar onasidan ajratilgandan so'ng guruh qilib mashq qildiriladi. Bir yoshga qadar ayg'ircha va biyachalarni bir guruh qilib mashq qildiriladi. So'ngra ayg'ir ayg'irchalarini va biyachalarini bir- biridan ajratib, aloxida yilqi tashkil etiladi.

Onusidan ajratilgan yosh toylarni guruh – gurppa qilib ochiq maydondan o'tkazilgan belgilangan marshrut bo'yicha yilqiboqar boshchiligida mashq qildiriladi. Kuzga kelib 1,5 yoshli toylarni minishga o'rgatiladi. So'ngra ularni sistematiq mashq qilish boshlanadi. Haftaning 6 kunida toylar turli nagruzkada mashq qildiriladi, bir muddat maxsus maydonchada dam beriladi va odimlatib yengil mashq qildiriladi. Og'ir yuk tortuvchi otlarni chanalar, turli aravalarga qo'shib mashq qildiriladi. Bunda mashq qiladigan yul albatta tekis bo'lishi kerak.

Dastlab 5 oy mobaynida og'ir yuk tortuvchi otlarni o'zgarmas ish normasida 100 kg tortib odimlatib va sekin yo'rttirib mashq qildiriladi. Oy sari kunlik mashq qilish masofani o'zaytirib boriladi va uni 10 – 11 km ga yetkaziladi. 2 yoshli otlarni mashq qilishida ikki kun davomida 8 km masofaga kuchli mashq qildiriladi. Bunda 100 metr masofani bosishda xafta sari tortish kuchini oshirib borib, mashqning kuchini yengil otlar uchun 170 kg va og'ir otlar uchun 230 kg ga yetkaziladi. 2,5 yoshli otlar mashq sistemasini shunday tamomlashi kerakki, bunda ularda kompleks ish bajarish qobiliyati juda yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Shundan so'ng ularni maxsus mashq bilan tekshiriladi.

70 – jadval

Og'ir yuk tortuvchi nasldor otlarni sinash

Yo'rtib 2 km ga (min. sek)	Qadamlab 2 km ga (min.sek)	3 va undan ortiq yoshli otlarni metr xisobiga tortishga bar-doshligi	Ball xisobida
1,20 va yuqori	15,30 va yuqori	450 va yuqori	10
5,30	16,00	400	9
5,45	16,30	350	8
6,05	17,00	300	7
7,00	18,00	200	5
7,30	18,30	150	4
8,00	19,00	100	3
8,30	19,30	50	2

Og'ir yuk tortuvchi otlarni 4 ta har xil turi bo'yicha sinash

1. Qadamlab tezlikda yuk tortishi
2. Yo'rtib tezlikda yuk tortishi
3. Yuk tortishdagi chidamliligi
4. Eng yuqori tortish kuchi bilan

Sinash sharoitlari va uning turlari zotning tanasining kattaligiga bog'liq belgilanadi. Tezlik bo'yicha sinalganda masalan 10 ball xisobida amalga oshirilgan km masofani 5 minutda 20 sekunda yo'rtib bosib o'tsa 10 ball, qadamlab 10 km 20 sekunda bosib o'tsa 10 ball beriladi.

Agar shu masofani 6 minut 30 sekunda qadamlab 17 minut 30 sekunda yo'rtib o'tsa 6 ball beriladi. Ball xisobida baholash 1 jadvalda berilgan.

Shuni aytish kerakki, nasldor otlar og'ir yuk tortuvchi otlar bo'yicha o'z ishlarini tashkil etishda ularni sistematiq mashq qildirishga va sinashga ko'proq e'tibor berib kelinmoqda. Zotan, kelgusida naslchilik ishlari darajasini yaxshilashda va uning natijalariga qarab baholash katta ahamiyatga ega. Nasldor og'ir yuk tortuvchi otlarning maksimal tortish kuchini sinash A.V.Volkov asbobidan foydalaniladi.

Tortish kuchi dinamometr (kuch o'lchagich) bilan aniqlanadi. Dinomometr prujina taroziga o'xshash bo'lib, unga o'zi yozar asbob o'rnatilgan. Bu asbob ish yurganda (ish bajarganda) yo'lning ayrim uchastkalaridagi tortish kuchini o'lchay boradi. Otning tortish kuchini aravaga qo'shilgan paytda o'lchashga ehtiyoj tugay paytda dinamometr ot tortadigan valik bilan arava o'rtasiga o'rnatiladi. Dinomometr aniq o'lchash talab qilingan ilmiy ishlardagina qo'llaniladi. Masalan, yaxshi mashq qilib sinalgan sovet og'ir yuk tortish fors laqabli ot 22991 kg ni masofaga eng yuqori tortish kuchi bilan tortgan.

Tuliq abzallangan otni dastlabki ishga o'rgatish

Yo'rtoqi zotga mansub yosh toylar sistemali mashq qildirishga 1,5 yoshdan boshlab o'rgatiladi. Bu davr O'zbekiston sharoitiga aprel-may oylariga to'g'ri keladi. Mashq qildirishning dastlabki davri qishda o'tkaziladigan mashqlarni takrorlab yosh toylarni abzallarga o'rgatishdan boshlanadi.

Mashq qildirishda toylar yoshi va umumiy rivojlanishiga qarab guruhlar ajratiladi, yo'rtoqilari odimlatib sekin va tez yuritirib razmashka va max kabi usulda yurgizib o'rgatiladi.

Mashqning dastlabki paytlarida toy chopishga intiladi. Lekin bu yo'l o'rgatuvchi uni tez choptirishga yo'l qo'ymasligi trot va razmashka usulida hadda to'xtatib yuritirib o'rgatishi jilov orqali yengil boshqarishi chapga va o'nga oson bo'lishi toylar og'zini yuganga urdirmasligi kerak. Aks holda toylarda paylarning cho'zilishi va oqsash hollari uchrashi mumkin. Agar toylarni jilov orqali boshqarishga yo'l qo'yib o'rgatilmasa, keyinchalik ularni boshqarish qiyinlashadi. Bundan tashqari toylar ovoza o'rgatish ham katta ahamiyatga ega.

Atashqdan so'ng o'rgatuvchi yoki otboqar toyni yaxshilab ko'zdan kechirishi, uning paylarni qo'l bilan siypab ko'rishi, yugan «urgan» yoki «urmagan»ligini tekshirib, ozuqa berib ko'rish kerak.

Toylar ikki yoshga yaqinlashishi bilan mashq me'yori asta-sekin oshiriladi. Harakat qilgandan keyin o'zini yomon his etsa, uni vaqtincha tez harakatli yurishdan ozod qilib o't ekilgan maydonda erkin yurishi uchun imkoniyat yaratmoq kerak. Faqat sog'ayib ketgandan keyingina uni o'rgatuvchi individual plan asosida o'qitirishni davom ettiradi.

Matematik mashqlar nihoyasida har bir toy 1600 m masofani 3 min.da tez yurishi kerak. Shu talabga javob bergan yo'rtoqi toylarning birinchi guruhi dekabr oylarida O'zbekiston sharoitida sinash o'tchoparga jo'natiladi.

12.6. Toylarni minishga o'rgatish

Toylarni yuganga o'rgatishdan oldin no'xtaga bog'langan tasma bilan yurishga o'rgatiladi. So'ngra no'xtaning ustidan yugan kiygizilib yurishga o'tkaziladi, bunda toyni yugan ipidan emas, no'xta ipidan yetaklanadi. Qulunlar yuganga yaxshi o'rgatilganda so'ng, 8 – 9 oyligida ularni maxsus qurilgan yopiq xonada (manej) yoki ochiq havoda tekis yerda uzun tasma orqali boshqarib, aylanib o'tkaziladi.

Yopiq xonada toyni uzun tasma bilan boshqarmasdan aylanib chopishga o'tkaziladi. Buning uchun o'rgatuvchi xonaning o'rtasida turib, uzun qamchi bilan toyni chopishini boshqaradi, boshqarishda uni o'ngga, chapga tez – tez burilib o'tkazish alohida e'tibor beriladi. Birinchi dars 15 – 20 minutdan oshmasligi kerak. Keyin ularni uzun tasma orqali boshqarib yo'rtishga o'rgatiladi, bunda harakat har 5 minutda o'zgartib turiladi. Choptirish muddatini asta – sekin 35 – 40 minutga olib boriladi. Muskullarini bir tekisda rivojlanishi uchun chapga va o'ngga choptirish muddati bir xil bo'ladi. Toyni kalta aylanmasligi uchun boshqarish vaqtida uzunroq 5 – 6 metr qilish kerak. Mashq davrida toyni bir yurish harakatidan ikkinchi yurish harakatiga o'tkazish asta – sekin, qo'rqitmasdan bo'lishi kerak. Agar xonada xona ichida mashq davrida toy terlab ketsa, to'ni qotib nafas olishi va xonadan chiqishi normallashtirishga qadar xona ichida odimlar yurgizishni davom ettirish kerak.


Arava va kachalkaga qo'shiladigan toy jilovga o'rgangan bo'lishi kerak. Arava kachalka (2 gildirakli sport aravasi faqat) egar jabduqqa. Yuganga jilov orqasi o'ralib, o'ngga chapga burilishga va to'xtatishga to'liq o'rgangan toylargina o'tkaziladi. Egari jabduq urilgan yoki aravaga qo'shilgan toy aravakashning harakatiga to'liq bo'ysinadi va u talab qilgan yurishda yuradi. Aravaga qo'shishdan oldin toy yurgan o'ringa va jilovga o'rgangan bo'lishi kerak. Buning uchun no'xta bilan o'ralgan yugan bilan nuqtaning uzun tasmaidan ushlab bir necha dars o'tkaziladi. So'ngra unga egar-jabduq o'ralib, avval no'xta ipidan, so'ngra jilovdan

ushlab yurishga o'rgatiladi. Bu dars to toy yuganga va jilov orqali boshqarishga o'rganguncha qadar takrorlanaveradi. Toylarni yuganga, jilov orqali boshqarishga, egar-jabduqga o'rgatishga shoshilmaslik kerak, aks holda yaxshi natija bermaydi. Egari-jabduqga, bgang, jilov orqali boshqarishga o'ngga, chapga burilishga, boshqarishga va yana boshqarishga) to'liq o'rgangandan so'ng, uni qo'shib choptirish uchun to'rtinchi darajaga aravaga qo'shishga o'rgatiladi. Qishda ularni chanalarga qo'shib choptirish uchun bahorda esa maxsus ishchi-aravalarga (kachalka) qo'shib yurgiziladi. Toylarni yugatish kungi bunday mashq qildirish 30-40 minut davom etadi va bunda 3-4 km masofa bosiladi. Ularni to charchab qolgunga qadar yurgizish maqsudga ega bo'lgan hisoblanmaydi.

Issiq kunlarning boshlanishi bilan mashq to'xtatilib, ularni 1,5-2 oy davomida qo'yib yuboriladi. So'ngra ular 1,5 yoshga to'lgandan so'ng doimiy mashq qildirishga o'tiladi. Har bir toy uchun belgilangan individual mashq boshlashdan oldin minib va yurish bo'yicha o'tgan mashqlar takrorlanadi. Eng muhim asosiy mashq qildiruvchi toylarning yoshiga, rivojlanishiga va mashq bajarish qobiliyatiga qarab guruhlarga bo'ladi. Har bir guruh uchun kalendar ish rejasi tuziladi. Ish rejada yuritish turlari (allyur) va yaylovga olib chiqish vaqti ko'rsatiladi. Yurish rivojlangan, o'rta semizlikda bo'lgan va mashq bajarish qobiliyati yaxshi bo'lgan toylar tezroq mashqlarni bajarishga o'tkaziladi va ular otchoparlarga bajariladi.

Mashqlarning dastlabki davrlarida og'ir ishda ishlatish yaramaydi. O'zbekistonda marta 1500-2000 m yursa yetarli hisoblanadi.

Agar tez harakatli mashqdan so'ng ot o'zini yomon his qilsa, to'xtatilib, otning tanasida og'riq sezsa) uni vaqtincha tez harakatli mashqdan o'zini qaytarib olingan maydonda erkin yurish uchun imkoniyat beriladi. Tuzalib ketgandan so'ng trener rahbarligida individual planga muvofiq mashq qildirishga davom etiladi. Doimiy mashqning oxirida har bir toy 1.600 metr masofani 3 minutda bajarishga erishib bosishi kerak. Shu talabga javob bergandagina uni ot choparga jo'natiladi. Yurish toylarning birinchi guruhi setyabr-oktabr oylarida (O'zbekiston sharoitida) ot chopariga jo'natilish uchun jo'natiladi, bu davrda ularning yoshi 2,2-2,6 ja bo'ladi.



70-rasm

12.7. Uzun tizgin yordamida bog‘lab, otlarni mashq qildirish

Ot sporti amaliyotlari shuni ko‘rsatadiki otlarni uzun tizginda ushlagan holda aylantirib mashq qildirish ularni jismoniy jihatdan yaxshi tayyorlashga va maxsus bog‘lab mashqlarni bajarishlari uchun kerakli bo‘lgan dastlabki tayyorgarlikdan otlari uchun eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Otlar uzun tizginda ushlab turgan holda aylantirib mashq qildirish, ya‘ni aylana bog‘lab harakatlantirish ulardan insonga nisbatan ishonch hissini oshiradi, uning o‘ziga o‘rganishi bilan bir vaqtda unga tushuna boshlaydi va berilgan barcha mashqlarini darhol bajaradi, har xil harakatlarni tekis va bir maromda bajarishni o‘rgatadi.

Bu usul ayniqsa, har xil sabablarga ko‘ra (qarchig‘ay urilishi) minish mumkin bo‘lgan otlarni mashq qildirishda juda qo‘l keladi. Bundan tashqari otlarni poyga olib chiqishda agar ular juda serharakat bo‘lib, ularni bir joyda to‘xtatib turish va boshqarish uchun bo‘lgan paytlarda ularni tinchlashtirishda, ularni va o‘zlarini erkin tutishga o‘rgatishga mashq qildiriladi. Ularda to‘siqlardan sakrash oldidan kuzatiladigan qo‘rquvchilik va asablarning tajanglanish holatidan chiqarish va o‘zlarini erkin harakatga o‘rgatishda, yosh otlarda kuzatiladigan ortiqcha kuchni sarf qildirishda, hamda yoshdagi otlarda ularni boquvdan chiqargan paytda egarlab minishdan oldin otlardagi ortiqcha energiyani sarflashda juda qo‘l keladi.

Otlarni aylana bo‘ylab mashq qildirish faqat, yuqori malakali chavandozlarga

topshiriladi. Mashq qildirish maxsus mashq qildiruvchi rahbarlar o'ziga individual (alohida) reja asosida amalga oshiriladi avval oddiy usuldan boshlab sekin murakkablashtirilib boriladi, bu tajriba asosan yosh otlar uchun qo'llaniladi. hurkak va tez otlarni mashq qildirishda juda hushyorlik va hushmuomillik talab qiladi.

Otlarning aylana bo'ylab mashq qildirish har bir otning individual o'ziga xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Juda xurkak va tez otlarni mashq qildirish juda hushyorlik va izchillik bilan boricha xushmuomillikni talab qiladi.

Aksincha, juda yuvosh va sekin harakat qiladigan otlarni mashq qildirishda juda baland ovozda agar bu ham foyda bermasa yanada jiddiyroq usullarni qo'llanish yo'li bilan uni oldinga tezroq harakat qilishga majburlash lozim. Agar uning harakatini mashq maboytida yana sekinlashsa unga maxsus qamchi bilan tezroq harakat qilishga majburlash kerak. Tezligini oshirsa uni ortiqcha majburlashning hojati yo'q.

Bularning hammasi qisqa vaqt ichida ro'y berishi kerak.

Otni o'ynatish uchun pishiq arqonli ip uzunligi 5 m, qalinligi 5-6 sm bo'lgan ip uchiga charm qayshga o'ratilgan temir to'g'a zanglamaydigan metallardan bir qancha otning no'xtasiga berkitilib bog'lanadi. Ikkinchi uchi esa qo'lida ushlash uchun moslashtirilgan.

Uzun qamchi, darra, otlarni me'yorida bajarishda harakat tezligini oshirish uchun foydalaniladi. Uzun qamchi odatda dastali va uzun tasma qayishdan yoki yog'ochdan yasalgan bo'ladi. Uzunli 1.4-1.5 m gacha, bazi bir shaxsiy qamchilarni uzunligi 1.1 m gacha bo'ladi. Bu qamchilar otni mashq qildirishda jokey (ot o'rgatuvchi) va chavandozlar keng foydalaniladi.

Otlarni oyog'iga kiydiriladigan moslama otlarni tuyoqlarini, oyog'ini va to'siqlardan sakraganda shikastlanishdan saqlaydi.

O'ta og'ir to'siqli joylarda oldingi oyog'iga to'jaligicha plastil yoki qum bilan kiydiriladi. Shuningdek, maxsus bintlarga paxtani o'rama qo'shib, uyog'ini kiydirib bog'lanadi.

Bu moslamalarning to'g'ri o'ratilganligi yana bir karra ko'zdan ko'chirilishi kerak.

Otlarni mashq qildirishni belgilashda, asosan, ikki kishi chavandoz va yordamchisi bo'lishi kerak. Yordamchi otni aylana bo'ylab kerakli yo'nalishda harakat ettirib yetaklaydi. Chavandoz esa arqonning uchidan ushlagan holda maydon markazida turaladi.

Arqonni qo'lga o'rash, bog'lab olish qat'iy man qilinadi. Mashq qildirishda chavandozning holati, maydonchani qoplamasi (qum, tuproq) va boshqa omillar muhim ahamiyatga ega.

Chavandoz otni mashq qildirishning dastlabki daqiqalarida maydon o'rtasida kichik radius bo'ylab otni boshini va harakatini nazorat qilib boradi. Ot harakatini tezlashishi bilan yordamchi aylana bo'ylab o'z harakatini davom ettirgan holda...

otni qo'yib yuboradi. Yordamchi otni qo'yib yuborgandan keyin otga arqon holda aylana bo'ylab harakat qilib, otdan sekin uzoqlashadi va chetga chiqadi.

Agar ot kerakli jadallikda harakat qilmasa, bu yerda yordamchi uni qamchilab otning vazifasini bajaradi, bunda agar ot aylana bo'ylab o'ng tomonga harakatlanayotgan bo'lsa qamchini chap qo'lga ushlaydi va aksincha chap tarafga harakatlanayotgan bo'lsa o'ng qo'lga olingan holda maydon markazidan otni tezroq harakat qilishga undaydi. Tajribali chavandozlar yordamsiz ham ishlay oladilar. Chavandoz agar ot aylana bo'ylab o'ng qo'lga ushlagan holda agar chap qo'lga harakat qilayotgan bo'lsa aksincha arqon chap qo'lga qamchini esa o'ng qo'lga ushlagan holda harakat qilinadi.

Qamchini shunday ushlash kerakki uning dasxini qalin uchi katta, borish tomon harakatlanishi, yumshoq uchi esa chavandozdan bir oz orqaroqda yerga tegib turishi kerak. Qamchini shu holatda ushlaganda, otlar asosan yosh otlar unchalikda harakatlanadilar. Otlar harakatlana boshlagandan keyin esa qolganining dastasini harakatlanish holatiga otgan tomon yo'naltirilgan holda ushlanib og'iz bo'shlig'idan tilni harakatlantiruvchi ovoz chiqarish kerak. Otlarning harakatini tezlashtirishi uchun otning og'zini o'zi kifoya qiladi. Agar bu tadbir yordam bermasa, ya'ni ot bunga e'tibor bermasa, qamchini dastasini uchi kichgina barmoq tomonga yumshoq qismi esa otning og'zini bo'g'inidan bir oz balandroqqa yetadigan holda ushlanadi.

Avval otni bo'ysindirish uchun 4-4.5 m aylana bo'ylab harakat qildiriladi. Otlar ot orqa oyoqlari bilan tepib yuborishdan saqlaydi.

Otlarni aylana bo'ylab mashq qildirishda avval ularni uch xil harakatni o'z ichiga olgan odimlab, yo'rtib va qo'sh oyoqlab chopishga, bu harakatlarni bajarganda otning harakatlanishini tartib ketmasligi, ya'ni chavandozni tartib ketmasligi va tekis harakat qilishi kerak.

Otlarni mashq qildirishda yuqorida aytib o'tilgan omillarni xisobga olish kerak. Ayniqsa otlarni kavalettidan foydalangan holda juda intensiv mashq qildirishda otlar harakatlanishidan sakrash va boshqa murakkab mashqlarni bajarishda).

Agar qum bilan qoplangan yog'och qirindisi bilan qoplangan yoki o'tloq bilan qoplangan maydonchalar mavjud bo'lsa bulardan eng yaxshisi birinchi ikki maydonchalar foydalaniladi. Bu maydonchalar yuqori namlikka ega bo'lgan holda otlar umuman harakatlanishdan qo'rqmaydi. Har safar otlarni mashq qildirishning tugashi bilan bu maydonchalarning yuqori qismini to'xtatki bilan tekislab chiqiladi va yengil boranalarda yumshaladi.

Sport otlarini mashq qildirish uchun mo'ljallangan maxsus moslamalar va maydonchalar ichida kavaletti muhim o'rinni egallaydi. Bu yupqa yog'och taxtadan yasalgan maxsus moslama bo'lib to'rtburchak shaklida bo'ladi uzunligi 2-4 m gacha bo'lgan bo'lsa mumkin, ikkinchi turiga yog'ochdan yasalgan maxsus moslamalardan iborat.

Ushbu moslamalar yordamida otlarni mashq qildirish vaqtida yarim aylana yoki aylana harakatlarni bajarish uchun maxsus yo'laklarga yoki to'siqlarga barpo etiladi.

Otlarni kavaletti yordamida aylana bo'ylab mashq qildirganda asosan 3 ta

yo'lakcha barpo etiladi, ya'ni ichki, o'rtangi va sirtqi. Bunda ichki yo'lakcha kavalettsiz ishlash uchun o'rtangi yo'lakchani kengligi 80 sm bo'lib o'qimlab yurishini va sirtqi yo'lakcha kengligi 1.30 sm bo'lib otlarni yo'rumb qildirishda foydalaniladi. Otlarni mashq qildirishdan oldin chavandoz (masalan eksteryerini alohida xususiyatlarini mashq qildirish darajasini hisobga olib kavalettilar yordamida yo'lakchalarning kengligini va radiusini belgilaydi va otlarning harakat doirasini kengaytiradi yoki aksincha qisqartiradi. Otlarni yo'lakcha bo'ylab 6-7 marotaba mashq qildirgandan so'ng ularni tashqi yo'lakcha o'tkaziladi va yana 6-7 marotaba tashqi yo'lakcha mashq qildirgandan so'ng ichki yo'lakchaga mashq qilgandan so'ng amalga oshiriladi. Otlarni o'z buyruqlar asosida itoatkorlikka o'rgatish mashqni o'z vaqtida bajarishga olib Otlarni doimiy ravishda mashq qildirish butun organizmni yaxshi rivojlanishiga va sun'iy, oddiy va murakkab mashqlarni to'g'ri bajarishga olib keladi. Hech qachon mashq qildirish tartibini buzmasligi oddiy mashqlardan murakkab mashqlarga o'tib borishi kerak, bu esa vaqt o'tishi bilan chavandoz o'rtasidagi munosabatlarning jipslashib borishiga olib keladi.

Sakratish sport otlarini tayyorlash va ularni takomillashtirish chavandoz va sportchilarning oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi va ular bu ishda doimiy izlanishda bo'lishlari kerak. Otlarni aylana sakratish ularning to'siqlardan sakrashga diqqatini oshiradi va sakrash jarayonini yaxshilashga olib keladi. Ayniqsa to'siqlardan o'tish va uch kurash o'yinlariga natijalarga erishadi.

12.8. Mashq qildirishda ishlatiladigan anjomlar

Yo'rtoqi otlar faqat yaxshi tanlangan abzallar va aravalar bo'lgan o'zlarining maksimal qobiliyatlarini ko'rsata oladi. Bunda asosan chopish mustahkam, yengil, bundan tez harakatlanganda kam qarshilik ko'rsatadigan va ko'zg'aladigan va boshqarishga qulay bo'lishi shart. Shu shartlarga javob beradigan inventarlar quyidagilar xisoblanadi:

1) Chopish chanalari - qish vaqtida tekis yo'llarda otga qo'shib chopish va xil transportlar ishi bajarish maqsadida ishlatiladi.

2) Ishchi kachalka (arava) - ikkita rezina gildirakli mashq qildirish uchun hisoblanadi, sharoitlarining uzunligi 2,77 metr, yurish kengligi 1,36 metr, og'irligi 20 kg. Sekin yurib bajarilib ishlatiladi.

3) Chopish kachalkasi (arava) - qatlami choptirib sinashda ishlatiladi. Uzunligi 2.70 metr, yurish kengligi 1.38 metr, og'irligi 23kg ga barobar.

4) Rekord kachalkasi - uzunligi 2,35metr, yurish kengligi 1,59 metr va og'irligi 20 kg bo'lib, otlarni choptirib sinashda ishlatiladi.

Otlarni mashq qildirish va sinash inventarlarida xomut ishlatilmaydi, balki o'rta o'rta egarcha ishlatiladi. Egarga postramkalar birkirtilgan bo'lib, postramkalar

qo'ndirilishi yoki shotilariga birlashtirilgan.

Bunda otning oldingi oyoqlari erkin harakatlanadi va tez chopishga imkoniyat bo'ladi. Bulardan tashqari, mashq qildirish davrida quyidagi qo'shimcha o'tlar ishlatilishi mumkin:

А) **Kapsul** - otning boshiga kiygizilib, og'zini ochirishga qo'ymaydi.

В) **Martingal** - xalqa bo'lib, bundan jilov o'tkaziladi. Otning boshini baland ko'rinishga qo'ymaydi.

У) **Shprunt** - otning ma'lum balandlikda tutib turish uchun xizmat qiladi.

Г) **Ober-gek** - otning bo'ynini ko'tarish va ensasidan boshini ko'p bukmasligi uchun xizmat qiladi.

Д) **Sayd-gek** - otning boshini ko'tarish uchun xizmat qiladi. Ensadan boshning pastlikiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Е) **Rogach** - obek-gek kabi ensadan boshning egilishi uchun xizmat qiladi. Otning boshini ancha past egilib turadi.

Ж) **Mufta** - otning ko'rinishini chegaralaydi. Ko'zning ikki yonboshiga taqilib, harakatlaridan hurkadigan otlar uchun ishlatiladi.

З) **Nogovka** - yuritish va burilishlarda ot oyog'ini yaralamasligi uchun oyog'iga qo'yiladi (har xil charmdan tayyorlanadi). Shuningdek bilakuzuk bug'imini, tirsagini yaralamasligi uchun har xil charmdan tayyorlangan moslamalar kiygizilish mumkin. Bulardan tashqari ularni sinash davrida kaft va tovon paylarining zararlanmasligi uchun o'tning bint bilan aylantirib bog'lab qo'yiladi.

Yo'rtoqi otlarning yo'rtirish tezligi yurish turlarining sifatiga bog'liq. Agar otning boshini qancha keng tashlab, past ko'tarib bossa, shuncha tezlik katta bo'ladi. Uning boshini oyoqlarining anatomik tuzilishiga, tananing og'irligiga ham bog'liq bo'ladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Otlarni mashq qildirish va sinash tartibi bo'yicha tushuncha bering.
2. Otlarni mashq qildirish va sinashning ahamiyatini ayting.
3. Otlarni mashq qildirish va sinashda texnika xavfsizligi bo'yicha tushuncha bering.
4. Otga minish va otda yurish qoidalarini ayting.
5. Yosh otlarni qanday qilib minishga o'rgatiladi?
6. Yo'rtoqi otlarni mashq qildirish va sinsh bo'yicha tushuncha bering.
7. Salt miniladigan otlarni mashq qildirish va sinash bo'yicha tushuncha bering.
8. Og'ir yuk tortuvchi otlarni mashq qildirish va sinash bo'yicha tushuncha bering.
9. Toylarni minishga o'rgatish qanday amalga oshiriladi?
10. Uzun tizgin yordamida bog'lab otlarni qanday mashq qildiriladi?

XIII BOB. YILQICHILIKDA DAVLAT TADBIRLARI

13.0. Yilqichilikda davlat tadbirlarini to'g'risida tushuncha

Har xil yo'nalishda bo'lgan otlarni mahsuldorlik, nasldorlik, xo'jalik va boshqalar uchun xos bo'lgan xususiyatlari turlichadir. Shuning uchun respublikamizdagi mahsulotlarni maqsadga muvofiq xususiyatlarni yaxshilash va takomillashtirish otlarning yo'nalishiga, zotiga, xo'jalikning ixtisoslashganligiga bog'liq. Shu sabablarni hisobga olgan holda zotdorligini oshirish, ularning sifatini yaxshilash tadbirlari turlichadir.

Bu tadbirlar xo'jalikning iqtisodiy va tabiiy sharoitini hisobga olgan holda zotlarini tumanlashtirish prinsiplariga asoslanadi. Xo'jaliklarning otlarga bo'lgan ehtiyoji, ozuq bazasi, tabiiy sharoiti otlarni urchitish istiqboli, ulardan olinadigan mahsulotlarning miqdori va xarakteriga qarab shu xo'jalik uchun yilqichilik yo'nalishi va ularning miqdori belgilanadi.

MDH da nasldor yilqichilik ma'lum strukturaga ega naslchilik ishlari birinchi birligida davlat ot zavodlari, otchoparlar, davlat naslchilik stansiyalari, naslchilik fermalari, naslchilik kitoblari, ko'rgazmalar, ko'riklar, konkurslar kiritiladi.

Hozirgi kunda har respublikada yilqichilikni rivojlantirish uchun davlat tadbirlari tuzilib, ma'lum strukturaga ega bo'lib, respublikamizda qishloq va xo'jalik vazirligi rahbarlik qiladi. MDH da yilqichilik bo'yicha ilmiy ishlar boshqaruvi rossiya yilqichilik ilmiy tekshirish instituti bilan muvofiqlashtirilib turibdi. Bu institut 1930-yildan boshlab ilmiy ishlarni birlashtirib, yo'l-yo'riq ko'rsatib kelmoqda. Bu institut birmuncha ilmiy shilarni birlashtirib, amalga oshirgan. Otlarni tanlash va saralash ishlari, madaniy uyur, otxonada va yaylovda saqlash usuli hamda otlarni oziqlantirish me'yorlari, biyalarning bo'g'ozligini aniqlash usullari, yilqichilik genetikasining o'rganishni, har xil turdagi zotlarni chatishtirishning usullari (geterozis) samaradorligi, otlarni liniyalar bo'yicha urchitishni, go'ldi, ot mahsuldorligini o'rganish bo'yicha Rossiya yilqichilik ilmiy tekshirish instituti boshqaruvi ishlarni o'zaro muvofiqlashtirish bo'yicha Ukraina, Belorussiya, Turkmaniston, Qozoqiston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Gruziya, Latviyaning chorvachilik ilmiy tekshirish institutlarning maxsus bo'limlar bilan hamda Boshqirdiston, Yakutiya va qishloq xo'jalik ilmiy tekshirish institutining bo'limlari (yilqichilik), Moskva veterinariya akademiyasi, Olma-ota zooveterinariya institutining kafedralari va Aktyuba, Guryer va Kustanay viloyat qishloq xo'jalik tajriba stansiyalari, shuningdek Samarqand veterinariya meditsinasi instituti bilan aloqadadir. Hozirgi yilqichilikda Davlat tadbirlari har bir Respublikaning Davlat rahbari tomonidan belgilanib Davlat tadbirlari amalga oshiriladi.

Hozir Temiryazev qishloq xo'jalik akademiyasida yilqishunos mutaxassislar tayyorlanmoqda. MDHda 1958-yildan buyon yilqichilik bo'yicha tinchlik bo'yicha mamlakatlar o'rtasida yilqichilik va otlarni sinash bo'yicha a'zodir.

O'zavodlari, otchoparlar, naslchilik stansiyalari, naslchilik fermalari, ko'rgazmalar, naslchilik kitoblari.

Davlat ot zavodlari

Otlarning bosh sonini ko'paytirish va sifatini oshirish davlat tadbiriy tashkiloti sifatida asosiy o'rinni ot zavodlari tashkil qiladi.

Otlar zavodlarining asosiy maqsadi yuqori sifatli naslli ayg'irlarni davlat xo'jaliklariga, korxonalariga, fermalariga yetkazib berishdir. Ayrim ot zavodlari sport va eksport uchun ham ot yetishtirib beradi.

Otlar zavodlari bir yoki ikki zot bo'yicha naslchilik ishlari olib boradi. Ot zavodlari har bir ot kelib chiqishi, eksteryeri va konstitutsiyasi, ish qobiliyati va mahalliy sifatiga qarab alohida-alohida baholanadi. Ot zavodlarida olib boriladigan ishlarining rejalari zotlar bo'yicha tashkil qilingan kengashlarda tashkil etiladi.

MDH da Derkul, Strelesk, Limarevsk dunyoga mashhur bo'lgan Xrinovsk ot zavodlari hisoblanib, u 1778-yili tashkil qilingan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 1 ta ot zavodi, Yakkabog' tumanida Qorabayr ot zavodlari majmuasi 15 ta naslchilik fermalari, 1 ta Qorabayr MCHJ hamda Farg'ona viloyatida ot zavodlari majmuasi, DXX chegara qo'shinlariga qarashli 9784 harbiy qism otlar zavodlari fermasi mavjuddir. Respublikamizda "O'zbekim" otlari ot zavodi 1995-yilda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kungacha shu sohaning jonkuyari zavod rahbari S.M. Ismoilov boshqarib kelmoqda. Shuningdek Mirxadjatev Komil, Latipov ot zavodlari ham hissasi kattadir. Zavodda 700 bosh ot bo'lib, asosan Axaltaka, Sof tashkiloti bilan ishlaydigan otlar, Arabi zoti va har xil duragay otlar mavjud. Bu zavod sport otlari bilan shugullashgan bo'lib sport otlar yetishtirib beradi. Shuningdek ot zavodida ishlaydigan otlar Respublikamizda sport maktablari va klublarini to'ldirib turadi.

Ular ot poygalarida hamda ot sportining klassik turlarida yaxshi natijalarni ko'rsatmoqda. Eski Jizzax ot zavodi hozirgi kunda DXX chegara qo'shinlari harbiy otlar zavodi bo'lib, 1931-yil 28-sentyabrda Jizzax ot zavodi deb nomlangan. Bu zavod Qorabayr ot zotlarini urchitish va takomillashtirishda yetakchi xo'jalik hisoblanadi.

Qadimgi Jizzax ot zavodida 7 ta nasl-nasabga oid liniyalar, 12 ta guruhlar hamda 12 ta xo'jalik bo'yicha yetakchi ona biya oilalari va ularni yaratgan sobiq Butun ittifoq xo'jalik ko'rgazmasi va MDH xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasining 4 ta tashkilot o'z ichiga o'ltirilgan. Qorabayr otlarning turli masofalarda tekis chopish borasida 1991 va 1992-yil 11 ta rekoddidan 24 tasi Jizzax ot zavodi otlariga mansubdir.

Qashqadaryo viloyatidagi Yakkabog' Qorabayr MCHJ jamiyati 1964-yilda ot zavodi bo'lib tashkil topgan. U ot zavodi so'ngra S.M. Budyonniy nomli ot zavodi nomi bilan nomlangan. Zavod asosan Qorabayr otlarini ko'paytirgan. 1996-yilda Yilqichilikka e'tibor ko'rsatish bo'yicha Yakkabog' Qorabayr jamoasi korxonasiga aylantirilgan. 2004-yildan beri Yakkabog' Qorabayr MCHJ jamiyati deb nomlanadi. Hozirgi kunda 200

boshdan ortiq otlar oʻstirilmoqda. 1996-yildan boshlab hozirgi kungacha MDHning raisi Mamatqul Qudratov boshqarib kelmoqda.

Respublikamizda Yilqichilik va Ot sportini rivojlantirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 15-iyun PQ-3057 sonli qarori binoan Qashqadaryo viloyati yakkabogʻ tumanidagi Qorabayr Otchilma zavodini 2018-yilda qurilib foydalanishga topshirildi. 2021-yil boshiga koʻra zavodda 200 ta ot urchitilmoqda. Qorabayr otchilik majmuasi tashkil boʻlishida uning direktori Sodikov tomonidan boshqarilib yaxshi natijalarga erishilib kelinmoqda.

Fargʻona viloyati Quvasoy shaxrida Kvars AJ ning Qorabayr zavodini 2020-yil koʻpaytirishga ixtisoslashgan nasilchilik majmuasi Prezidentimiz qarori bilan 2021-yilda tashkil etilgan.

Toshkent 68 ot zavodi Markaziy Osiyo harbiy okrugi 1924-yilda tashkil topgan boʻlib bu zavod Oʻrta Osiyoda eng keksa zavod hisoblangan. Bu zavodda Avstraliya, Qorabayr, Yovmut, Ingliz axaltaka, Ingliz qorabayr, Ingliz yovmut otlari bilan duragaylari bilan toʻldirilgan. Soʻngra Sof qonli salt miniluvchi otlar bilan taʼminlangan. Maqsad harbiy qismlarga otlar yetkazib berish boʻlgan. Hozirgi kunda bu zavod tarqalib ketgan.

Bu zavod nasldor chorvachilikni rivojlantirishdagi eng yaxshi koʻrinish uchun MDH konkursining ikki marotaba lauriyati boʻlgan.

Otchopar sinash ishlarini amalga oshirish uchun ixtisoslashgan tashkilot Vazifasi asosiy yaxshilovchi ot zotlarini mashq qildirish va sinashdan oʻtkazish. Nasldor otlarni sinash ishlari ularning ishga yaroqliligini aniqlash bilan birga ularni jismoniy rivojlantirish va baholash maqsadlarida oʻtkaziladi.

Yoʻrtoqi va miniladigan ot zotlarining xoʻjalik uchun foydali otlarni takomillashtirib seleksiya–nasilchilik ishlarida sinov natijalaridan foydalanish. Otchoparlar muntazam ravishdagi sinov ishlaridan tashqari ot minish va shpaga «Rus troykasi», ot sportining klassik turlari, milliy ot sporti oʻyinlarini sport boʻyicha xalqaro musobaqalarni xoʻjalik ot zavodlari va boshqa davlat qishloq xoʻjaligi va xoʻjalik hamda tashkilotlarda yuqorida aytilgan oʻyinlar boʻyicha musobaqalarini ham tashkil etadilar. Otchoparlarda sogʻlom naslli otlarni yoshligidan boshlab sinaladi. MDHning 1924-yildan ziyod otchoparlar boʻlib, ahamiyati boʻyicha ittifoq, jumhuriyat va respublika miqyosiga boʻlinadi. MDHda Moskva, Pyatigorsk, Harkov otchoparlari va respublika miqyosatiga ega boʻlgan otchoparlar hisoblanadi. Respublika miqyosidagi otchoparlar Odessa, Olma-ota, Toshkent viloyat ahamiyatidagilarga Krasnodar, Odessa, Kirovograd va boshqalarni misol qilsa boʻladi.

MDHdagi eng qadimgi otchoparlardan Moskva otchopari 1834-yili, Harkov otchopari 1840-yili, Harkov otchopari 1846-yilda tashkil topgan. Yuqorida aytilgan otchoparlarda MDH va respublika musobaqalari oʻtkazilmoqda.

Chavondozlar jamiyati 1922-23-yillarda tashshabbuskor boʻlgan MDHning hokimiyati temir yoʻl jonbozlik stansiyasi tomonidan yer ajratgan. Bunda rus otchopari V.A.Pyanovskiy jonbozlik qilgan.

Shunday qilib 1904-yili dastlabki Toshkent otchopari bunyod etilgan. 1922-yili aviасozlar shaharchasi o'miga ko'chiriladi. 1982-yilda Qo'ylik massiviga ko'chiriladi.

Ulug' Vatan urushida Toshkent va bo'linmalarini tuzish uchun armiya fondiga tayyorlash va yetkazib berish markaziga aylanadi.

1969-yildan boshlab Respublika otchopari Toshkentning janubiy sharqiy qismida faoliyat olib boradi. Hozirgi kunda bu otchopar qaytadan qurilmoqda.

Stepl—chez o'yini trassasi qum to'shalgan ikkita konturli otlarni o'ynatadigan (otlarni chiqaraladigan) ochiq maydoncha ham mavjud. Yangi qurilgan mazkur otchopar ixtisoslashgan kompleks xo'jalik bo'lib, unda nasldor va sport otlarini yetishtirishdan o'tkaziladi. Sport jamiyat maktablari, klublari ot sportining klassik va milliy o'yin bo'yicha musobaqalashadilar, ayni paytda boshqa sport tadbirlari ham amalga oshiriladi. Toshkent otchopari o'zining katta va shonli tarixiga ega bo'lib, Qorabayir boshqa zotdagi otlarni boqishda tarbiyalashda, takomillashtirishda, umuman o'zbek O'zbekiston, Markaziy Osiyo, Qozoqgiston va boshqa respublikalarda otchoparlikni rivojlantirishda katta rol o'ynaydi.

Otchopar sharoitida otlarni sinovdan o'tkazish ularning ishlash imkoniyatlarini ko'rsatish maqsadida amalga oshiriladi va bu muhim davlat ahamiyatiga molik bo'ladi. Sinash otlarini ishchanligi, interyerini, jussa sifatini aniqlash va naslchilikni ko'rib chiqish uchun ulardan eng yaxshi namunalarini tanlab olish imkonini beradi. Ommaviy sport o'tchiligidan yaxshilanishi-bu o'tni sinash yo'li bilan tanlashning samarasidir.

Rekordchi va yuqori darajadagi ishchan otlar odatda, yuksak nasl tarqatuvchi, guruhlar, guruhlar oila asoschisi bo'lib xizmat qiladi, hamda oliy sifatli avlod qoldiradi. Otchoparda avtomatik start bosishning joriy etilishi natijasida poygalar keskin kurash bo'yicha professional va texnik jihatdan yuksak darajada o'tadigan bo'ldi. Otchopar muntazam ravishda sinovdan o'tkazish markazi bo'libgina qolmay, u yerda bo'yicha seminarlar, har xil ko'rgazmalar (namoyishlar, otlarni sotish bo'yicha namoyishlar) bo'lib o'tadi. Ko'rgazma va namoyishlar, xo'jaliklarning ot zavodlarining, shuningdek, yilqichilik fermalarining xo'jalik faoliyatlariga baho berish bo'yicha katta rol o'ynay beradi. Bu tadbirlar xo'jaliklarda yilqichilik ishlarini yaxshilash, u yoki bu ishlar ustida muayyan maqsadlarga qaratilgan ishlarni amalga oshirishlariga turtki bo'lib xizmat qiladi. Toshkent otchopari poyga, stipil—chez va ot sport o'yinlari bo'yicha O'zbekiston qishloq ot sporti terma komandasini tashkil etadigan va yetishtiradigan asosiy baza hamdir. Otchoparda ijaraga o'tda yurish ommaviy tusida mashinachilar, shuningdek har xil yoshdagi va kasbdagi kishilardir. Poytaxt aholisi va mehmonlar yuvosh otlarga minib sayr qilib, charchogini yozadilar. Kelin va guruhlar uchun shinam yasalgan uch ot qo'shilgan faytun hamisha tayyor. Otchoparga qo'ng'iroq mamlakatlar sayohatchilari ham tez-tez kelib turishadi. Shunday qilib Toshkent otchopari sport otlari boqish va ularni saralash joyi bo'lib qolmasdan, balki otchoparlarning aktiv dam oladigan o'chogi hamdir. Bu jihatdan Respublika otchopari faoliyati tarbiya va sportni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan maskan

hisoblanadi.

Toshkent o'tchoparida Qorabayir zotli otlar bilan qo'yilgan rekordlar
IKKI YOSHLI OTLAR

1000 m, 1, 09 minut

1200 m, 1, 26 minut

1600 m, 1, 56 minut

1800 m, 2, 14 minut

TO'RT YOSHLI OTLAR

1200 m, 1, 24 minut

1600 m, 1, 54 minut

1800 m, 1, 07 minut

TO'RT YOSH VA UNDA ORTIQ YOSHLI OTLAR

2600 m, 2, 19 minut

2800 m, 3, 22 minut

3200 m, 3, 48 minut

Davlat zavodidagi (naslchilik) stansiyalari

Bu otxonalarda rejali naslli ayg'irlar saqlanib, har xil yoshli kompaniyasi oldidan davlat naslchilik otxonalari o'z ayg'irlarini shartnoma bo'yicha xo'jaliklarni urug'lantirish punktlariga beradi. Mavsum tugagandan so'ng qaytarib olinadi.

Davlat naslchilik otxonalari yuqori malakali zootexniklar va veterinariyalar tomonidan taminlangan bo'lib, ular nasldor ayg'irlarni maksimal ishlatilishi, bo'g'ozlarni oziqlantirish, saqlash, tug'ishga tayyorlash, yosh nasldor toylarni o'stirish, o'zlashtirish va sinash bo'yicha ish olib boradilar. Hozirgi vaqtdan O'zbekistonda boshqa ko'p zonalarda davlat naslchilik otxonalari tugatilib, ularning funksiyasi davlat naslchilik stansiyalariga yuklatilgan.

MDHda 70 ta D.N.S. bo'lib unda 4000 ta naslli ayg'irlar (yo'rtog' va qo'ng'ir miniladigan va og'ir yuk tortuvchi). Davlat zavod otxonalari va sun'iy uruglantirish stansiyalari xo'jalikdagi otlarning nasldorlik sifatini yaxshilashda davlat naslchilik stansiyalari sun'iy uruglantirish stansiyalari muhim rol o'ynaydi. Bu stansiyalar xo'jaliklar tomonidan shartnoma tuzib, ularni urug' bilan ta'minlab turadi. Stansiyalarda xizmat qilayotgan yuqori malakali mutaxassislar stansiya zonasida joylashgan xo'jaliklardagi ayg'irlar sun'iy urug'lantirish, zootexnika hisob-kitoblari olib borish, bo'g'ozlarni oziqlantirish, parvarish qilish va asrash, ularni tug'ishga tayyorlash va nasldor qulunlarni uruglantirish kompleks tadbirlarining bajarilishi ustidan nazorat qiladilar.

Davlat naslchilik va sun'iy urug'lantirish stansiyalar qat'iy reja asosida ishlaydi. Har bir sun'iy urug'lantirish punktida sun'iy uruglantirish rejasi bo'lishi kerak.

Naslichilik fermalari

Naslichilik fermalari nasldor otlarni unchalik ko'p bo'lmagan xo'jaliklarda qo'llaniladi. Fermada individual tanlash va xillash ishlari olib boriladi. Yosh otlarni sistematik mashq qildirish va sinash ishlariga e'tibor beriladi. Bu ishning faoliyatini talabga to'liq javob beradi deb bo'lmaydi. Chunki hamma otlar ham mustahkam yem-xashak bazasi yaratilmagan. Yosh otlarga to'yimli yem bilan yetarli darajada boqilmayotganligi sababli ular yaxshi o'smayotir. Shuning uchun otlarni mashq qildirish va sinash ishlari talabga to'liq javob bermaydi. Hozirgi kunda 900 ga yaqin yilqichilik fermalari mavjud.

KO'RGAZMALAR - Naslichilik ishlarining natijasini baholash va ularni umumiy nazorat qilib borish uchun tashkil qilinadi. Ko'rgazmaga eng yaxshi otlar qatnashadi. Ko'rgazmalar tuman, viloyat, respublika va MDH miqiyosida o'tkazilishi mumkin. Ko'rgazmani tashkil qilish va uni o'tkazish uchun ko'rgazma komiteti tuziladi. Bu komitet tashkiliy masalalar, otlarni qabul qilish, hujjatlarni qarab chiqarish va boshqa ishlar bilan shug'ullanadi. Ko'rgazmada otlarning chopishi, sakrashi, yem-xashak bilan sinab ko'riladi. Shuni aytish kerakki, xalq xo'jaligi yutuqlari baholashda nasldor otlarni baholashning eng oliy markazi xisoblanadi. Bunda nasldor nasldor otlar uchun birinchi, ikkinchi darajali attestatlar, eng yaxshi otning chempioni unvoni, xo'jaliklarga yaxshi ot yetishtirganligi uchun mukofotlari beriladi.

Naslichilik yozuvlari va davlat naslichilik kitoblari naslichilik ishlarini to'g'ri olib borishda uni tashkil qilishda zootexnika xisoboti katta ahamiyatga ega. Naslichilikning birlamchi xisobot formalari, naslichilik guvohnomasi, zavod kitoblari mavjud.

Harcha ot zavodlarida naslichilikning dastlabgi xujjatlariga quyidagi formalar qo'llaniladi: 1-1 forma (ayg'ir kartochkasi), 2-1 forma (biya kartochkasi), biyalarni sinash natijalarini xisoboti jurnali (3-1 forma), yosh mollarni ustirish xisobot jurnali (4-1 forma). Biyalar tug'ishi va qochirish vedomosti (otxonada boqiladigan) ot zavodlari uchun naslli otlar uchun (6-1 forma) va boshqalar. Ot zavod kitoblariga har bir otning bonitirovka natijasi yosh otlarni kelib chiqishi va rivojlanishi yozib boriladi.

Naslichilik kitoblari muntazam ravishda yuritilishi lozim. Naslichilik kitoblariga qo'llanilgan otlar bonitirovka ko'rsatkichlari bo'yicha zot standartlariga to'liq javob berishi lozim. (ikkinchi klassdan past bo'lmasligi lozim). Ayg'ir va biyalarni sinash natijalari naslichilik kitobiga yoziladi. Kitobda otning laqabi, yoshi, tusi, otlarining kelib chiqishi, tug'ilgan joyi, sinash natijalari eksteryer, ishlatilish natijalari, rekordligi va chempionligi ko'rsatiladi. Birinchi marta dunyo yilqichiligida yozilgan Angliyada sof qonli salt miniluvchi Angliya ot zoti bo'yicha naslichilik kitobi mavjud.

1936-yili shu zot Rossiyada va 1939-yili orlov yo'rtoqi zoti bo'yicha yozilgan. Hozirgi kunda 28 ta zot bo'yicha naslichilik kitobi yuritiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yilqichilikda davlat tadbirlari haqida tushuncha bering.
2. Davlat ot zavodlari deganda nimani tushunasiz?
3. Otchoparlar nasilchilik stansiyalari to'g'risida o'z fikringizni ayting.
4. Naslchilik kitoblari deganda nimani tushunasiz?
5. Naslchilik ko'rgazmalari deganda nimani bilasiz?
6. Naslchilik fermalari deganda nimani tushunasiz?

XIV BOB. OT SPORTI VA SAYOHATLARI

14.0. Ot sportining kelib chiqish tarixi va tutgan o'rni

Ot sporti xalqni ulug'lovchi mamlakatlarni birlashtiruvchi, qalbimizda oriyat sathi muqaddasdir. U xalq va yurtning dunyo miqyosidagi izi, salohiyatidir. Millat irodasi, qudrati va zakovatidir.

Ot sporti – milliy g'urur, iftixor kabi eng ulug' fazilatlarini har qaysi shaxsda o'z ichida saqlaydi. Millatimiz vakillari dunyo chempioni bo'lib qaytsa, buning nimaligini to'la qaytara olmaymiz.

Birinchi Prezidentimizning tashabbusi bilan 1992-yil Parlamentimiz "Jismoniy va sport to'g'risidagi qonuni va qator qarorlar qabul qilindi va sog'lom avlod davlat dasturi" ishlab chiqildi.

1995-yilda Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining raisi bo'lib, sportni hamma rivojlantirishda kata hissasini qo'shib kelgan kishilardan biri Bahodir bo'ldi.

Hozir ham u kishi O'zbekiston sport tashkilotlari faxriysi raisi lavozimida kelmoqda. Shu sohani rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning tashabbusi bilan, mamlakatimizda yilqichilik va ot sportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2017-yil 15-iyunda PQ-sonli qarori qabul qilindi. Maqsad Respublikamizda yilqichilik va ot sportini rivojlantirish, uning moddiy texnik bazasini mustahkamlash yangi avlod yilqichilarini tayyorlash va tarbiyalash, milliy ot sportining xalqaro davrug'ini rivojlantirish va aholini keng qatlamlari, ayniqsa yoshlar o'rtasida ot sportini faol targ'ibot va ommalashtirish.

O'zbekiston ot sporti federatsiyasi konferensiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning turbiya va sport davlat qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda O'zbekiston milliy olimpiya qo'mitasining O'zbekiston ot sporti federatsiyasi faoliyatini takomillashtirish va uning nomini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning yilqichilik va ot sporti federatsiyasi tashkil qilindi.

Federatsiyaning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari aniq ko'rsatib berilgan.

Yilqichilik va ot sportiga kata e'tibor qaratib, Bosh vazir o'rinbosari qishloq xo'jaligi vaziri Z.T Mirzayevga yilqichilik va ot sporti federatsiyasiga raislik qilish va rivojlantirish tashkillashtirish ishlari yuklatilgan bo'lib, u kishi shu sohani rivojlantirishga boshqaruvchi bo'lib qo'shildi. Hozirgi kunda yilqichilik va ot sporti federatsiyasining raisi yosh Baxromjon Gaziyev boshqarib kelmoqda va yaxshi natijalarga erishmoqda.

Bunday huquqiy va dasturiy hujjatlar MDH mamlakatlari ichida birinchi bo'lib ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda bunyod etilgan hashamatli tennis saroylari va boshqa sport ob'ektlari yurtimizda o'tkazib kelinayotgan yirik xalqaro musobaqalar, birinchidan o'zbekiston nomini dunyoga tanitayotgan bo'lsa, ikkinchidan eng muhimi odamlarimiz ongu

tafakkurini o'zgartirib yuborayapti.

Hammanizga ma'lumki, eng asosiy maqsadlardan biri mamlakatimizda sog'lom, har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashdir. Bizga hozir ham kelajakda sog'lom zabardast har tomonlama yetuk o'g'il - qizlar kerak. Shu bois ta'lim sohibqiron Amir Temurning "Farzandlari sog'lom" "Vatan qudratli bulur" iborasi yoshlarimizga ayon. Qadim zamonlarda ham avlod - ajdodlarimiz har tomonlama kamol topishiga katta e'tibor bilan qarashgan. Misol uchun yoshlikdan ot minib chavandoz qilishga, kurash tushirib pahlavon bo'lishga musobaqalarda qatnashtirib oriyatli, qo'rqmas, zabardast, chaqqon, g'olib bo'lgan o'rgatishgan.

Ot o'yini insondagi matonatlilikni va jasoratni kuchaytiradi, har tomonlama jismoniy tayyorgarlikning eng yaxshi vositasi hisoblanib xizmat qiladi. U shug'ullangan inson irodasi yuksaklikka shakllanadi. 1-jahon va fuqarolar urushlari keyin ot sporti armiya birlashmalari orasida ham rivojlana boshladi. 1918-yil birinchi marta 400 (versey) Rostov - Xarkov shaharlari o'rtasidagi masofaga yul tashkil etiladi. Shundan keyin ot sporti Qizil Armiya hayotida mustahkam egallab, jangchi va qo'mondonlar dastlabki ot sportchilari bo'lib qolishdi. 1923-yil Moskva sportchilaridan keyin programada Butun Rossiya ot sporti musobaqalari bo'lib o'tadi, u yerda maxsus guruh musobaqalari (otish, poyga, uch kurash, stipul) va boshqa kg o'rtacha va murakkab o'siqlarni o'tish bellashuvlari bo'ladi.

1952-yildan MDHda ot sporti bo'yicha 1-chempionati o'tkaziladi. 1946-yildan boshlab shaxsiy va komanda birinchiligi uchun musobaqa o'tkazildi.

1952-yildan boshlab ot sportchilarimiz olimpiada o'yinlariga qatnashib boshladi. 1956-yildan kolxoz, sovxoz va ot zavodlarining ot sportchilari o'z MDHda ot sporti federatsiyasining, 1952-yilda Xalqaro ot sporti federatsiyasi (FIO) a'zo bo'lib kirgan paytdan boshlab bu o'yinning klassik turlari rivoj topdi. U paytdan boshlab O'zbekistonda milliy ot sporti o'yinlari bilan bir qatorda bu o'yinning klassik turlari ham ko'p o'tkazilmoqda.

O'zbek xalqi ham Qadimdan ot sporti bilan shug'ullangan, shuning uchun Respublikada bironta an'anaviy xalq sayli yoki tantanasi milliy ot o'yinlari bo'lmagan. O'tgan asrlar chuqur qilib boradi va o'sha zamonlardagi kabi xalqimizning eng sevimli o'yini ot sportidir. 1930-yillarning boshida tashkil etilgan Respublika ot sporti klubi qizil armiyaning askarlari qismiga chavandozlar yetkazib berilgan bo'lsa ham, so'ng ot sporti o'yinlari o'tkazilishi boshlandi.

O'zbek chavandozlari klassik o'yinlari bo'yicha xalqaro sport o'yinlariga qatnashib, xalqaro sport masteri unvonini olishgan. Shunday ekan boshqa ot sporti o'yinlari qatori millatning, elning yurtning ori - g'ururi dovrug'i bo'lgan klassik ot sportini tiklaylik, dunyoga tanitaylik - bu xalq talabi.

1954-yili Tallinda o'tkazilgan MDHlar ot sporti musobaqalarida chavandozlar A.Kiselev, D.Aminov, V.Arefyev va Z.Bogovutdinovlardan tashkil topgan komandamiz oltin kubog'ni qo'lga kiritishda komanda xisobida birinchi o'rin

gallaydi.

MDH xalqlarning o'rniga chiqib, komanda a'zosi A.Belskiy karabin laqabli sofiy otida Angliya o'tda to'siqlardan sakrashda oltin medalga Yu.Lamov Burre laqabli otida chiqish bo'yicha kumush medalga sazovor bo'ldilar.

1960-yillarda Respublika viloyatlari tuman markazlarida Andijon, Buxoro, Toshkent, Namangan, Nukus, Pop, Samarqand, Termiz, Urganch, Farg'ona kabi shahar va qishloqlarda ko'plab klublar seksiyalar ochildi, otchoparlar qurildi, malakali otchoparlar jalb qilindi va klub hamda maktablar klassik sport otalari bilan ta'minlandi. Otchoparlarning hammasi ommaviy ot sportini yanada rivojlantirish va chavandozlarning mahoratlarini oshirishga qaratilgan. Ediki, u chavandozlarning sportdagi yutuqlariga erishishlarini ta'minlaydi. 1974-yilda MDHda chempionatda uch karabin bo'yicha sport masterlari V.Dvoryanikov, N.Ismoilovlarni I.Narkishlarni komanda hisobida sportkiada chempioni bo'lib, oltin medallar bilan taqdirlandilar.

O'zbekiston sportchilari 1980-yilda Moskva shahrida bo'lib o'tgan XXII Olimpiada o'yinlarida MDH chavandozlarining umumiy yutuqlariga o'zlarining hissasini qo'shdilar. Yu.Kovshov Ukraina salt miniluvchi ot zotida «Igrak» laqabli otida oliy darajada salt minib yurish elementlarini bajarishda komanda hisobida oltin, shaxsiy birinchiligida esa kumush medal sovrindori bo'ldi.

Respublikamiz chavandozlari barcha yirik sobiq Butunittifoq musobaqalarida qatnashib, Respublikalar Moskva va Leningrad shaharlarining terma komandalari o'rtasida munosib o'rinnlarni egallab keldilar. Ot sporti – chiroyli o'yin bo'lib, chavandoz bilan otning uzoq vaqtlar mashq qilishlari natijasida amalga oshiriladigan haqiqiy san'atidir. Ot o'yinlari haqidagi dastlabki ma'lumotlari Qadimgi zamonlarga chuqur kirib boradi. Qadimgi Skifda masalan zamonaviy o'yinlarga o'xshamaydigan chavandozlar musobaqasi keng tarqalganligi qayd qilingan. Qadim zamonlarda, ya'ni eramizdan oldingi 650 yillarda Yunonistonda (Gretsiya) Olimpiya o'yinlarida chavandozlar musobaqasi o'tkazilgan. Avval aravachalarga musobaqalashib so'ngra poyga boshlagan. Kavkaz, Markaziy Osiyo, chunonchi O'zbekiston xalqlarida milliy ot o'yinlari asrlar bo'yi avlodga meros bo'lib, kelmoqda. XIV – XVII asrlarda ot sportining markaziy Italiya, Fransiya va Ispaniya mamlakatlari bo'lib qolgan.

Chavandozlar klassik o'yinlarda qatnashib, sobiq MDH kubogi va birinchiligida Markaziy Osiyo Respublikalari va Qozog'iston Ministrlar Sovetining o'yinlari uchun o'tkaziladigan musobaqalarda qatnashib, sobiq MDH kubogi va birinchiligida Markaziy Osiyo Respublikasi va Qozog'iston Ministrlar Sovetining o'yinlari uchun qatnashadigan musobaqalarda qatnashib, yaxshi natijalarga erishib, oltin, kumush va bronza medali olishiga muyassar bo'ldilar.

U oliy sport mahoratli maktablari hamda sobiq MDH terma komandasining Olimpiya rezervlari tayyorlash markazi to'g'risidagi Nizomlarga muvofiq ish olib borildi.

Ot sportchilari o'rtasida yuksak natijalarga erishgan respublikamizning bir

nechta chavondozlari Mamajon Ismoilov, Yuriy Kavshov, Valiriy Dvoryanikov, Aymat Aymatov, Axtmetshinlar birinchi bo'lib sport masteri bo'lishgan. Shuningdek 2011-yilda yoshli Abdurahmon Abdullayev Germaniya shaxrida o'tkazilgan Oltin Kubk musobaqasining Otlarni to'siqdan o'tish bo'yicha o'tkazilgan sport turida birinchi o'rinni egallagan. Buni 1- va 2-jaxon urushlarida ko'rish mumkin, 2-jaxon urushida nemis fashistlariga qarshi kurashda sobiq MDH ning otliq askarlarida 263 kishi o'z jonini itifoqning qaxramoni bo'lgan. Otliq askarlardan 100 mingdan ortiq kishilar o'z jonini otliq medallar bilan mukofotlandilar. Ko'rinib tubidiki, ot mudofia qobiliyatini namoyish qo'riqlashda, janglarda jasorat ko'rsatishda yaroqli hisoblanib kelingan. Buning uchun ham bejizga qadim zamonlardayoq bronza va toshdan ko'kga sanchilgan otliq sport otlarga haykallar qurilgan.

14.1. Ot sportining klassik turlari

Ot sportining klassik turlari 1896-yili olimpiya o'yinlarining o'ziga xoslik sifatida ot sportining musobaqa turlari yani klassik turlari deb kiritilgan.

Ot sportining klassik turlari dunyo miqyosida keng rivojlangan bo'lib, bu turlar yuqorida aytilgan o'yinlar xalqlarni bir-biriga tanitishda hamda yoshlarni o'zlarini namoyish chiniqtirishda, mamlakatlarni dunyo miqyosiga chiqishiga, shuningdek, o'yinlarni o'zlariga g'olib bo'lgan shaxsiy va komandalar o'rtasidagi qo'yilgan katta mukofotlar kiritilgan ham qiziqtirishga olib kelgan, shu bois yevropa xalqlari ot sportining klassik o'yinlarini birinchimlardan bo'lib, dunyo miqyosida olimpiada o'yinini tashkil etgan.

Otlarni yuqori darajada salt minib oliy darajada mashq qildirish

Bu o'yin otning foydali va juda chiroyli harakatlarini namoyish etadi. Buning uchun chavandozga to'liq bo'ysunadi. Rus tilida "viyezdk" deyiladi. Sobiq ittifoq davrida harbiy askarlar bu so'zni, ya'ni uch yoshgacha bo'lgan yosh otlarni aravaga qo'yib yoki minishga o'rgatish degani. Bu otlar o'zining harakat yurishida organizmning tashqi ta'sirga javoban beixtiyor ko'rsatadigan reaksiyalari natijasida o'zida ba'zi ba'zi bir yomon odatlarini yo'qotadi va organizmni chiniqtiradi. Otlarning chavandoz uni boshqarish va yaxshi natijalarga erishish uchun harakat qiladi. Otlar minib chiniqtirish natijasida ot sportini qaysi turiga yo'naltirilishi aniqlanadi va olimpiada ot sport o'yiniga kiritiladi. Keyinchalik MDHda bu o'yin otlarni oliy darajada salt minib mashq qildirish tushunchasi kiritilgan. Otlarni salt minib, ya'ni ravishda oliy darajada salt minib yurish eng avvalo eramizdan IV-V asrlardan beri paydo bo'lgan. Eng avvalo bu o'yin Greklarda rivojlanib, bu o'yinga katta o'zgarishlar qaratilib kelingan. Qadimgi Olimpiada o'yinlariga qonunlar kiritilgan. Qadimgi Aristotel, Gerodotlar yilqichilik va otda sun'iy yurish to'g'risida o'zlarining kitoblarida keltirib o'tgan. Otlarni oliy darajada salt minib yurishning bir qanchi harakat turlari mavjud. Oldingi oyoqni bukmasdan tashlash, yo'rtish, uch oyoqni qo'q (sakrab) chopish va boshqa o'yinlar kiradi.

Otlarni salt minib, oliy darajada yurishning elementlari quyidagilar:

1. Tissarlash – ot to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tisariladi. Bunda boshi, bo‘yni bir oz egiladi. Ot oyog‘ini diagonal bo‘yicha ko‘tarib tisarlashi va normal buklash kerak.
2. Yonbosh harakatlanishi – ot oyog‘i chapga, o‘ngga, ko‘ndalangiga, diagonal harakatlanishi kerak.
3. Galop – (sakrab) chopishda oyoq tashlanishini almashtirish – bu yurish juda qiyin. Ot to‘g‘ri harakatini susaytirmay oyoq tashlanishini almashtiradi.
4. Piruet – odimlab yoki galop (sakrab) chopish davrida otning orqa oyoqlari yerdan qo‘zg‘almasdan tananing oldingi qismi aylana bo‘lib, 360 gradus, ya‘ni bir aylanma harakatini o‘tirgich qismiga olib borilishi, burilishidir.
5. Polupirut – odimlash yoki galop (sakrab) chopish davrida otning orqa oyoqlari joyidan qo‘zg‘almasdan tananing oldingi qismi aylana 180 gradusga, ya‘ni bir yarim aylanma harakatini o‘tirgich qismiga olib borilishidir.
6. Passaj – ritmik ravishda kalta yo‘rtish, ya‘ni otning oldi kalta, lekin baland, yerdan ot yerdan bir oz ko‘tarilib, oyoqlari yig‘ilgan holda bo‘ladi.
7. Piaffe – otning joyida yo‘rtishi, yerdan ko‘tarish mashqi bo‘lib, 1 minutda ot oyog‘ini bukmasdan 10-12 marta ko‘tarilishi.

1960-yili XVII Olimpiya o‘yinida Rim shahrida S.Filatov Absent laqabli ot ustasi ot zotida salt minib oliy darajada mashq qildirish bo‘yicha chempion unvoniga sazovor bo‘ldi. 1968-yili Meksikada salt minib oliy darajada mashq qildirish bo‘yicha Ivan Kazimov oltin mukofotni olib chempion bo‘lgan. 1970-yili Yevropa Petushkova dunyo va Yevropa chempionatida salt minib oliy darajada mashq qildirish bo‘yicha chempion unvoniga sazovor bo‘lgan.

Olimpiada o‘yinida ot sporti musobaqasining to‘siqlardan o‘tish (konkur)ya‘ni klasslarga bo‘linishi.

To‘siqlardan o‘tish (konkur) chavandozlardan bardoshlikni, dadillikni, otning yerdan esa yaxshi sakrashni talab etadi. To‘siqlarning balandligi 150 sm 2 m gacha bo‘ladi, to‘siqlardan o‘tishda 4 klassga bo‘linadi:

1. yengil klass
2. o‘rta klass
3. qiyin klass
4. oliy klass


Olimpiada o‘yinida o‘ynaladigan ot sporti musobaqasining to‘siqlardan o‘tish (konkur) o‘yini o‘tkazish tavsifi jadvalda belgilangan.

To'siqlardan o'tish (konkur) bo'yicha tavsif


Musobaqa klasslari	Sakrash soni	To'siqlar hajmi, sm		
		Balandligi	Kengligi	Orqa kengligi
Yengil klass	8	90-100	100	200
O'rta klass	12	100-110	150	250
Qiyin klass	15	120-140	200	400
Oliy klass	18	130-160	300	500

Mazkur musobaqalar klasslar bo'yicha o'tkazilib, ularning har qaysi biri necha marta sakrash kerakligi, to'siqlarning katta kichikligi belgilab beriladi. MDH chempionati, yirik xalqaro musobaqalar, shu jumladan olimpiya o'yinlari programmalari ikki tomon komandalar musobaqasini o'z ichiga oladi. MDH keng jahon ot sporti musobaqalarida «Milliy sovrin», «Olimpiya sovrini» uchun kiritilgan olib boriladi. Musobaqaning har bir qatnashchisi balandligi 170 sm gacha bo'lgan 250 sm keladigan 13-16 to'siq o'rnatilgan marshrutdan ikki marta o'tishi kerak. XXII Olimpiya o'yinida 1980-yili Moskvada Nikolay Koralkov olimpiya chempioni bo'ldi.


To'siqlardan o'tish bo'yicha birinchi xalqaro musobaqalar 1907-yilda London shahrida bo'lib o'tgan. Rus chavandozlari 1911-yilda katta xalqaro musobaqalar g'oliblari bo'lgan. 1912-yili ular Kanada sovrinini, millatlar sovrinining va Georg IV- qirolini oltin sovrinini qo'lga kiritdilar. 1952-yildan boshlab MDH chavandozlari to'siqlardan o'tish bo'yicha har xil xalqaro musobaqalarda qatnashdilar. 1958-yilda sport ustasi Ernest Shabaylo Ukraina zotining Bastoy ayg'irida Gamburg derbisida ikkinchi o'rinni egalladi, 1980-yil 22-olimpiya o'yinlarida Moskvada o'tkazilgan millatlar sovrini uchun musobaqalarda oltin medallarni olishga muvaffaq bo'ldilar. Nikolay Koralkov Olimpiya chempioni unvoniga sozovor bo'ldi.



75-rasm: Otlami sakratish. A. Tayyorlanish davri. V. Tiralib ko'tarilishi. V. Uchirilish davri. G. Yerga tushish davri.



76-rasm. To'siqlardan o'tish oraliqi 750 mm to'siq balandligi 160 sm, to'siqlar soni 13 ab etish kerak
 I to'siq bilan ikkinchi to'siq orasidagi masofa 3-3,5 metr. Ikki to'siq orasidagi masofa 7-7,5 metr. Uchinchi to'siq orasidagi masofa 10,5-11 metr.



77 - rasm. Marshrutni uzunligi 1500m, o'tni m. Tezligi 400m, 160 ta to'siqdan o'tish bo'lgan 17 ta to'siqdan o'tish

UCH KURASH. Ot sportida uch kurash tarixi ko'pgina mamlakatlarda 19-asr oxirlaridan boshlanadi. 1912-yilda ot sportida uch kurash olimpiada dasturida kiritildi va bu musobaqalar faqat harbiy xizmatda bo'lgan qatnashishlari mumkin edi. 1920-yildan boshlab ot sportining bu turiga o'ziga xos bir qatorda barcha layoqatli erkaklar, 1956-yildan boshlab sportning qatnashish huquqi ayollarga ham berildi. Uch kurash ma'lum qonun qoidalariga uch kun davom etadi. Birinchi kuni v'ezdka (otlar bilan turli xil chiqishlar qilish) va ularni baholash.

Ikkinchi kuni- otlarni ot choparda sinash va baholash.

Uchinchi kuni -konkur to'siqlardan sakrab o'tish va baholash.

Uch kurash ot sporti o'yinlari ichida eng murakkab bo'lib, uchta musobaqaga manajga yurish oliy darajada salt minib mashq qilishdir. Dala sharoitida o'tish, to'siqlarni zabt etish. Har uchala musobaqa uch kun davomida bitim chavondoz bajaradi. Uchkurashning birinchi musobaqasida ot maneja yurish figuralar ko'rsatadi.

2-kuni dala sharoitida chavondoz va otning chidamliligini sinash. Hamma masofa 4 ga bo'linib uzunligi 10-20 km ni tashkil etadigan 1 chi bo'lakdan 240 metr tezlikda chopish kerak. Masofaning 2 chi bo'limi ataladi. Uzoqligi 1800 m 4200 m gacha bo'lib har xil km joyga balandligi keladigan 3 ta to'siq o'ratilgan bo'ladi. Har qaysi bo'lagi uchun alohida yoq belgilanadi.

To'siqlardan o'tish bo'yicha birinchi xalqaro musobaqalar 1907-yilda London shahrida bo'lib o'tgan. Rus chavandozlari 1911-yilda katta xalqaro musobaqalar g'oliblari bo'lgan. 1912-yili ular Kanada sovrinini, millatlararo sovrining va Georgiy qirolini oltin sovrinini qo'lga kiritdilar. 1952-yildan boshlab MDH chavandozlari to'siqlardan o'tish bo'yicha har xil xalqaro musobaqalarda qatnashdilar. 1958-yilda ot ustasi Ernest Shabaylo Ukraina zotining Bastoy ayg'irida Gamburg derbisida birinchi o'rinni egalladi. 1980-yili 22-olimpiya o'yinlarida Moskvada o'tkazilgan o'yinlar sovrini uchun musobaqalarda oltin medallarni olishga muvaffaq bo'ldilar. Nikolay Korolkov Olimpiya chempioni unvoniga sozovor bo'ldi.

Uchkurash ot sporti o'yinlari ichida eng murakkabi bo'lib, uchta musobaqadan: me'jda yurish (oliy darajada salt minib mashq qildirish), dala sharoitida sinovdan o'tish, to'siqlarni zabt etishdan iborat. Har uchala musobaqa uch kun davomida bitta ot bilan bir chavandoz bajaradi. Uch kurashning birinchi musobaqasida ot maneja g'olib har xil figuralar ko'rsatadi.

Ikkinchi kuni dala sharoitida chavandoz va otning chidamligi sinab ko'riladi. Uchta masofa 4 ga bo'linib, uzunligi 10-20 km ni tashkil etadigan 1- va 3-bo'lakda sinovning 240 m tezlikda chopish kerak. Masofaning 2-bo'limi stipilchez deb ataladi. Uzunligi 1800-4200 m gacha bo'lib, har bir km joyga balandligi 140, eni 2 m keladigan uchta to'siq o'rnatilgan bo'ladi. Har qaysi bo'lagi uchun alohida vaqt me'yori belgilanadi.

To'rtinchi bo'lak kross uzoqqa chopishda bir tekis bo'lmagan past-baland joylar, balandlik va pastga tushish, jarlar, kanallar, havzalar, o'rmonlar, bo'tazorlar va boshqa joylar kiritiladi. Masofaning davomligi 4500 km dan to 8100 m gacha har bir bo'lak joyga 4 tadan balandligi 120 sm dan eni 2 m bo'lgan to'siqlar qo'yiladi.

Uchinchi kun uchkurash musobaqasining to'siqdan o'tish turi o'tkaziladi. Uzunligi 120 sm, kengligi 1,8 m bo'lgan joydan aniq belgilangan ketma-ket 12 marta chopish kerak. Musobaqa joyi 750-900 m oraliqda bo'lib, tezligi minutiga 400 metrni o'tish rejalashtiradi.

Ot sportida uch kurash tarixi ko'pgina mamlakatlarda asr oxirlarida boshlanadi. 1912-yilda ot sportida uch kurash olimpiyada o'yinlari dasturiga kiritiladi va bu musobaqaga faqat harbiy xizmatda bo'lgan offitserlar qatnashishlari mumkin edi.

1920-yilda ot sportini bu turiga offitserlar bilan bir qatorda barcha layoqatli avjlar, 1956-yildan boshlab sportning bu turiga qatnashish huquqi ayollarga ham berildi. Uch kurash ma'lum qonun qoidalari asosida uch kun davom etadi, birinchi kuni yozetka (otlar bilan turli xil chiqishlari tashkil qilish) va ularni baholash. Ikkinchi kuni otlarni ot choparda sinash va baholash.

Uchunchi kuni – konkur ipak to'siqlardan sakrab o'tish va baholash.

Sobiq «Sovet chavandozlari» uch kurash bo'yicha birinchi marta 1952-yil Berliniyada bo'lib o'tgan 11-olimpiyada o'yinlarida qatnashdilar.

1953-yil Rumiyniada; 1954-yil Bolgariyada; 1962-yil Bolgariyaning Stenford shahrida Yevropa birinchiligi bo'yicha bo'lgan musobaqalarda muvaffaqiyatli

qatnashdilar.

1975-yil Germaniya Federativ Respublikasida bo'lib o'tgan uch kurash bo'yicha Yevropa chempionatida birinchi o'rinni egalladi.

1980-yil Moskvada bo'lib o'tgan olimpiyada o'yinlarida o'zlarini erishgan muvaffaqiyatlari tasodif emasligini tasdiqlab komanda hisobida yana birinchi o'rinni egallashdilar.

Ot - aravalar musobaqasi hozirgi paytida FEI da o'tkazilishi shart bo'lgan musobaqalardan biri hisoblanadi. Yevropa, Amerika qit'alarida mashhur bo'lgan bormoqda.



78-rasm. Uch kurash (to'siqdan o'tib suvga sakrash)

Ot sportini chempionligi bo'yicha davriy o'tkazilish muddati

Chempionlarning nomlanishi	Davriy o'tkazilishi	Yillarda o'tkazilishi
Respublika bo'yicha MDH da	Yilda bir marta	Har yili
Yevropa bo'yicha	Ikki yilda bir marta	Olimpiada o'yinidan oldin va olimpiada o'yinidan keyin
Dunyo bo'yicha	To'rt yilda bir marta	Olimpiada o'yinlari o'rtasida
MDH spartakiada	To'rt yilda bir marta	Olimpiada yili oldidan
Olimpiada o'yini	To'rt yilda bir marta	Olimpiada yilida

14.2. Sport otlarining tutgan o'rni va ularni sportga tanlash

MDH hamkorligidagi ot sportlarining ko'p yillik tajribalari shuni ko'rsatadiki, umumiylik ot sportchilarda sof qonli Angliya ot zoti shuhrat qozonmoqda.

M.Kibert, G.Sergiyenko (1980) ma'lumoti bo'yicha, sport otlarining umumiylik ot bo'yicha sof qonli Angliya zoti birinchi o'rinda (30-35) foizni tashkil etadi. Sof qonli o'rinda trenin ot zoti (22-28) foizini, uchunchi o'rinda Budyonniy ot zoti (10-15) foizni, arab ot zotlari klassik o'yinlarning oliy darjada mashq qildirish bo'yicha muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda.

MDH sportchilari olimpiada o'rinlarida juda katta muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda. Ot sportchilarning shuhrat qozonishida axaltaka zotining Abseniya va Aban zotlari, Ukraina salt miniluvchi zotti bo'yicha ixor, shkval, igroq, Budyonniy ot zoti, Sibiryak, Sembioz, sof qonli Angliya ot zotining Anilin ayg'irlarning xizmati bilan bog'liq. Rim shahrida bo'lib o'tgan, 1960-yilda olimpiyada o'yinida xizmat ko'rsatgan ot sporti S.Filotov «Absent» ayg'irida Olimpiada chempeonatida katta unvonga erishgan bo'lgan. Tokioda bo'lib o'tgan XVIII-olimpiada o'yinida esa bronza medalini sozovor bo'lgan. Mexiko shahrida bo'lib o'tgan XIX-olimpiada o'yinida esa ayg'irida Kolitai I qatnashib bronza medalini olishga muvaffaq bo'lgan.

Birinchi olimpiada chempionligi munosabati bilan xujjatli Absent film yaratilgan. Nomlanishi Arab va Bakkaraning o'g'li Absent 1975-yili yaratilgan.

Ukraina salt miniluvchi zotning Mxor ayg'iri XIX-olimpiada o'yinida Mexiko shahrida oliy darajada mashq qilish bo'yicha oltin medalni olishga sozovor bo'lgan.

Moskvada o'tkazilgan XXII-olimpiada o'yinida xizmat ko'rsatgan ot sporti V.Ugryumov salt miniluvchi Ukraina ot zotining Shkvale ayg'irida qatnashib bronza medalini olishga muvaffaq bo'lgan. Shkvalning oltin medalini, shaxsiy birinchilikda bronza medalini qo'lga kiritgan.

Toza sof qonli Angliya ot zotining Anilin ayg'iri sportda yuqori natijaga erishgan. Dunyo miqyosidagi jakkeychi N.Nasibov Yevropa va Amerikada bo'lib o'tgan dunyo miqyosidagi katta musobaqalarda qatnashib muvaffaqiyat bilan g'oliblik qozongan. Anilin ayg'irini uch marta nikoh marosimi deyiladi. Chunki Yevropaning katta otlari uchun o'tkazilgan musobaqalarda (1965, 1966, 1967) musobaqa g'oliblikni qozongan. Ayniqsa Amerikaning Laures Koy otchoparida Vashingtonning katta otlari uchun o'ynalgan o'yinida Anilin 2- o'rinini egallagan bo'lsada, u o'zining sof qonli otlari ichida eng yaxshisi deb aniqlangan. Sportda misli ko'rinmagan natijaga erishgan. Absoney o'g'li Abakan ayg'iri bilan xizmat ko'rsatgan ot sporti Ye.V.Peteshkova Shevesariyada 1977-yili bo'lib o'tgan Yevropa olimpiadasi unvonini olishga sozovor bo'lgan.

Sport otlarni tanlashdagi talab

Ot sportining har-bir turi sportda o'ynash uchun otlardan ma'lum talab qo'yiladi. Kichiklariga ega bo'lishi kerak. Oliy darajada salt minib yurishda asosan salt miniluvchi tipga xos bo'lgan otlar kiradi. Tashqi ko'rinishi bo'yicha chiroyli, tuzilishi

bo'yicha monand, temperamentli, harakati turli yurishlarda yengil. Bu ot qarchig'ay balandligi 156-170 sm, ko'kragi yaxshi rivojlangan, ko'krak aylanasini 200 sm, bo'yni uzun, boshi o'rtacha kenglikda, jag' oralig'i keng, ensa va bo'y orqasi, sag'risi muskul go'shtlari bilan yaxshi to'lishgan, ko'krak suyukligi qiya.

Quyidagi ot zotlari: sof qonli Agnliya zoti, Budyonniy, Ulyanin miniluvchisi, Traken, Axaltaka va Arab zotlari muvaffaqiyatlarga erishgan. To'riq, qora va malla tusli otlarga nisbatan yaxshi xisoblanadi. Konkurlar (qora o'tish) o'yini tuzilishi katta, qarchig'ay balandligi 162-164 sm, ko'krak aylanasini rivojlangan 200sm, kaft aylanasi (21-22sm), eksteryeri bo'yicha salt miniluvchi ot zotlariga xos bo'lib, uzun liniyalı, bo'yni uzun, harakatchan, ko'kraklari uzun, beli kalta, go'shtdor, sag'risi uzun, muskullari kuchli. Oyoqlari to'g'ri va mustahkam, nuqsonlari bo'lmagan chidamli, bardoshli, toqatli, botir bo'lgan bo'lishi kerak. Sakrash qobiliyatchanligiga ega bo'lgan ot zotlari kiradi. Bu talabga sof qonli Angliya zoti, Traken, Pannoverskiy, Budyonniy, Ulyanin miniluvchisi kiradi. Uch kurash o'yini tana tuzilishi bo'yicha salt miniluvchi ot zotlariga xosdir, qarchig'ay balandligi (162-168sm), ko'krak aylanasini 180-190 sm, konstitutsiyasi quruq, botir, temperamentli, jonli, odamga tez o'rganadigan, to'g'ri juda yaxshi, eksteryeri bo'yicha eng muhimi oyoqlari to'g'ri qo'yilgan, noqam pay apparatlari yaxshi rivojlangan, qarchig'ay, ko'krak qismi muskulari to'lishgan. Ular to'g'ri joylashgan orqa va beli mustahkam, qovurg'asini rivojlangan. Ko'pincha bu o'yinga sof qonli Angliya zoti, Traken, Budyonniy va qonli zotlari qatnashadi.

14.3. Ot poygasi, stipl-chez, voltijirovka o'yinlari

OT POYGASI - juda qadimgi o'yin bo'lib, ko'chmanchi xalqlar tomonidan yakka holda va guruh bo'lib, amalga oshirilgan. Bu o'yin amaliy va maqsadlarda foydalanilgan. Qadimdan qiziqarli ot poygasi o'tkazilib kelingan.

1859-yili yosh M.V.Aseyev Lubna shahridan Parijgacha muvaffaqiyatli poygasini amalga oshirgan. 1910-1911-yillari rus ayoli A.Kudasheva Moskvadan Sibir yo'lida Harbindan Peterburggacha ot poygasida qatnashib dunyoga jasurligini namoyon qilgan.

Birinchi marta MDHda ot poygasi 1922-1923-yillari Rostovdan Dnepropetrovsk o'tkazilgan. Masofa oralig'i 100 km bo'lib, poygachilar orasida misli ko'rsatishlashkarboshilardan K.Ye.Voroshilov, S.M.Budyonniy, I.V.Tyulenevlar qatnashgan.

Kechroq chegara komandirlaridan 7 ta ayol fin chegarasidan to Moskva ot poygasida qatnashib natijalarga erishgan, 5ta kolxozchi qizlar Qorako'l qurultiyasida 600 km masofani 15 kunda bosib o'tgan. Juda katta ot poygasi Ashxabad-Moskvagacha o'tkazilib, unda Turkman kolxozchilari qatnashgan, yaxshi natijalarga erishgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin har xil masofa bo'yicha ot poygasi o'tkazilgan.

qazilgan. Sobiq SSSR chavondozlari 100 km lik masofada otlar poygasida dunyo rekordlarini oʻrnatib, 4 soat 1 minut, 05 sekund va 50 km ga bir soat 21 minut, 309 sani bir sutkada bosib oʻtgan. Ot poygasini oʻtkazishdan maqsad otlarni chaqqonligi, chidamliligini, chidamliligini, chavondozning mahoratini, yaʼni ot kuchini toʻgʻri baholash yoʻllarini bilishdan iborat. Musobaqa poygasi otni chaqqonligini, chidamliligini amalga oshiradi. Ot poygasi 25, 50, 100 km masofa oraligʻida, otlarni kundalik va koʻp kunlik vaqtlarda oʻtkaziladi. Ot poygasiga yaxshi tayyorlangan yoshi 6 yoshdan kichik boʻlmagan hamma zotlar qatnashishi mumkin. Poyga mashruti oʻzaro kollegiyasi oʻyin oʻtkazishdan oldin koʻzdan kechirilib oʻlchanadi. Nazorat natijalari oʻrnatiladi. Poyga natijasi umulashtirib baholanadi: chaqqonligi, otlarni chidamliligi, poyga davomida tirik vaznini kamayishi, klinik koʻrsatkichlari. Poygada qatnashadigan otlarni talabchanlik bilan zooveterinariya nazoratidan oʻtkaziladi. Boshqarilgan vaqtda xalqaro ot sporti federatsiyasi (FEI), dunyoda ot poygasi boʻyicha oʻtkaziladigan har xil masofa oraligʻi boʻyicha qoidalar ishlab chiqilgan.

Stipl-chez va toʻsiqlararo sakrab chopish

Bu oʻyinlar salt minuvchi ot zotiga xosdir. Qarchigʻay balandligi 164 sm va qoʻlroq, sagʻrisi yaxshi rivojlangan, pay aloqalari mustahkam, juda chaqqon, sakrab oʻtish qobiliyatiga ega. Ot sport oʻyinlariga otlarni tanlashda asosan eksteryeri, ish qobiliyatchanligi, yoshi, sogʻligi va temperament (mijozi) muhim rol oʻynaydi. Eksteryeri boʻyicha tanlash. Sport otlarining koʻzlari, harakatchan, ochiq, boshi oʻrtacha kattalikda, boʻyni yaxshi rivojlangan, ensa suyagi yetarli darajada uzun, oyoqlari katta boʻlmagan, ammo harakatchan, otlarni koʻzi tekshirishga asosiy eʼtiborni qaratish kerak. Birinchi navbatda, otning boshini yoruqqa qaratib koʻz qoʻyishini turli xil yoritgichlarga nisbatan qanchalik taʼsirchan ekanligini, unda oʻtish va kasalliklar borligini aniqlash mumkin. Koʻzi koʻr boʻlsa qoʻlni silkitganda oʻtmasdan turadi. Boshni koʻrgandan keyin tanasining yuqori liniyasi boʻyicha oʻyin orqasi va bel qismlari koʻzdan kechiriladi. Orqa va beli yetarli darajada keng, oyoqlari va muskilli tanani oʻrta miyasiga baho berishda yelkasi, qovurgʻalari sagʻri va boshi soʻngra oldingi va orqa oyoqlari koʻzdan kechiriladi. Oyoqlarning qoʻyilishi, oyoqlaridagi nuqsonlar, tuyoqlarning koʻrinishi, oldingi oyoqlarida qirquvchilaridan kelib odingi tuyoqlarigacha keyingi oyoqlarida esa, sagʻrisidan tortib yuqoridan oʻtishga muskullar, boʻgʻimlar, ayniqsa sakrash boʻgʻimlarining tuzilishi, paylari, suyak tuyoqlari.

Sport otlari tashqi koʻrinishidan chiroyli, otlarning tusi ham muhimdir. Sport otlarida qora, qoraquyuq, toʻriq, malla va buril tuslari ot sportining elementlarini bajarishda tilla – malla tusli otlar yaxshi natijalar beradi. Otlarni yoshi boʻyicha tanlash. Boshqarilgan vaqtda ot sportining turlarida 5 yoshdan 18 yoshgacha boʻlgan otlar ishlatiladi.

1. Oliy darajada salt minib yurish elementlari bajarishda 8-16
2. Konkurlar (toʻsiqlardan oʻtish) boʻyicha 8 yoshdan 14 yoshgacha.

3. Uch kurash bo'yicha 6-12 yoshgacha.
4. Stipl-chez va to'siqlarda sakrab o'tish 5-10 yoshgacha.
5. Tekis yo'ldan sakrab chopish 3-5 yoshgacha.
6. Milliy o'yinlarda 5-10 yoshgacha bo'lsa maqsadga muvoffikdir.

STIPII-CHEZ deb otni ochiq maydonda, otchoparda va har xil to'siqlar (ariq, yog'och to'siq, maxsus qilingan devor, chuqurlik, devor va boshqalar) bilan choptirishga aytiladi. Sportni bu turi qiyin, lekin juda qiziqarlidir. Stipl-chez musobaqasi chavonoz otning kuchini masofa va to'siqlar xarakteriga qarab taqsimlay olishi kerak. Bu musobaqasidagi masofa 1800 m dan 3600 m gacha bo'lishi mumkin. Kontrol vaqtga nisbatan tejalgan har bir sekund uchun 0,8 ball beriladi. Stipl-chez olimpiada uchun o'tkaziladigan ot sporti o'yinlari turiga kiradi.

Uch ot qo'shilgan o'yinning tarixi XIX asr boshlarida borib taqaladi.

Rossiyada Orlov yo'rtoqi zotlarini tarqalishi rus uchligini rivojlantirishga munosib xissa qo'shdi.

Rossiyada har yili rus uchligi musobaqalarini o'tkazish odat tusiga kirgan. Musobaqalar ma'lum qonun-qoidalar asosida o'tkazilib, uchlikdagi otlar ushbu uchlikni ko'rsatkichlari, ularni boshqarish san'ati, har xil yo'laklarda xilma xil mashg'ulotlarni to'g'ri qo'shilganligi, ularni bajarish, ayniqsa o'tanchi otni boshini yengil yonboshdagi otlarni esa boshini ikkinchi tomonga qaratgan holda tekis yo'lakdagi alohida e'tibor beriladi va baholanadi.

OT FOYTUNLARI MUSOBAQASI – otlarga qo'shilgan chiroyli aravalik yurish azaldan ko'pgina yevropa mamlakatlarida ommaviy xisoblanib kelgan. Uch qo'shilgan aravalarda xalqaro musobaqalar o'tkazish Angliya ot sporti federatsiyasi boshlig'i M. Ansel hamda Polsha, Vengriya, Shvetsariya, GFR mutaxassislar tomonidan taklif qilindi. Hozirgi paytda bu musobaqalarni o'tkazish uchun ma'lum qonun qoidalar ishlab chiqarilgan. Bu musobaqalarda chavonoz aravaga ikki yoki uch yo'lovchi oladi, aravalariga bir yoki ikki juft ot qo'shiladi. Musobaqalar to'rt kun davom etadi:

-birinchi kun chavonoz aravani otga qo'shish usulini ko'rsatadi va baholanadi.

-ikkinchi kun otlarni aravalar bilan yurishi namoyish qilinadi va baholanadi.

-uchunchi kun otlarning ish qobiliyatini namoyish qiladilar, ya'ni ular aravaga balun 36 km masofani bosib o'tadilar va baholanadi.

-to'rtinchi kun otlarni otchoparda sinashda keyingi holati ko'zdan kichiriladi va baholanadi.

VOLTJIROVKA - bu chavonoz va otni bir-biriga uyg'unlashgan holda ma'lum tezlikda har xil gimnastika mashqlarini aylanasini 15 sm maneja bajarilishiga aytiladi. Voltjirovka tarixi oldingi asrlar qatriga ketadi. Voltjirovkani o'ziga o'xshash qonun-qoidalar mavjud bo'lib, shu qonun-qoidalar asosida musobaqalar o'tkaziladi. Voltjirovka bilan shug'ullanadigan otlar juda yengil boshqarilgan chavonozlar hamda hamma mashqni juda yaxshi bajarishi, aylana bo'ylab tekis ritmik harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bunday otlarni tanlash uchun juda yuvosh, uncha kuch

...gan, lekin ko'kragi va sag'risi keng otlarni ajratib olinadi. Ajratilgan otlarni har xil mashqlarni bajarishini o'rgatib boriladi va natijada bir otni ustida 1 tadan o'tib chiqishga voltijerchi chavondozlari erkin harakat qilib har xil mashqlari bajarishadi. Voltijirovka juda ko'plab mamlakatlarda keng tarqalgan.

1983-yildan boshlab voltijirovka musobaqalari fen qonun qoidalariga asosan o'tkaziladi. Voltijirovka musobaqalarida harakatlar munosibligini, ularni soatini o'tib chuvandozini har xil mashqlarini aniq va chiroyli bajarishga e'tibor beriladi va bahalashadi.



79-rasm. VOLTJIROVKA

14.4. Milliy ot sporti

Ot sporti – o'yinlarning eng ommaviy turlaridan biri milliy ot o'yinidir. Ot sporti o'tgan yillar davomida hamma inson madadkori bo'lib keldi, mehnatga va farosatlarda unga ko'makdosh bo'ldi, sport bellashuvlarida fidokorona xizmat ko'rsatib, o'tning baxshilariga ilhom bag'ishladi.

